



MODERN SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

International Scientific Journal

ISSUE 12

London • 2020

MODERN SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

ISSUE 12

JANUARY 2020

International Scientific Journal

LONDON, UNITED KINGDOM
Scientific Publishers "iScience"

ISBN: 978-1-9997898-5-5

MODERN SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL: International Scientific Journal
(Issue 12, 2020) - London: Sp. z o. o. "iScience", 2020. – 85 p.

Languages of publication: українська, русский, english, polski,
беларуская, казакша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերէն

Scientific journal are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees.

The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

ISBN 978-1-9997898-5-5

© Sp. z o. o. "iScience", 2020

© Authors, 2020

TABLE OF CONTENTS

SECTION: BIOLOGY SCIENCE

Жежкун Анатолій (Новгород-Сіверський, Україна) ВІДТВОРЕННЯ ПРИРОДНИХ СОСНОВИХ ЛІСІВ СХІДНОГО ПОЛІССЯ УКРАЇНИ.....	5
--	---

SECTION: MEDICAL SCIENCE

Хақимжанова Азизахон Содикжон кизи, Каратаева Лола Абдуллаевна (Ташкент, Узбекистан) К ВОПРОСУ ЭПИДЕМИОЛОГИИ ГРИППА.....	9
--	---

SECTION: PEDAGOGY

Dusmetova Maqsuda, Kosimova Hulkar (Urganch, O'zbekiston) RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK ASOSLARI.....	13
Jumaniyozova Muhabbat Xo'sinovna, Tangriyeva Umida Allaberganovna (Urganch, O'zbekiston) ADABIY TA'LIMDA ZAMONAVIY TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH.....	18
Ollaberganova Sanobar Hamidovna (Urganch, Uzbekiston) BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	23
Qalandarova Dilafruz Karimovna (Urganch, O'zbekiston) ABDULLA AVLONIYNING "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARINI BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'RGANILISHI.....	27
Rahimova Shoira Adilbekovna, Matyabubova Shoira Saidabdullayevna (Urganch, O'zbekiston) MATEMATIK ERTAK, MAQOL VA TOPISHMOQLAR-MATEMATIK TA'LIM JARAYONIDA INSONPARVARLIK G'OYALARINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA.....	29
Sapayeva Boljon Qadamovna (Urganch, O'zbekiston), Hayitova Malika Maqsudovna (Qo'shko'pir, O'zbekiston) BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARINI REJALASHTIRISH.....	33
Tilavova M. D., Sapayeva B. Q. (Urganch, O'zbekiston) BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA IQTISODIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH.....	37
Xudoynazarov Egambergan Madraximovich, Xalillayeva Go'zaloy (Urganch, O'zbekiston) BOSHLANG'ICH TA'LIMDA LOYIXALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK ASOSLARI.....	41
Жуманиёзова Муҳаббат Ҳўсиновна, Закирова Мақсуда Атаевна (Урганч, Узбекистан) МАТН ЁРДАМИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ОҒЗАКИ НУТҚИНИ ЎСТИРИШ УСУЛЛАРИ.....	44

Худойназаров Эгамберган Мадрахимович, Мавланова Чарос Эркинбай кизи (Урганч, Узбекистан) УЧЕБНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМЫ НАПРАВЛЕННЫЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИБУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ....	50
Худойназаров Эгамберган Мадрахимович, Қўчқорова Шакаржон (Урганч, Узбекистан) ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ЎҚУВ ФАОЛЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ МУЎЖИМ ОМИЛЛАР.....	53

SECTION: PHILOLOGY AND LINGUISTICS

Niyazmetova Shahlo Adamboyevna (Urganch, O'zbekiston) ABDULLA QODIRIYNING "O'TGAN KUNLAR" ROMANIDA TO'Y MAROSIMI TAHLILI.....	56
Razzoqova Sunbul Shermat qizi (Urganch, O'zbekiston) FALERONIM ATAMASI VA UNING O'RGANILISH TARIXI.....	60
Ruzimatova Gulzoda Sharipovna (Urganch, O'zbekiston) BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ OG'ZAKI IJODINI O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	63
Tilavova Munavvara Durdiyevna, Madrahimova Dinora Ismoil qizi (Urganch, O'zbekiston) MUTAFAKKIR VA SHOIRLAR MEHNAT VA MEHNAT TARBIYASI HAQIDA.....	66
Вишневська Г. Б. (Тернопіль, Україна) КАРТИНА СВІТУ ЯК ОБ'ЄКТ ЛІНГВІСТИЧНИХ СТУДІЙ УКРАЇНСЬКИХ ДОСЛІДНИКІВ.....	71
Деванова И. (Урганч, Узбекистан) «ХУРЛИҚО ВА ҲАМРО» ДОТОНИНИНГ ИЛМИЙ ЖИҲАТДАН ЎРГАНИЛИШИ.....	75
Пирматова Озодахон Сапарбоевна (Урганч, Ўзбекистон) ХОРАЗМ ШЕВАСИДА ИШЛАТИЛАДИГАН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИГА ОИД АЙРИМ ШОЛИЧИЛИК ТЕРМИНЛАРИ.....	78
Эшчанова Гавҳар Отажоновна, Халмуратова Ирода Сапарбаевна (Урганч, Ўзбекистон) «ИДЕГА» - МАШҲУР ТАТАР ХАЛҚ ДОСТОНИ.....	81

SECTION: BIOLOGY SCIENCE

Жижун Анатолій
Державне підприємство «Новгород-Сіверська лісова
науково-дослідна станція»
(Новгород-Сіверський, Україна)

**ВІДТВОРЕННЯ ПРИРОДНИХ СОСНОВИХ ЛІСІВ
СХІДНОГО ПОЛІССЯ УКРАЇНИ***RESTORATION OF NATURAL PINE FORESTS
OF EASTERN POLESIE OF UKRAINE*

Features of restoration of pine stands of natural origin are considered. In pine tree stands of mature age, after the first acceptance of shelterwood felling and measures to promote natural regeneration, over 50 thousand pieces per hectare of self-seeding are restored in the seed year and stored after the final acceptance of felling 65-85% of the advance growth of Scots pine. After clear felling and tillage on the felling sites, surrounded by borders of pine forests of reproductive age, a successful natural restoration of pine and other valuable species occurs. As a result of the natural afforestation of agricultural lands left without cultivation mixed stands are formed with domination in stand composition of the Scots pine. Further formation of the target composition of pine forests of natural genesis is carried out by a system of tending felling.

Keywords: *Scots pine, natural restoration, self-seeding, advance growth.*

Ліси природного походження найповніше виконують природоохоронні, захисні, середовищотвірні функції та забезпечують збереження природної спадщини земель. Корінні соснові деревостани, що мали природне походження та повсюдне поширення у минулі роки, доволі докладно описані у літературних джерелах [1, 2, 3, 7, 8, 9]. У наслідок тривалого, інтенсивного та надмірного лісокористування зменшилися площі і експлуатаційні запаси природних соснових лісів, особливо у поліському регіоні України.

Східне Полісся України знаходиться на Лівобережжі р. Дніпро, у межах частини Київської, Чернігівської та Сумської адміністративних областей України. Загальна площа лісового фонду – понад 700 тис. га, лісистість регіону – 25,6 %. Деревостани з пануванням у складі сосни звичайної займають 66,4 % від вкритих лісовою рослинністю земель. За віковою структурою переважають деревостани V – VIII класів віку. Середні таксаційні показники соснових деревостанів: вік – 63 роки, повнота -0,77, клас бонітету – Ia,9, запас – 341 м³га⁻¹ [5]. За класифікаційними принципами Є. В. Алексєєва [1], Д. В. Воробйова, П. С. Погребняка [3] у Східному Поліссі України виділено 19 типів соснових лісів [4]. Соснові деревостани належать переважно до типу лісу свіжий дубово-сосновий субір (62,3 %).

Частка соснових лісів природного походження є не великою (19,1 %). Переважна більшість природних соснових лісів має вік понад 70 років. Ступінь використання лісорослинного потенціалу сосновими деревостанами віком 101 – 120 років природного походження є дещо вищим (на 3 – 9 %), ніж штучними сосняками. Особливо мізерна частка природних соснових лісів віком до 40 років. Натомість, у переважаючих штучних соснових молодняках виявлено збіднення видового складу, спрощення генетичної структури та біорізноманіття, послаблення життєздатності дерев, що знижує резистентність до впливу несприятливих чинників довкілля.

Для поліпшення біологічної стійкості, підвищення біорізноманіття та довговічності деревостанів лісівникам та науковцям поставлено завдання розширеного відтворення природних соснових лісів у регіоні досліджень та у державі в цілому.

Відтворення соснових деревостанів природного походження може відбуватися після проведення рубок головного користування та заходів сприяння природному відновленню. В процесі проведення поступових рубок відбувається супутнє відновлення головних порід. Упродовж 2013 – 2014 рр. перші прийоми поступових рубок проведено на площі 534 га соснових деревостанів. Частка мінералізації ґрунту становила близько 50 % від площі деревостанів. Після першого прийому рівномірно-поступових рубок зі зниженням повноти соснових деревостанів до 0,3 – 0,5 у насінневий рік відновлюється до 50 тис. шт.га⁻¹ самосіву сосни звичайної та інших деревних видів. Кількість 3-4-річного підросту сосни становить 8 – 37 тис. шт.га⁻¹, він рівномірно розміщений на ділянках та має висоту до 0,5 м. Після проведення кінцевого прийому рівномірно-поступових рубок зберігається 65 – 85 % 3-5-річного підросту сосни звичайної, дуба звичайного, берези повислої та інших порід з рівномірним розміщенням (частота трапляння 75 – 90 %). Упродовж 5 років після завершення рівномірно-поступових рубок формуються соснові молодняки природного походження з часткою інших дрогоградних порід. На пробній площі 1-Бат лісівничо-таксаційні показники деревостану природного походження: склад – 6С3зБп1Дз, середній вік – 7 років, середня висота – 1,8 м, середній діаметр – 0,5 см, зімкнутість – 0,65, кількість дерев – 6,3 тис. шт.га⁻¹, з них сосни – 4,5 тис. шт.га⁻¹, запас – 2 м³га⁻¹.

Після суцільних рубок головного користування та прокладання плужних борозен на зрубках у перший рік відновлюється від 19 до 112 тис. шт.га⁻¹ самосіву сосни звичайної. Коливання кількості самосіву сосни залежить у межах типу лісу від ступеня насінношення дерев сосни у стінах лісу, ширини, напрямку зрубів, частки мінералізації ґрунту, погодно-кліматичних умов. У насінневий рік у ґрунт потрапляло до 1,3 млн. шт.га⁻¹ насінин сосни звичайної. Частка мінералізації ґрунту становила 50 – 60 % від площі зрубів. Наприкінці другого вегетаційного періоду залишалось 15 – 112 тис. шт.га⁻¹ 1-2-річного самосіву сосни. Упродовж 3 – 8 років кількість збережених дерев сосни на зрубках з меридіанним напрямком – 3,7 – 11,5 тис. шт.га⁻¹, а з широтним – 2,2 – 17,8 тис. шт.га⁻¹.

Обсяги рубок головного користування у стиглих соснових деревостанах для природного відновлення сосни звичайної та формування природних сосняків можуть становити 25 – 30 % від площі розрахункової лісосіки.

До заходів з відтворення природних соснових лісів належать рубки переформування. Переформування чистих одновікових соснових деревостанів у різновікові, мішаного складу проводиться за 4 прийоми, повторністю 4 – 6 років, з рівномірним, груповим та смуговим вилученням дерев. Рубки переформування слід приурочувати до насінневого року, здійснювати заходи сприяння природному відновленню сосни та догляди за самосівом та підростом.

Відтворення соснових деревостанів природним способом відбувається на колишніх ділянках ріллі, сіножатей, пасовищ [6]. На перелогах, що утворились на орних землях 10-річної давності та межують із середньовіковими сосняками, від стін лісу деревця природного поновлення сосни, віком 6 – 8 років, спорадично розміщуються на відстань до 150 м. Найбільша кількість дерев сосни (2,0 – 2,8 тис. шт..га⁻¹) поширюється на відстані 20 -100 м. Частка від кількості дерев сосни, що поширюється на відстані 20 м становить 50 %, 40 м – 28,6 %, 60 м – 17,8 %, 80 м – 3,6 %. Під наметом соснових молодняків відновлюються чагарникові породи, формується підлісок та інші компоненти природних соснових лісів.

Для формування природних соснових лісів застосовуються рубки догляду. У процесі проведення рубок догляду використовують селективно-генетичний добір дерев, формування деревостанів мішаного складу, складної формової будови.

Таким чином, у процесі проведення системи лісогосподарських заходів у Східному Поліссі України відбувається відтворення природних соснових лісів з високою біологічною стійкістю, довговічністю та продуктивністю.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Алексеев Е. В. Типы украинского леса. Правобережье / Е. В. Алексеев. К.: Книгоспілка, 1929. 183 с.
2. Белецкий Г. Сведения о лесах Кролевецкого уезда Черниговской губернии / Г. Белецкий // Лесной журнал. 1840. Вып. 4. С. 7–19.
3. Воробийов Д. В. Лісовий типологічний визначник Українського Полісся / Д. В. Воробийов, П. С. Погребняк // Труды з лісової дослідної справи на Україні. Харків, 1929. 164 с.
4. Жежжун А. М. Типологічні дослідження лісів Східного Полісся України / А. М. Жежжун // Сучасний стан і перспективи розвитку лісової типології в Україні: матеріали Першої всеукраїнської лісотипологічної конференції [XII Погребняківські читання]. (Львів, 10 – 11 червня 2010 р.). Львів: РВВ НЛТУ України, 2012. С. 162–165.
5. Жежжун А. М. Соснові деревостани Східного Полісся: структура, стан, продуктивність / А. М. Жежжун // Лісівництво і агролісомеліорація / Зб. наук. праць. Харків: УкрНДІЛГА, 2014, Вип. 124. С. 3–12.
6. Жежжун А. М. Особливості відтворення лісів Східного Полісся А. М. Жежжун //Науковий вісник Національного університету біоресурсів і природокористування України. К.: ВЦ НУБіП України, 2015. Вип. 219. С. 130–142.
7. Мякушко В. К. Сосновые леса равнинной части УССР /В. К. Мякушко. К.: Наук. Думка, 1978. 256 с.

8. Поварніцин В. О. Ліси Українського Полісся /В. О. Поварніцин. К.: Вид-во АН Української РСР, 1959. 207 с.
9. Paczoski J. O formacjach roślinnych i o pochodzeniu flory Poleskiej. Pamiętnik Fizjograficzny, 1900, N 16. P. 212–239.

SECTION: MEDICAL SCIENCE

**Хакимжанова Азизахон Содикжон кизи,
Каратаева Лола Абдуллаевна
Ташкентский Педиатрический Медицинский Институт
(Ташкент, Узбекистан)**

К ВОПРОСУ ЭПИДЕМИОЛОГИИ ГРИППА

В последнее время зачастили случаи гриппа, при этом источниками вируса сезонного гриппа является больной человек с явным и стертыми формами болезни.

Как показывают данные литературы, что контагиозность больного максимально выражена в первые 5-6 дней болезни. В последние годы появились факты, позволяющие предполагать о возможности передачи вируса типа А от животного к человеку. В частности лабораторно подтверждено инфицирование домашних животных (лошадей, свиней, ослов, баранов, кур, и др.), совпадающих по времени с эпидемиями сезонного гриппа, что свидетельствует о возможности причастности животных к эпидемическому процессу гриппа.

Авторами литературы было установлено, что фиксировались случаи инфицирования людей вирусами гриппа животных (свиней). Однако место и роль животных в эпидемиологии гриппа не изучены, и они не рассматриваются в качестве возможных источников сезонного гриппа по отношению к человеку.

Эпидемическую опасность человека, который инфицирован вирусом гриппа, определяют два фактора: количество вируса в слизи верхних дыхательных путей и выраженность респираторного синдрома.

Количество вируса, достаточного для инфицирования человека, содержится в 0,0001 мл носоглоточного секрета. Выделение вируса во внешнюю среду было обнаружено за 24-48 часов до начала болезни, но в основном в намного более низких титрах, чем во время симптоматического периода, так как зависит от выраженности респираторного синдрома. Установлено, что от больных гриппом с обильными выделениями из носоглотки, заражаются в 7 раз чаще, чем от больных со слабо выраженными поражениями слизистой оболочки верхних дыхательных путей.

Концентрация вируса достигает пика во время первых 24-72 часов болезни и снижается в течение нескольких дней (обычно, в течение 5 дней). Выделение вируса у людей с иммунным дефицитом может длиться от 1-2 недель до месяцев.

Зарубежными и отечественными авторами литературы отмечен тот факт, что в сравнении с взрослыми, у детей выделение вируса начинается раньше и продолжается в течение более длительного периода. Вирус обычно обнаруживается в течение 7-8 дней после начала болезни, но у детей

это может продолжаться до 21 дня, особенно у детей с тяжелым течением заболевания. Примерно у 30 % детей, инфицированных вирусом сезонного гриппа, не развивается клиника заболевания.

Большую эпидемиологическую опасность представляют больные, которые при заболевании гриппом не остаются дома, а продолжают посещать общественные места. Продолжая вести активный образ жизни, они успевают заразить большое количество людей.

Инкубационный период при сезонном гриппе составляет в среднем 1-2 дня, и последовательный интервал (средний интервал между началом болезни у 2 последующих пациентов в цепи передачи) составляет 2-4 дня. Среднее количество заражаемых людей одним источником инфекции в период эпидемии, составило 1,8 – 3 человека. При гриппе A/H1N1-2009 инкубационный период длился дольше, в среднем от 2-х до 7 дней. Репродукция вирусов происходит с исключительно высокой скоростью: при попадании в верхние дыхательные пути одной вирусной частицы уже через 8 часов количество инфекционного потомства достигает 10^3 вирусов, а до конца первых суток – 10^{23} вирусов. Высокая скорость размножения вируса гриппа объясняет такой короткий инкубационный период. Скорости репродукция вируса способствует распространение многих сотен вирионов, которые подготовлены лишь одной инфицированной клеткой.

Вирус гриппа – единственный вирус, ежегодно вызывающий эпидемии в разных регионах мира, хотя их место, масштабы и тяжесть весьма варьируют. Клиницистами отмечено, что локальные вспышки возникают через разные интервалы времени, обычно каждые 1-3 года. Эпидемии гриппа могут существенно отличаться по интенсивности, продолжительности и тяжести течения заболевания, в зависимости от ряда факторов, таких как свойств доминирующего в циркуляции субтипа вируса, уровень восприимчивого контингента, погодных условий и др. показано, что средняя продолжительность сезонных эпидемий гриппа в период 1976 – 2002 г. варьировала от 3,7 до 10 недель, при этом сам эпидемиологический вирус циркулировал от 7,6 до 18,4 недель.

Причины, лежащие в основе начала и окончания вспышек заболевания не выяснены. Основным фактором, ограничивающим распространённость и тяжесть вспышки, является уровень иммунитета у населения с риском развития заболевания. Если появляется новый с антигенной точки зрения вирус гриппа, к которому антитела отсутствуют, или напряжённость иммунитета популяции снижена, то возникает массивная вспышка. Если же антител к данному вирусу нет ни в донной популяции, то эпидемия заболевания распространяется по всему земному шару, приводя к пандемии. Такие волны пандемии длятся в течение нескольких лет, до тех пор, пока не повысится уровень иммунного населения. Однако антигенная новизна вируса не гарантирует интенсивность эпидемиологического процесса непредсказуемо и доминирование субтипов вирусов гриппа.

Было показано, что разнообразие серовариантов вируса гриппа значительно выше в начале эпидемиологического периода, чем в более поздние периоды сезона гриппа. Количество серовариантов вирусов гриппа было наименьшим во время пика эпидемии, вероятнее всего, за счет преобладания

одной доминантной аминокислотной последовательности или очень небольшого количества доминантных последовательностей в течение пикового периода эпидемии, что соответствовало быстрому увеличению популяции вируса.

В годы после пандемии гриппа изменчивость вируса приводит к вспышкам различного масштаба у населения, имеющего высокий уровень иммунитета к пандемическому штамму, циркулировавшему ранее. Такая ситуация сохраняется до тех пор, пока не появится другой, новый с точки зрения антигенной структуры пандемический штамм. С другой стороны, вспышки заболевания могут так же неожиданно оканчиваться, несмотря на наличие в популяции большого числа восприимчивых лиц. Иногда появление антигенного варианта вируса, существенно отличного от предыдущих, приводит лишь к локальным вспышкам. Локальную вспышку свиного гриппа в 1977 г. в США, не получившую распространения, можно рассматривать как пример вышесказанного.

При тщательном учете первичной обращаемости установлено, что вспышка гриппа не начинается внезапно, а имеет предэпидемический период. В этот период отмечается нарастание случаев заболеваний с выраженной заразительностью для окружающих, а также увеличение количества множественных очагов.

Сезонные эпидемии гриппа А обычно достигают максимума через 2-3 недели, длятся 2-3 месяца и часто затухают так же быстро, как начались. Первым признаком появления активности гриппа служит увеличение числа детей с острыми респираторными заболеваниями, сопровождающимся температурой. Затем следуют повышение числа заболеваний среди взрослых и возрастание поступления в больницы пациентов с пневмониями.

В Швейцарии во время эпидемии гриппа клинический диагноз во многих случаях подтверждается лабораторно, поэтому, по оценке ВОЗ, там одна из самых достоверных в Европе система наблюдения за гриппом. Эпидемии гриппа в Швейцарии в 1998 – 2002 гг. начинались в декабре январе и даже в феврале. Эпидемии продолжались от 8-9 недель до 11-12 недель и заканчивались в феврале, другие в марте и даже в апреле. Пик эпидемии в разные годы приходился на конец декабря – начало января, на февраль и на март. По данным ВОЗ, в отношении вирусов гриппа, выделяемых во время эпидемии в различных странах Европы, в разных странах циркулировали не одни и те же штаммы вируса гриппа. Так в одних странах циркулировали вирусы всех 3 серотипов (А/Н3N2, А/Н1N1 и В), в других - 2 серотипов, а в третьих - только одного серотипа. Таким образом, представленные данные четко показывают все разнообразие гриппозных эпидемии и вирусов гриппа их вызывающих.

Заболеваемость населения во многих странах за последнее десятилетие XX века, по сравнению с предшествующим десятилетием снизилась в полтора-два раза, как среди взрослых, так и среди детей. Хотя дети по-прежнему болеют в 5-6 раза чаще, чем взрослые.

В до пандемический период 2009 г., в ряде стран отмечалась тенденция роста заболеваемости ОРВИ, при отсутствии роста заболеваемости гриппом. Суммарная заболеваемость гриппом и ОРВИ имела тенденцию к

снижению, хотя доля гриппа А и В в ней, оставалась стабильной. Характерно, что грипп наслаивается на заболеваемость гриппом А (смешанные эпидемии), заболеваемость им обусловлена почти ежегодным формированием нового дрейф – варианта.

Таким образом можно сказать на основе литературных данных, что в случае появления пандемического вируса, сроки его созревания могут быть короче ожидаемых, ибо численность населения по земному шару растет и, следовательно, постоянно увеличивается прослойка молодого поколения людей с дефектами иммунной системы.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Слука Н. А. Урбанистическая панорама мира на пороге XXI века. М.: Вестник Московского Университета, 2000. - №2. С. 7-12.
2. Спыну К. И, Скоферца П. Г., Кожораку Р. И., Урсу А. Совершенствование Системы эпиднадзора гриппа в Республике Молдова // Проблемы совершенствования межгосударственного взаимодействия в подготовке к пандемии гриппа: Тезисы докладов Международной научно-практической конференции. Новосибирск. 2008. – С.60-62.
3. Гендон Ю. З. массовая вакцинопрофилактика гриппа у детей как главный фактор борьбы с эпидемиями гриппа // Журнал микроб. М., 2007. - №4. – С. 78-85.
4. Smith G., Vijaykrishna D., Bahl J., et al. Origins and evolutionary genomics of the 2009 swine-origin H1N1 influenza A epidemic // Nature. – 2009. – V.459, P. 1122-1125.

SECTION: PEDAGOGY

**Dusmetova Maqsuda, Kosimova Hulkar
(Urganch, O'zbekiston)**

RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada rivojlantiruvchi ta'limni pedagogik va psixologik asoslari, ta'limni tashkil etishning asosiy shakli ma'ruza, ma'ruzaga qo'yiladigan talablar xususida.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, ma'ruza, pedagogika, psixologiya, talaba.*

Аннотация. *В статье излагаются идеи, педагогические и психологические основы развивающего образования.*

Ключевые слова: *обучение, воспитание, лекция, педагогика, психология, студент.*

Annotation. *This article is pedagogical and psychological bases of developing education.*

Key Words: *educations, spirituality, hinker, generation, pedagogical, psychological.*

Ta'limni tashkil etishning asosiy shakli ma'ruzadir. Uning asosiy didaktik maqsadi talabalar keyinchalik o'quv materialini o'zlashtirishlari uchun mo'ljal beruvchi asosni shakllantirishdan iborat. Ma'ruza o'quv mashg'ulotlarining barcha shakllari uchun metodologik va tashkiliy asos bo'lib xizmat qiladi. Pedagogika fanida ma'ruzaning muhim 5 ta turi qonuniy ravishda tavsiflangan. Ular axborot beruvchi, yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi, metodik rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ma'ruzalar deb ataladi. Har qanday ma'ruzaning umumiy tuzilishi quyidagi tartib bo'yicha belgilab beradi: mavzuni e'lon qilish, ma'ruza rejasi va mazmuni, mustaqil o'rganish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatini bayon etish, rejaga rioya qilgan holda material bilan tanishtirish.

Oliy maktabning mahsuloti-bu tayyorlagan kadrlar sanaladi, xuddi shu bois oliy o'quv yurtlarining nufuzi ularning bosh mezonlarida o'z ifodasini topadi. Bular qatoriga quyidagi mezonlarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

1. Oliy o'quv yurtida mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi (muayyan professiogramma, professiografiya, psixogrammaga asoslangan holda ularning kasb egasi sifatida shakllanganligi).

2. Oliy maktablarda mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning darajasi, sifati (ularning umumiy ma'lumotlilik, saviyasi, maxsus bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalari, turli vaziyatlarda ulardan foydalanish imkoniyati).

3. Mutaxassislikka oid kasbiy faoliyatning muhim shart-sharoitlari, qo'yadigan talabi, o'ziga xos xususiyatlari ("inson-inson", "inson-texnika", "inson-obraz" va boshqalar).

4. Mutaxassis yoki bo'lg'usi kasb egasining individual-tipologik (temperament, irsiy alomatlar, tug'ma mayllar), jins va yosh xususiyatlari (ilk o'spirinlik, o'spirinlik va bunda biologik rivojlanishning ta'siri, o'rni).

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, talabalarning bilim olish qobiliyati, iste'dodi, zehni va uquvchanligining rivoji ko'p jihatdan uchta muhim omilga bog'liqdir.

1. Talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalarning puxtaligi, barqarorligi, mustahkamligi (chunki ularni o'zlashtirish jarayonida III-IV kurslarda ba'zi bir salbiy qusurlik jihatlari kelib qo'shiladi).

2. O'quv va tarbiyaviy ishlarni oqilona tashkil etish va nazorat qilish-talabalarning o'qishga munosabatlarining (motivatsiyalarining), ya'ni ichki turtkilari majmuasining muhim shartidir (talaba shaxsining o'ziga xos xususiyati, mavzuning ijtimoiy-shaxsiy ahamiyatligi, o'quv fani bo'limining dolzarb muammolariga boyligi va hokazo).

3. Talabalarning mustaqil (faol, ijodiy, nostandart) ravishda oqilona bilim olishga o'rgatish va bu sohada muayyan maslahatlar, tavsiyalar ishlab chiqish umumiy maqsad namoyon bo'lishining kafolati (garovi) dir.

Shuni unutmaslik lozimki, oliy maktablarda fan asoslarini egallash sifati, mahsuldorligi ko'p jihatdan quyidagilarga bog'liqdir:

1. Oliy o'quv yurti professor-o'qituvchisi talabani nimaga o'rgatadi?

2. Kim, ya'ni qaysi professor-o'qituvchi va qay yo'sinda ob'ektiv (tabiiy) va sub'ektiv (shaxsiy) omillarni nazarda tutadi?

3. Kimni (qaysi toifadagi, qanday aqliy imkoniyatga ega bo'lishiga binoan unga, guruhga bilim berish zarur ekanligi nazarda tutiladi) o'qitadi:

a) talabalar hukmiga, muhokamasiga qo'yiladigan o'quv materialining (mavzusining) xususiyati;

b) muallimning o'qituvchilik mahorati, o'qitish uslubi, muomala maromi;

v) talabalarning individual-tipologik, jins (biologik o'sishdagi tafovut) va yosh xususiyatlari hamda ularni ta'lim jarayonida hisobga olish.

g) ta'lim taraqqiyotni o'z ketidan yetaklaydi degan tamoyildan biroq chetlashish evaziga (internetlar tufayli, iste'dodli talabalar mavjudligi sababli) taraqqiyot ta'limni yetaklashi mumkin degan qarorga kelindi.

Oliy maktab Pedagogikasining dolzarb muammolari quyidagilardan iboratdir:

1. Oliy maktab tuzilishining etnik, etnopsixologik va hududiy xususiyatlariga asoslanib uni qayta qurish maqsadga muvofiq. Chunki jahon ta'limi standartlariga yaqinlashmoq, ularga moslashib yangi mutaxassisliklarni joriy qilmoq va ularni tayyorlashni rejalashtirmoq lozim.

2. Oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitish, shaxs sifatida shakllantirish (ijtimoiylashuv) jarayoni hozirgi zamon talabalariga javob bera oladigan metodlar (uslublar, shakllar), vositalar, usullar yangi mazmun bilan boyitilishi, milliy qiyofa, xarakter, his-tuyg'ularni hisobga olib sa'y-harakatlar amalga oshirilishi joiz. Asta-sekin monologik o'qitish tizimidan dialogik, innovatsion (yangilikka asoslangan), hamkorlik (o'qituvchi bilan talabalar faoliyatini uyg'unlashtirish) singari ta'limning yangi turlariga o'tish o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Oliy maktab o'quv rejasi, dasturi va ularga asoslanib chop qilinadgan darsliklar, qo'llanmalar, ishlamalar, ma'ruza matnlarini qaytadan ko'rib chiqish,

yanada puxtalashtirish, mutaxassislikka bevosita aloqasi bo'lmagan o'quv fanlarini (materiallarini) oqilona qisqartirish inson omilini hisobga olish demakdir:

a) talabalarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olib auditoriya mashg'ulotlarini kichik kurslarda 24 soat, katta kurslarda 28 soat qilib belgilash mustaqil fikrlashga, ijobiy izlanishga puxta zamin hozirlaydi hamda ishchanlik qobiliyatiga putur etkazmaydi, bu psixologik voqelik bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kutiladi;

b) jahon ilg'or tajribasiga asoslangan holda nazariy va amaliy bilimlar nisbatini 30:70 etkazish kasbiy malakalarini takomillashtirishga xizmat qiladi; bizning mutaxassislar boshqa mamlakatlar kadrlaridan nazariy jihatdan ustunlar, lekin ko'nikmalar egallash ancha zaifdir; ana shu yo'l bilan kundalik talaba faoliyatini ikki qismga ajratish imkoniyati yaratiladi (9-12;13-17), bu esa o'z navbatida uy topshiriqlarini keskin qisqartirishga olib keladi, ijodiy izlanish, mustaqil fikrlash tanqidiy munosabatni talabalarda shakllantiradi; (o'qituvchilar nazariy yuklamasini 280 soat qilib belgilash o'qitish sifati, samaradorligini oshiradi);

v) o'quv dasturini mumkin qadar ixchamlashtirishni rejalashtirishni osonlashtiradi; ma'lumki, 2 soatga mo'ljallangan dastur mavzusida o'rtacha 30 ta ilmiy tushuncha, atama mujassamlashgan, lekin ularning mohiyatini ochib berish juda mushkuldir; bizningcha, yuzakilik aynan shundan kelib chiqadi, mulohaza o'rnini ta'kidlov egallaydi, xolos: buning uchun muhim tushunchalar, ta'riflar, teoremlar tanlab olinishi, yordamchilarini esa manbalar bilan tanishishga yo'naltirish ma'qul, ana shunda chalkashliklar barham topadi;

g) o'qitishni faol uslublar negiziga qurish lozim, toki bunda o'qituvchi bilan talaba hamkorligi ustuvor o'rin egallasin; test, bahs, ishbilarmonlik o'yinlari, qiyinlashtirilgan pedagogik muammo, evristika, trening, psixodrama, boshqotirma, fikrlar jangi kabi faol, mustaqillikka yetaklovchi o'qitish metodlari va shakllari- oliy ta'limning negiziga aylansin; kompyuterlashgan ta'lim, masofadan o'qitish (internet) va hokazolar zamon talabi, ehtiyoji, zaruratidir;

d) darslik va qo'llanmalar hajmi o'spirinlarning yosh xususiyatlari, imkoniyatlariga mutlaqo mos tushishi lozim; chunki 17-18 yoshlik talabalarning diqqat barqarorligi 60 minut atrofida, mabodo matn hajmi katta bo'lsa, uni o'zlashtirish darajasi shunchalik qiyin kechishi kuzatiladi; radio va televidenie diktori bir bet matnni (1680 alomatni) 2 minutda o'qiydi, biroq o'zlashtirmaydi, agar bu jarayon psixologik jihatdan tahlil qilinsa, u holda tushunish uchun (ilmiy tilda bitilganligi hisobga olinsa) 3 marta ko'p vaqt sarflanadi; 10 bet matnga bir soat vaqt talab qilinadi, agar 3 ta fandan mustaqil topshiriq berilgan bo'lsa, u taqdirida matnlarni egallash ko'rsatkichi yanada pasayib ketishi shak-shubhasiz; darslik sahifalari har xil shriftda berilishi, ajratib ko'rsatishi, qoramtirroq qilinishi, tagiga chizilishi va hokazolar vosita sifatida xizmat qiladi; hatto jahon psixologlari talabiga binoan darslik (qo'llanma) paralingvistik, ekstralingvistik, proksemik qonuniyatlarga asoslangan holda yozilsa, uning matnlarini egallash ko'rsatkichi ko'tariladi, ishchanlik qobiliyati yo'qolmaydi, aqliy zo'riqish, asabiy taranglik hodisalari mumkin qadar kamayadi.

4. Talabalarda fikrlashni shakllantirish, ijodiy izlanishga o'rgatish, tanqidiy tafakkurni tarkib toptirish-oliy maktab pedagogikasining dolzarb muammolaridan biridir. Maxsus mashg'ulotlar ularga mustaqil ravishda bilim olish vositalari bilan qurollantiradi:

a) fan to'garaklari, tezis, referat, kurs ishi, bitiruv ishi, birlamchi manbalar bilan shug'ullanish kezarida muayyan maqsad amalga oshadi va u yoki bu darajada shaxsiy, protsessual xislatlari tarkib topa boshlaydi;

b) iste'dodli talabalar faoliyatini tashkil qilish; birinchidan, fanlar bo'yicha erishilgan ko'rsatkichlar iste'dodning aynan o'zi emas, albatta bu birgina mezon, xolos; ikkinchidan, iste'dod topshiriqlar rang-barangligini tushunish va ularni echishni uddalash; uchinchidan, ijodiy unsurlarning mavjudligi va uzluksizligi, to'rtinchidan, vaqt tejamkorligi, bashorat qilish layoqatining mavjudligi, beshinchidan, nostandart topshiriqlarni bajarish, shuningdek, shartlari etishmasligi va ortiqchaligini payqash (sezish) yoki antitsipatsiyaga moyillik hukm surishi; maxsus dastur asosida, alohida tartibda mashg'ulotlar uyushtirish bilan yakunlanadi.

5. Talabalarni milliy g'oya va milliy istiqloq mafkurasi ruhida tarbiyalashni amalga oshirish muhim muammolar sarasiga kiradi. Vatandarparvarlik, fidoiyluk yuksak his-tuyg'ularini talabalarga maxsus ravishda shakllantirish orqali hamda ijtimoiy-siyosiy fan asoslari mohiyatiga singdirish yordami bilan ularni ongiga yo'naltirish-hozirgi zamon oliy maktab Pedagogikasining dolzarb masalalaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'ruzaning uslubiy ishlanmasi.

I. Ma'ruza mavzusi: uning tanlanganligini asoslash.

1. Umumiy Pedagogika kursi tizimida mazkur mavzuning o'rni va ahamiyatini aniqlash,

2. Mavzu bo'yicha manbalar saralash (o'qituvchi foydalangan psixologik adabiyotlar, talabalarga tavsiya qilinadigan manbalar)

3. Amaliy mashg'ulot, tajriba materiallarini tanlash.

II. Ma'ruzani tashkil qilish shakli

1. Auditoriyada va texnik vositalar (talabalarining tayyorgarlik darajasi va xususiyati).

2. Ma'ruzaning maqsadi (fan mazmunini o'z ichiga qamrab olgan ma'ruzaning asosiy g'oyasi).

3. Bosh maqsadni amalga oshiruvchi ma'ruzaning vazifalari.

4. Ma'ruzaning vazifalari ketma-ketligi (izchilligi).

5. Qo'yilgan vazifaning xususiyati: axborot beruvchi (informatсион), tahlillovchi (analitik), tizimlashtiruvchi, muammoli, dasturiy va boshqalar.

6. Tavsiya qilingan vazifalarni bajarish uchun talabalarga zarur vositalar (kategoriyalar), tasavvur tizimi, funktsional, genetik, strukturaviy, ehtimollik, sababiy aloqaviy, o'zaro uzviy bog'liqlik (uyg'unlik)

7. Qo'yilgan vazifalarni hal qilishda, bajarishda talabalarda o'qituvchi tomonidan shakllantirilayotgan munosabatlar, emotsional his-tuyg'ular va pozitsiyalar.

8. Ma'ruzaning tashkiliy shakli:

- monologik tarzda mulohazalar,
- audivizual vositalarga tayangan monologik holdagi mulohazalar,
- evristika shaklidagi suhbat,
- tub mohiyatli evristik suhbat,
- dialogik yoki psixologik bahs; diskussiya (munozara) –muhokama qilinadigan muammo yuzasidan qarama-qarshi nuqtai nazarlar;

- nizoli vaziyat: ziddiyat, qarama-qarshilik, nizo, mojaro, janjal.

III. Ma'ruza mazmuni.

- ma'ruza mazmunining konspekti va rejasi.
- yaxlitlik, tizimlilik, ko'rsatmalilik, izohlilik, soddalik va boshqalarni ta'minlovchi ta'limiy usullar, vositalar va yordamchi o'quv materiallari konspekt hoshiyasida mavjudligi,

- shuningdek, paralingvistik, ekstralingvistik, proksemik alomatlari ifodalanganligi.

IV. Ma'ruza jarayonida o'qituvchining yaxlit timsoli (obrazi, imidji).

- ma'ruza mazmunini har qaysi qismiga taalluqli bo'lgan vazifalarni bajarishda talabalar bilan o'qituvchi hamkorligi shakllari (birgalikda muammo yoki masalani echish: raqobat, sheriklik kabilar),

- fikr bildirish yoki axborot uzatishning til vositasida nutqiy faoliyatda ifodalanishi (leksik, gramatik, stilistik, semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv hamkorlik faoliyatini tashkil qilish),

- o'qituvchining auditoriya bilan noverbal, emotsional-hissiy, ifodali muomala vositalari (imo-ishora, mimika, pantomimika, intonatsiya, pauza, temp, ritm, chastota, tembr, ovozni kuchaytirish, pasaytirish va hokazo).

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. A. Handbook for teaching and learning in Heger Educational Enhancing Academic Practice 2008,544p
2. Ivanov R. I. Umumiy pixologiya. Darslik - T.: 2008. 280 b
3. Pixologiya B. M. Umarov. Darslik - "Voris nashriyot" T.: 2012y. 270 b.

**Jumaniyozova Muhabbat Xo'sinovna,
Tangriyeva Umida Allaberganovna
Urganch davlat universiteti
(Urganch, O'zbekiston)**

ADABIY TA'LIMDA ZAMONAVIY TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'rta maxsus ta'limning adabiyot darslarida zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish yo'llari haqida so'z boradi. Unda o'qitishning eng samara beradigan metod va usullarni dars jarayoniga tatbiq etish yo'llari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar. Adabiyot, adabiy ta'lim, metod, hamkorlikda ishlash, kitob bilan ishlash, mantiqiy tafakkur, tashabbuskorlik qobiliyati, ijodiy fikrlash.

Аннотация. В данной статье изучены способы использования современных методов обучения на уроках литературы среднего специального образования. В ней раскрываются способы внедрения в процесс урока самых эффективных приёмов и методов обучения.

Ключевые слова: литература, литературное образование, метод, совместная работа, работа с книгой, логическое мышление, инициативность, творческое мышление.

Annotation. This article describes how modern teaching methods can be used in the literature classes of secondary special education. It shows how to integrate the most effective teaching methods and techniques into the classroom process.

Keywords. Literature, literary education, methodology, collaboration, book work, logical thinking, initiative, creative thinking

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida katta o'zgarishlar, yangilanishlar bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ham ta'lim sohasi oldida turgan qator vazifalar belgilab berildiki, bular mamlakatimizda ta'lim sohasiga, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Zero, O'zR Birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek, "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir".

Voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni vatanga muhabbatli, fidokor inson qilib tarbiyalashda o'rta maxsus ta'limdagi adabiyot fani katta rol o'ynaydi. Adabiyot va ma'naviyat tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bu fan yoshlar ma'naviyatini shakllantirishga katta hissa qo'shadi. Ma'naviyat esa insonning ulg'ayish va kuch-qudrat manbaidir. Adabiyot fani, badiiy adabiyot butun bir jamiyatga kuchli darajada ta'sir ko'rsata olish imkoniyatiga ega. U jamiyatni o'z-o'zini anglashida, uni insonparvarlashtirishda beqiyos imkoniyatga ega. Adabiyot ijtimoiy ongning ko'rinishlaridan biri sifatida o'zida xalq xotirasini

mujassamlashtiradi, uning axloqiy ma'naviy qadriyatlarini asrdan-asrga, avlodlardan-avlodlarga olib o'tadi.

Adabiyot o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan keskin farq qiladi. Adabiyot o'qitish metodikasi birinchi navbatda adabiyot o'qitishning, ya'ni adabiy ta'limning maqsadi va mazmunini tashkil qiladi.

Adabiyot fanini o'qitish natijasida biz yosh avlod qalbida ota-bobolarimizga hurmat, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantiramiz. Endilikda adabiyot o'qitish nazariyasi va amaliyotida bir xillikdan qochish, rang-baranglikka intilish tamoyillarining tobora kengroq tarzda ko'zga tashlanayotganligi seziladi. Xususan, adabiy ta'limning davlat ta'lim standarti yaratildi. Uning takomillashish jarayoni esa uzluksiz davom etmoqda. Ushbu jarayonda an'anaviy ta'lim tizimidagi eng yaxshi yutuqlarni saqlab qolgan holda jahon ilm-fani, jumladan, psixologiyasi, pedagogikasi va metodikasi sohasidagi eng yangi va yaxshi namunalarga uyg'unlashish tamoyili kuzatilmog'da. Ayniqsa, o'qitishdagi ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarga kompetensiyaviy yondashuv orqali uyg'unlik metodologik asos sifatida qabul qilinmog'da. Bularning adabiy ta'limdagi an'anaviy yo'nalish bilan zamonaviy talablarning o'zaro uyg'unlashtirishning oqilona yo'li sifatida qabul qilinayotganligi bejiz emas.

O'quvchilardagi barqaror g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy va estetik ishonch-e'tiqodlarining shakllanishi, ularning eng muhim hayotiy tushunchalar mag'zini chaqa olishi ma'lum ma'noda adabiyot o'qituvchisining mahoratiga bog'liqdir.

Bugungi kunda darslarni zamonaviy metodlarga asoslanib olib borish ta'lim tizimida keng tarqalib bormog'da. Bu, o'z navbatida, o'quv jarayonini liberallashtirish, demokratlashtirish, hamkorlik, hamijodkorlikda yanada takomillashtirib borish talabini qo'yog'da. Adabiyot o'qitishda o'qituvchi zamonaviy metodlardan qanchalik keng foydalansa, o'quvchilardagi ijodiy izlanish ham shunchalik kuchayib boradi. Bugungi ta'lim tizimidagi zamonaviy metodlar o'qituvchilardan uzluksiz o'z ustida ishlashni talab qiladi. Bu esa ta'limda sifat va samaradorlikni oshiradi, o'quvchilarning bilimi oshishiga katta hissa qo'shadi, yurtimiz kelajagi uchun kuchli, bilimli, barkamol insonlarni yetkazib beradi.

Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning mohiyati va mazmuni jamiyat yangilanishi bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun bugun o'qituvchidan yosh avlodni o'qitish uchun takomillashtirilgan, yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan boy nazariy bilim, amaliy harakat talab etiladi.

Ma'lumki, dars jarayoni haqida ulug' allomalarimizning qimmatli fikrlari qayd etilgan. Ibn Sinoning qarashlariga ko'ra, ta'lim oluvchi bilimlari asosida mantiqiy fikrlash, shaxsiy kuzatish va tajriba yotadi. Alloma ta'limda erkinlik bo'lishiga alohida e'tibor qaratgan. Erkinlik o'z-o'zidan tafakkur mustaqilligini ta'minlaydi, fikr kishisini tarbiyalaydi, shaxsning ma'naviy kamolotiga sababchi bo'ladi. Bugungi ta'lim tizimi o'qituvchidan o'z darslarida zamonaviy ta'lim metodlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Ta'limda zamonaviy ilg'or texnologiyaning asosiy xususiyatlaridan biri jamoa bo'lib fikrlashdir. O'qituvchi bilim berish jarayonida o'quvchilarning bir-biriga ta'sir qilishini talab etadi. O'rganishga teng huquqli, demokratik o'zaro ta'sir har bir o'quvchida tashabbus ko'rsatish, ijod qilish istagini uyg'otadi. Bu model jamoa bo'lib fikrlash faoliyatidan iborat bo'lib, bunda barcha dars ishtirokchilari bilimga qiziqish

bilan qaraydilar. Umumiy izlanuvchanlikning muvaffaqiyati - har bir o'quvchining aqliy, tashabbuskorlik qobiliyati kuchayadi.

Ma'lumki, innovatsion ta'limning bir ko'rinishi hamkorlik bo'lib, bu hamkorlik fanlar o'rtasidagi hamkorlikdir, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikdir.

Ta'limdagi islohotlarning asosiy mohiyati shundaki, o'qitishning eng samara beradigan metod va usullarni ishlab chiqish, o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligini yanada takomillashtirish talab etilmoqda. Bugun o'sha hamkorlik pedagogikasi ehtiyojga aylandi. Sababi o'quvchilarni nima bilan yashayotgani, nima haqida o'ylayotgani va nimalar istashini har bir o'qituvchi yaxshiroq bilishi, o'sha narsani fan bilan bog'lay bilishi zarur. Masalan, adabiy asarlarni "Yelpig'ich" texnologiyasi asosida o'rganishga e'tibor bersak.

"Yelpig'ich" texnologiyasi murakkab texnologiyalardan hisoblanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, unda mavzuning turli qirralari bo'yicha axborot berish mumkin. Ayniqsa, u o'quvchilarning o'z g'oyalarini, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda bayon etishlariga imkon beradi. Bu o'quvchilarda ijodkorlik, erkin fikrlash, muloqot madaniyatini rivojlantiradi, nutq boyligini oshiradi. Masalan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarini o'rganishda shu usuldan foydalanib ko'raylik. Adabiyot dasturida Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodi, uning asarini o'rganish uchun soatlar ajratilgan. O'qituvchi ilk dars soatida adib haqida ma'lumot bergandan so'ng darslikdagi asardan olingan parcha o'quvchilar bilan o'qib o'rganiladi. Darsni mustahkamlash qismida o'qituvchi o'quvchilarning fikrini yozma ravishda ixcham bayon etish topshirig'ini beradi. Topshiriq 2 turda bajariladi.

1-turda darslikda berilgan matnga tayangan holda beklarga xos salbiy va ijobiy xususiyatlar aniqlanib jadval tuziladi.

Beklarga xos fazilatlar----- yetuk, tili chin, ko'zi va ko'ngli boy, bilimli, xushyor, yomonlarga misli olov...

Beklarga yot xususiyatlar----- yolg'onchilik, zo'ravonlik, g'azab, boshqalarga naf bermaslik, ichkilikbozlik...

2-turda beklarga qo'yilgan talablar ketma-ket yoki grafik chizmada ko'rsatiladi.

TALABLAR: odillik, serqirralik, adolat, bilimdonlik, saxiylik, donolik, xushyorlik, botirlik va h.k.

"Yelpig'ich" texnologiyasiga ko'ra mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha biryola axborot olish mumkin. Bu esa o'quvchining faolligini oshiradi.

Bilimlarni o'zlashtirish mahsuldorligi o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligiga bog'liq, bu hamkorlik ko'lami qancha keng bo'lsa, bilimlarni o'zlashtirish darajasi puxta bo'ladi. Binobarin, adabiy ta'limda "Munozara" metodini qo'llash ham maqsadga muvofiq.

Munozara – faol ta'lim usuli bo'lib, unda muhokama orqali ma'lum muammo hal qilinishiga erishiladi. Munozara usulidan quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

- yangi bilimlarni shakllantirish;
- o'quvchilarda u yoki bu savollarni chuqur o'ylab ko'rish, tub ma'nosiga yetishga motivatsiyani ta'minlash;
- o'quvchilarga dalil va dalilga asoslangan xulosa orasidagi farqni tushunib yetishni o'rgatish;

• kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, o'quvchilarga o'z fikrida mustahkam turish va uni himoya qilishga yordam berish;

Munozara rivojlanishi mumkin, qachonki:

- erkin munozara bo'lsa;
- yoki biror yo'nalishda – boshqariladigan munozara bo'lsa.

Agar erkin munozara tashkil qilish kerak bo'lsa, u holda uni faqat boshlab berish va munozaraga aralashmaslik, hakam rolida bo'lish talab etiladi. Bu yerda, muhokama qilinayotgan jarayonning o'ziga urg'u berish va har bir o'quvchini o'z dalillarini aniq ifoda etishga rag'batlantirish lozim. Shuning uchun, agar har bir o'quvchini ishga solish, yo'nalishga va bevosita shaxsga ta'sir o'tkazish kerak bo'lsa, erkin munozara o'tkaziladi.

Adabiyot darslarining salmoqli qismida “Hikoya, tushuntirish” metodi qo'llaniladi. Hikoya – uncha katta bo'lmagan, ta'riflovchi xarakterga ega bo'lgan o'quv materialini monologik hikoya qiluvchi, xabar beruvchi bayoni.

Tushuntirish – bayon qilinayotgan materialning turli holatlarini tahlil qilish, tushuntirish, izoh berish va isbotlash yordamida o'quv materialini bayon qilish.

Agar quyidagi didaktik masalalarni yechmoqchi bo'lsak, bu usullar birgalikda bilimni mantiqiy, tartibli, tushunarli, his-hayajonli qilib yetkazish uchun qo'llaniladi:

- tushuntirish, tasvirlash, eslash, sanash;
- toifalar bo'yicha taqsimlash;
- ta'riflab berish;
- baholash;
- motivlashtirish va h. k.

O'qituvchi adabiy ta'lim jarayonida “Kitob bilan ishlash” metodidan ham unumli foydalanishi zarur. Chunki adabiyot darslarida kitob bilan ishlash usuli ko'pgina vazifalarni bajaradi: ta'lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish, asoslash. U o'quvchilar tomonidan:

- o'quv mashg'ulotida o'qituvchi rahbarligi ostida;
- uyda, mustaqil ravishda bajarilishi kerak.

Uyda kitob bilan ishlash vazifasini o'quvchilar oldiga qo'yishdan avval, ular kitob bilan ishlash usullarini ishlata bilishiga ishonch hosil qilish kerak:

- uning tuzilishi bilan tanishish;
- ko'z yugurtirib chiqish;
- alohida boblarni o'qish;
- savollarga javob qidirish;
- materialni o'rganish;
- referat yozish;
- qisqacha bayon tuzish;
- vazifa va mashqlarni yechish;
- test sinovlarini bajarish;
- materialni xotirada saqlab qolish.

Yuqorida ko'rsatilgan metodlar adabiyot darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon qilishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga chorlaydi. Shuningdek, ularni qo'llashdan maqsad o'rganilayotgan mavzuni puxta o'zlashtirishiga erishish bilan birga, o'quvchilarni faollikka undash,

hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'ladi. Shunday ekan, adabiyot o'qituvchisi zamonaviy metodlardan o'z o'rnida ununmli foydalana olish uchun har doim kasbiy malakasini oshirib borishi, o'z mutaxassislik fani bilan bir qatorda o'zining pedagogik, psixologik hamda metodik bilimlarini doimiy ravishda, izchil boyitib borishi, shuningdek, komil inson va intellektual salohiyatli ijtimoiy faol fuqaroni tayyorlashdek umummilliy maqsadni amalga oshirish yo'lida alohida faollik ko'rsatishga intilishi zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. Yuksak manaviyat –yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya, 2003.
3. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. - Toshkent, 2010.

**Ollaberganova Sanobar Hamidovna
(Urganch, Uzbekiston)**

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yo'llari, usullari ko'rsatib berilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil qilish ta'lim olish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi izohlab berilgan.*

Kalit so'zlar: *O'qish, izohli, ongli, tez o'qish, malaka, bilim, innovatsiya, didaktika, analitik bosqich, sintetik bosqich, avtomatlashgan o'qish, dialog, matn*

Аннотация. *В данной статье показаны пути и методы применения инновационных технологий на уроках начальных классов. Разъяснена важность организации урока с применением современных педагогических технологии для повышения эффективности получения знаний.*

Ключевые слова: *чтение, толковый, сознательно, быстрое чтение, навык, знание, инновация, дидактика, аналитический этап, синтетический этап, автоматизированное чтение, диалог, текст.*

Annotatsion. *The ways of using innovatory technologies in elementary students lessons have been introduced in this article. Also, there are stated the value of organizing lessons with the pedagogical tools in building up the efficiency of education.*

Key words: *reading, explanatory, consious, quick reading, qualification, knowledge, innovation, didactics, analytical stage, synthetic phase, automated reading, dialogue, text.*

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev shunday ta'kidlagan edi: «Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashda qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga davlat yutadi»¹

Ayni kunda mamlakatimizda yetuk mutaxassislar tayyorlashning sifatini yanada yaxshilash, uni yuqori pog'onaga ko'tarish bo'yicha bir qator pedagogik izlanishlar olib borilmoqda. Bu xildagi izlanishlarning aksariyatida pedagog olimlar, amaliyotchi va tadqiqotchilarning diqqat e'tibori o'qitish maqsadi va uning natijadorligiga erishishga, ta'limni takomillashtirish orqali sifatli o'qitishni tashkil etishga, shu bilan birga ilmiy asoslangan zamonaviy o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish uchun qaratilgan. Hozirgi kunda ham respublikamizda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirish bo'yicha katta ishlar olib borilyapti. Amalga oshirilayotgan bu vazifalar o'z navbatida ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish yo'lida zamonaviy o'qitish

¹ Mirziyoyev Sh.M. – Oliy Majlisga murojaatnoma. – T.: O'zbekiston, 2018. – B.19.

texnologiyalaridan foydalangan holda, o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini hamda sifatini oshirish talablarini ko'ndalang qilib qo'yimoqda.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati hamda vazifalari o'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. Boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha fan darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiyasi, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar bog'liq fanlar yutug'i asosida shakllanib boradi. Yaxshi o'qish malakalarining sifatlari va ularni takomillashtirish yo'llari. Yaxshi o'qish malakalarining sifatlari to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish kiradi va ular o'qish darslarida o'zaro bog'liq holda takomillashtiriladi.

Yaxshi o'qish sifatlari egallash maktabda barcha fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning sharti hisoblanadi. Yaxshi o'qish malakasining sifatlari biri to'g'ri o'qishdir. To'g'ri o'qishga bir nechta metodist olimlar ta'rif berganlar: K. Qosimova: to'g'ri o'qish xato qilmasdan, yangilishmasdan o'qishdir. M. Odilova, T. Ashrapova: "Adabiy talaffuz normalariga qo'yilgan barcha talablar to'g'ri o'qish ko'nikmasiga ham taalluqlidir", deyishadi. Demak, ularning fikricha, materialni adabiy talaffuz normalariga rioya qilgan holda o'qish to'g'ri o'qish deyiladi.

Rus metodisti Yakovleva: "To'g'ri o'qish bu materialni tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko'chirishdir". Har 3 ta ta'rifning mohiyati bir xil. Ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush tarkibini grammatik shaklini buzmasdan, adabiy-orfoepik talaffuz normalari asosida o'qishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari to'g'ri talaffuz bilan matn ma'nosini puxta sintez qilishga qiynaladilar. O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun asar ustida ishlashni o'qitish bilan birga amalga oshirish zarur.

Yaxshi o'qish malakasining sifatlari tez o'qish, ongli o'qish, ifodali o'qish, o'qish turlari. K. D. Ushinskiy tez o'qish matni tushunishdan ajralib qolmasligi lozimligini ta'kidlaydi. O'qish tezligi matni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'qishi kerak. Tez o'qish ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qishdir. Og'zaki nutq tempiga mos keladigan o'qish tempi normal tezlik hisoblanadi. Ongli o'qish 2 xil ma'noda qo'llanadi.

1) o'qish texnikasi; 2) o'qish sifati. Asar qurilishini tushunish ongli o'qishdir. O'quvchining ongli o'zlashtirib o'qigani uning ifodali o'qiganidan, asar yuzasidan berilgan savollarga javobidan aniqlanadi. Ongli o'qish bilan ifodali o'qish biri ikkinchisini taqozo etadi.

Ifodali o'qish. Asarni uning g'oyasiga, yozuvchining niyatiga mos ravishda, o'qish, asar jozibasini ifodalab, ravon aniq, to'g'ri o'qish ifodali o'qish deyiladi. Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy formasidir. O'qituvchi ifodali o'qish orqali asar mazmunini va emosionalligini o'quvchilarga ko'rgazmali ravishda yetkazadi.

Respublikamizda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ta'lim innovatsiyalarini to'plash, ular ichidan faoliyatimiz uchun eng samaralilarini tajriba – sinovlardan o'tkazish va o'quv jarayoniga joriy etishning universal tizimi (mexanizmi) shakllantirilmaganligi uchun, o'tgan asrda o'zlarining olamshumul pedagogik tajribalari orqali pedagogika fani va o'qitish metodikasi sohasida ulkan yutuqlarga erishgan novator–o'qituvchilarning qo'llagan pedagogik texnologiyalari hozirgi

kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiya asosida dars o'tishda eng asosiy talab o'qituvchining hayotiy tajribasi, avval o'zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko'zda tutadi. Pedagogik texnologiya o'rganilayotgan soha bo'yicha o'quvchilarda bilim yetarlicha bo'lmagan holda ham o'quvchida salbiy kechinmaga o'rin qoldirmaslikni, bu bolaning aybi emasligini tan olishni talab etadi. Faollik ko'rsatilsa, bilimlarni o'zlashtirib olishga o'quvchilarda ishonch hosil qilish tavsiya etiladi.

Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'qituvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Innovatsiya (inglizcha - innovation) yangilik yaratish. Ya'ni, an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish usul va shaklidan foydalanish demakdir. Ma'lumki, boshlanich ta'limiga innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni tadbiiq etishi ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini ustiradi. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Interfaol (inglizcha interastion, ya'ni, inter - aro, o'zaro; ast -harakat ma'nosini bildiradi). Interfaol usullar - bu o'zaro harakat, yani hamkorlik asosida o'qitish va tarbiyalashdir. Bunday usullarning barchasida ham o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi. Zamonaviy pedtexnologiyalar-pedagogik amaliyotida keng qo'llaniladigan texnologiyalar, ulardan foydalanishda olgan natijalar oldindan ma'lum (misollar: aqliy pujum, bap- munozara, o'yinlar usullari).

Bugun kichik maktab yoshidagi bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi chet el metodlaridan ("Breyng ring") qator ta'lim muassasalarida foydalanishmoqda va yaxshi natijalarga erishilmoqda. Shu o'rinda pedtexnaologiyalarni loyihalashning boshlang'ich ta'lim muassasalari uchun o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib o'tish joizdir:

- 1) har bir mashg'ulotdan ko'zda tutilgan maqsad aniq o'rnatiladi;
- 2) mashg'ulot mazmunini saralashda, bir tomondan - bolalarning qiziqishi, e'tiyoji, qobiliyatlari, ikkinchi tomondan - tarbiyachining ijodkorligi, mahorati, uchinchidan - maktabdagi mavjud shart-sharoitlar hisobga olinadi;
- 3) didaktik jarayon tuzilmasi keskin farqlanadi, ya'ni uning motivasion bosqichi kuchaytiriladi. Boshqacha qilib aytganda o'yinli didaktik jarayon loyihalalanayotgan texnologiyaning asosini tashkil etadi; didaktik jarayonning ikkinchi bosqichi - bolalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etadi;
- 4) uchinchi bosqich - boshqaruv faoliyati funksiyasi ham o'zgaradi. Agar o'quv jarayonida o'qituvchi o'quvchining bilish faoliyati bosqichiga aralashmaydigan bo'lsa, tarbiyachi faoliyati didaktik jarayonning o'quv bilish faoliyatida ham ustuvorlik kasb etadi;
- 5) texnologiyalarni qo'llash samarasi yoki yakuniy natija - bu bola shaxsini rivojlantirish ekanligiga tarbiyachi alohida e'tibor qaratishi lozim. Bola tarbiyasi jarayonining sust, harakatsiz obyekt bo'lib qolmasdan, balki faol ishtirokchisiga - suboyektga aylanishi kerak.

Boshlanich maktabda o'yin faoliyat ustuvorlikka ega bo'lib, bolaning ruhiy jihatdan rivojlanishini bir qadar tezlashtiradi. O'yin bolalar yaxshi o'zlashtira oladigan

faoliyat hisoblanib, bu faoliyat jarayonida ular o'qishga, mehnatga, badiiy ijodga oid hayotiy muamoyalarni tezda ilg'ab oladilar. Shu boisdan o'yinga tayanib ish ko'rish – bolani tarbiyaviy tasirga hayajonli javob berishni taominlash usulidir.

O'yinli vaziyatlardan maqsadli foydalanish g'oyasi bir-muncha ilg'or va samaralidir. Turli yoshdagi odamlar faoliyatini o'yin tarzida tashkil etish va kasb mahoratini takomillashtirish tajribasi pedagogika fani uchun yangilik bo'lmasa-da, o'ini didaktik jarayonini loyi'alash texnologiyasi yetarlicha ishlanmagan.. Kichik maktab yoshli bolalar uchun o'yinning quyidagi turlari mavjud: mavzuli-rolli o'yinlar, o'yin-mehnat, didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, sayr-tomosha o'yinlari. Mavzuli-rolli o'yinlar o'quvchilarning mustaqil yoki kattalar yordamida ijtimoiy tajribani, milliy obyekt, hayotiy va badiiy taassurotlar asosida ijodiy yaratish faoliyatidir. Bu faoliyat natijasida bolalar ichki fikrlashi, xayol surishi va boshqa axloqiy sifatleri tarkib topadi. Buning uchun bola yoshiga xos kichik hajmdagi hayotiy mavzular sahna ko'rinishida ijro etiladi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning aqliy rivojlanishida, ularni bilishga undashda birmuncha afzalliklarga ega. Bu o'yinlar o'qituvchi-tarbiyachi tomonidan o'quvtarbiyaviy maqsadlar uchun maxsus tashkil etiladi. Foydalanilayotgan materiallar turiga qarab didaktik o'yinlar predmetli-didaktik o'yinchoqlar va materiallar; mantiqiy — "qiyin sayohat", "labirant"; so'zli - o'yin: topishmoqlar, masalalar, o'yin -sayohatlar va boshqa harakatli o'yinlar bolalarni tarbiyalashda muhim vosita sanaladi. Ular har doim o'yin ishtirokchilaridan faol sensorli va harakatlarni o'matilgan maqsadga erishish uchun bajarishni talab etadi. Musobaqa tarzida tashkil etilgan bu tur o'yinlar bolalarda ijodkorlik, epchillik, tezkorlik, zehnilik kabi sifatleri shakllantirishga xizmat qiladi. O'yin turlarini tanlash bevosita o'quvchilar yoshiga boliq ekanligini takidlash joiz.

Qalandarova Dilafruz Karimovna
(Urganch, O'zbekiston)

**ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ”
ASARINI BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'RGANILISHI**

Annotatsiya. *Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarining boshlang'ich ta'lim jarayonida o'rganilishi, unda ma'rifatparvar yozuvchining ilm haqidagi fikrlari, o'quvchi tarbiyasi borasidagi qarashlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, tarbiya, odob, axloq, uzluksiz, hujjatlar, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, jarayon, amaliyot.*

Аннотация. *Изучение работы Абдуллы Авлони “Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ” в начальном образовании, в нем взгляды образованного писателя о науке, его взгляды на учебу студентов выделяются.*

Ключевые слова: *Образование, обучение, учтивость, мораль, непрерывный, документы, педагогические технологии, инновация, процесс, практика.*

Annotatsiya. *Study of Abdulla Avloni's “Turkiy Guliston yoxud axloq” work in elementary education, in it the views of an educated writer about science, his views on student learning are highlighted.*

Key words: *Education, upbringing, decency, ethics, continuous, documents, pedagogical technologies, innovation, process, practice.*

Ma'lumki, ta'lim har bir jamiyatning ajralmas qismi, madaniyati va ma'rifati uning rivojlanishning asosiy ko'rsatkichidir. Har qanday mamlakat istiqbolli rejalar tuzar ekan, avvalo ta'limga e'tiborni kuchaytiradi.

Shu ma'noda Prezidentimizning “... bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir” 1 degan da'vatlari ostida ta'limni isloh qilishga kirishilib, Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudrati oshib borish natijasida jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy bo'g'ini hisoblangan xalq ta'limida ham tub islohotlar ro'y bermoqda. U yangilanmoqda, yoshlar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularning mazmunini, uzluksizligini ta'minlab beradigan yangi hujjatlar, pedagogik texnologiyalar, amaliyot uslublari bilan boyib bermoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, “Bilimli avlod buyuk kelajakning, tadbirkor xalq farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” 2.

Zamonaviy ta'limning yangi tizimi va mazmunini shakllantirish uchun ilg'or texnologiyalarni hamda o'quv-tarbiyaviy jarayonning didaktik ta'minotini yaratish, ta'lim mazmunini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish kerak. Bu muhim vazifani ijobiy hal etilishi ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni taqozo qiladi. Boshlang'ich ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni izlab topish, bu borada eng maqbul omil deb topilgan ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish zarurdir. Boshlang'ich ta'lim jarayonida axloq – odob

qoidalari va tarbiya vositalarining qo'llanilishi nafaqat o'qituvchi faoliyatiga, balki o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishi hamda shakllanishiga asos bo'lmoqda.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Turkiston (Markaziy Osiyo) o'lkasida pedagogik fikrlarning rivojlanishida, xalq maorifi ishlarini yuksaltirishda ilg'or ziyolilarning xizmatlari kattadir. Bunda jadid adabiyotining yirik vakili shoir, dramaturg, muallim Abdulla Avloniy (1878-1934)ning xizmatlari ko'p. U maktablar ochib, shaxsan o'zi muallimlik qilish bilan birga maktablarni darsliklar bilan ta'minlash ishiga katta hissa qo'shdi. Uning qalamiga mansub «Turkiy Guliston yoxud axloq», «Birinci muallim», «Ikkinchi muallim» «Maktab Gulistoni» asarlari bir necha bor nashr etildi. Bular ichida «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari o'zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunasi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim 2-sinf o'qish kitobi "Maktabim – Qulug' makonim, Kitobim- o'ftobim "bo'limida Abdulla Avloniyning "Ilm" matni keltirilgan,unda ma'rifatparvar yozuvchining ilm haqidagi fikrlari,o'quvchi tarbiyasi borasidagi qarashlari keltirilgan. Unda asosan,bola tarbiyasi bugungi kundagi dolzarb muammo ekanligi,uni ta'lim – tarbiya jarayoniga tadbiiq qilish,kelajak avlodni bilim va axloq jihatdan mukammal tarbiyalash haqidagi fikrlar yuritilgan.

ILM

Abdulla Avloniy

Ilm deb o'qimoq, yozmoqni yaxshi bilmoq, har bir kerakli narsalarni o'rganmoqqa aytilur. Ilm – dunyoning izzati. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir.Zero, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatadi.Zehnimizni, fikrimizni o'tkir qiladi. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir.Ilmning foydasi shu qadar ko'pdirki, ta'rif qilgan bilan ado qilib bo'lmaydi. Bizlarni ilm jaholat qorong'ilig'idan qutqaradi. Madaniyat insoniyatni ma'rifat dunyosiga chiqaradi. Yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob sohibi qiladi. Xulosa qilib aytganda, butun hayotimiz, salomatligimiz, baxtimiz, g'ayratimiz ilmga bog'liqdir.

Hozirgi kunda zamonaviy maktabning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni tarbiyalash hamda jamiyatda o'z o'rnini topishga ko'maklashish va unga yetarli darajada foyda beradigan bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Bu muammoni hal etishning muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchilarning firlash qobiliyatlarini o'stirish, ularda bilim olishga qiziqish, mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantirish, ma'naviyatini shakllantirishni ko'zda tutadigan o'qitish metodlari hamda o'quv-metodik materialni ishlab chiqish va tatbiq etishdan iboratdir. Ushbu asar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqi,odobini har tomonlama rivojlanishiga, o'qish darslari samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib,unda o'quvchilarning bilimini yanada samarali qilishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz." T."O'zbekiston" 2017-yil
2. Sh.Mirziyoyev"Milliy tiklanishdan,milliy yuksalish sari "T."O'zbekiston" 2017 –yil
3. O'qish: 3-sinf.. – T.: "Sharq", 2016-yil
4. O'qish: 2-sinf.. – T.: "Sharq", 2016-yil
5. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" 1978-yil

Rahimova Shoira Adilbekovna,
Matyaqubova Shoira Saidabdullayevna
(Urganch, O'zbekiston)

**MATEMATIK ERTAK, MAQOL VA TOPISHMOQLAR-MATEMATIK TA'LIM
JARAYONIDA INSONPARVARLIK G'OYALARINI SHAKLLANTIRISH
OMILI SIFATIDA**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Matematik ertak, maqol va topishmoqlar-matematik ta'lim jarayonida insonparvarlik g'oyalarini shakllantirish omili sifatida tashkil qilish haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *matematik ertak, qobiliyat, matematik qobiliyat, insonparvarlik g'oyasi, matematik topishmoq, matematik maqol.*

Аннотация: *Данная статья посвящена организации математических сказок, пословиц и головоломок как фактора формирования гуманистических идей в математическом обучении.*

Ключевые слова: *математические способности, гуманистические идеи, математические головоломки, математическая пословица.*

Annatation: *This article focuses on organization of mathematical fairy tales, proverbs and puzzles as a factor in the formation of humanistic ideas in mathematical learning.*

Key words: *mathematical fairy tale, abilities, mathematical ability, humanistic ideas, mathematical puzzles, mathematical proverb.*

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi mamlakatimiz yigit qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora – tadbirlarni amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim–tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi Farmoni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"² da matematika o'qitishning sifatini oshirish bilan birga o'quvchilarning tafakkuri va shaxsiy sifatlarini, matematik savodhonligini shakllantirish hamda ijodiy qobiliyatlarini oshirish masalalari berilgan.

Boshlang'ich maktabda matematik ta'lim o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishi va rivojlantirishiga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olish, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarida qo'llash hamda ta'limining ikkinchi bosqichida o'qishni davom ettirishi uchun matematik tayyorgarlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birgarilikda matematika ta'limda o'quvchida tartibliqlikni, mehnatsevarlik, chidamlilik, qat'iyatlilik kabi sifatlarni shakllantirishni ham maqsad qilib qo'yadi.

Insonparvarlik g'oyalarini singdirishini shaxsda insoniy sifat va fazilatlarini, muloqot va muomala madaniyatini shakllantirishi ma'naviy salohiyatiniyuksaltirishi

² O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". Toshkent: 1997.

kabi qator jarayonlarorqali amalgam oshirilishi mumkin. Matematik ta'lim sohasi bola shaxsida zohir bo'lgan layoqat bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash, ro'yobga chiqarish va ularni rivojlantirish uchun qator imkoniyatlarini o'z ichiga olladi.

Avvalo, matematika insonni mehnatsevarlikka o'rgatadi. Mehnat qilish deganda biz jismoniy va aqliy mehnat qilishini tushunamiz. Aqliy mehnat bu – mustaqil fikr yurutishi, o'qish, tahlil qilish, umumlashtirish, xotirada saqlash, idrok qila bilish, xullas, insondahi barcha aqliy qobiliyatlarni ro'yobga chiqaruvchi harakatlar tushuniladi.

Shaxs aqliy mehnat qilish uchun unda aqliy sifatlar diqqatligi, sezgirlik, aniqlik shakllanmog'i kerak. Bu aqliy sifatlar asosida shaxsdagi tartibli, irodaviylik, qat'iyatlik, o'z-o'ziga ishonch kabi sifatlar shakllanadi. Ushbu aqliy sifatlar ezgu sifatlariga undashning munosib omili bo'ladi. Shaxsdagi aqliy sifatlarini kamol toptirishi orqali, uni insoniylikka undash matematik ta'limi jarayonida o'quvchilarga insonparvarlik g'oyalari singdirishini birinchi imkoniyatidir.

Matematikaning o'zi go'zal fan. Go'zallikning birinchi belgisi – tartib. Shuning uchun buyuklardan biri: "Matematika dunyodagi barcha tartibsizliklarni bir zumda tartibga sola oladi" deydi. Sanamoqchisiz, siz albatta ikkini hatlab uchga kelmaysiz. Matematika juda adl fan. Uning sanoqlari tartibini ham, o'z o'rnini ham, o'z miqdorini ham juda yaxshi tushunadi.

Matematikada fikrlar uyg'un. Ular juda hamkor do'st o'zaro bog'liq biri ikkinchisiz tura olmaydi. Har bir amal o'ziga qarshi amal bilan yakdil. Qo'shish ayirish bilan, ko'paytirish bo'lish bilan, lagarifimlash ildiz chiqarish bilan. Biri ikkinchisini to'ldiradi. Manfiy son musbat son bilan faqat nol orqali muomala qiladi. Ma'no matematikadagi go'zallik. Matematikani yaxshi o'rganish ichki go'zallikni his eta olish, fanni insonparvarlashtirishning imkoniyatlaridan biridir.

Matematik ta'lim sohasida davlat ta'lim standarti³ bo'yicha o'quvchilarning bilim darajalarini shakllantirish bilan bir qatorda o'quvchining botiniy his-tuyg'ularini shakllantirish, ularni bunyodkorlik g'oyalari bilan sug'orish, keng ko'lami yaratuvchilik ishlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan orzu-istaklarini shakllantirish imkoniyati ham mavjud. Bular yuqorida qayd qilgan matematik masalalarni yechishda kasb egalari mehnatiga bo'lgan hurmatni shakllantirish bilan bir qatorda undagi insorparvarlik g'oyalari, raqamlar, ularning mohiyati va kuchi, sanash, amallarni bajarish jarayonlarini she'riy talqinda bayon etish, maqollar keltirish va ertaklarni o'qib berish va so'zlab berish orqali ham amalgam oshirish mumkin. Biz quyida matematik ta'lim jarayonida ishlatilishi mumkin bo'lgan maqol, topishmoqlar va ertaklarni keltiramiz.

Bulardan dars jaroyonida foydalanish, o'quvchilarga matematik tushunchalarni o'zlashtirish, matematika fani oldidagi qo'rqish hissini yengish, toliqmagan, zo'riqmagan holda tushunchalarni o'zlashtirish, mohiyatini tushunish va esda qoldirish imkoniyatini beradi.

³ Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 2013. 15-b.

- Sonli maqollar.
1. Sanamay sakkiz dema
 2. Bir yil tut ekkan kishi Yuz yil gavhar teradi.
 3. Bir mayizni qirq kishi bo'lib yeydi.
 4. Yetti o'lchab bir kes.
 5. Ikki o'n besh- bir o'ttiz.
 6. Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni.
 7. Oltovlon ola bo'lsa, Og'zidagin oldirar. To'rtovlon tugal bo'lsa Unmagin undirar.
 8. Ko'p og'iz bir bo'lsa Bir o'g'iz yengilar.
 9. Bir kun tuz yegan joyinga Qirq kun salom ber.
 10. Birniki – minga, mingniki-tumanga
 11. Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning.
 12. Bir tomchi suv, chumoliga daryo bo'lib ko'rinibdi.
 13. Uyda bir chaqasi yo'q, belida bir dasta kalit.
 14. Bir molni uch marta so'ymaydilar.
 15. Birni kessang, o'nni ek.
 16. Yer haydasang kuz hayda, Kuz haydang yuz hayda.
 19. Bir orzu-o'n orzu bo'lolmaydi.
 20. Birni ko'rib shukur qil, Mingni ko'rib fikr qil.

“Tuyalarni taqsimlash” ertagi.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir kekxa donishmand chol uch o'g'li bilan tinch-totuv va ahil yasharkan. Cholning bisotidagi bor boyligi 17 ta tuyadan iborat ekan. Kunlar o'tibdi, yillar o'tibdi, chol juda keksayib qolganini va qazosi yaqinlashganini sezib, o'g'illarini yoniga chaqirib vasiyat qilibdi:

O'g'illarim, bisotimizdagi bor boyligimiz 17 ta tuyadan iborat. O'lmasimdan oldin shu tuyalarni sizlarga teng taqsim qilish niyatim bor edi, debdi ota. Katta o'g'limga tuyalarning yarmini bering, o'rtancha o'g'lim tuyalarning uchdan birini olsin, kenja o'g'limga tuyalarning to'qqizdan birini beringlar. Ammo tuyalarni so'ymang, deb chol olamdan o'tibdi. O'g'illari otasining o'limidan bir necha kun o'tgandan keyin uning vasiyatini eslab qolishibdi va tuyalarni otasining aytganiday bo'lib olishmoqchi bo'lishibdi. Ammo 17 na 2 ga, na 3ga va na 9 ga bo'linmabdi. Uch aka-uka nima qilarini bilmay turgan paytda bitta yo'lovchi tuyada kelib qolibdi. U aka-ukalardan gapning nimadaligini bilib, tuyalarni vasiyat qilinganiday bo'lib beribdi va yana o'zining tuyasiga minib jo'nab ketibdi. Aka-ukalar xursand bo'lib yana ahil yashay boshlashibdi. Aying-chi, yo'lovchi qanday qilib aka-ukalarning muammosini to'g'ri hal qilib bergan?

Ertakning javobi.

Yo'lovchi o'zining tuyasini ham 17 ta tuyaga qo'shib, 18 ta tuyaning yarmini, ya'ni 9 tasini katta o'g'ilga, uchdan birini, ya'ni 6 tasini o'rtancha o'g'ilga va to'qqiz

Bu ertak orqali o'quvchilar sonlar qatorini, amallar mohiyatini anglab olishlari birmuncha osonlashadi va esda saqlab qoladilar. Bunday ertaklar orqali o'quvchilarda tartibli, o'zaro xurmat, do'stlik, inoqlik, chidamlilik kabi insoniy sifat va fazilatlarni qaror toptirish mumkin.

O'yin va ertaklar asosida tashkil qilingan bunday ta'limiy jarayon an'anaviy ta'lim jarayoniga ko'ra samarali natija beradi. Bilishni istagan, o'rganishga intilgan, bilimlarni mustahkamlagan o'quvchilar sonini o'stiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH. Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent – "O'zbekiston" - 2016. 56-b.
2. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 2013. 15-b.
3. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". Toshkent: 1997.
4. U. Ismoiliv Ertaklarda matematika. Yangi asr avlodi, 2007-yil.

Sapayeva Boljon Qadamovna
(Urganch, O`zbekiston),
Hayitova Malika Maqsudovna
(Qo`shko`pir, O`zbekiston)

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARINI REJALASHTIRISH

Аннотация: В данной статье освещаются цели, планирование и организация внеклассных занятий в начальных классах.

Ключевые слова: внеклассное чтение, книга, читатель, духовность, планирование.

Abstract: This article explores the purpose, planning and organization of extracurricular activities in primary school.

Keywords: extracurricular learning, book, reader, spirituality, planning.

O'quvchilar tafakkurining o'sishi, bilim doirasining kengayishi, narsa va voqealar haqidagi tasavvurlarining oshishi ularning tinmay mutolaa qilishiga, o'z ustida ishlashiga, izlanishiga bog'liq. Kitobning inson hayotida tutgan o'rni benihoyadir. Yoshlikdan bolada kitobga mehr - muhabbat uyg'otish uning ruhiy, ma'naviy oziqlanishiga yordam beradi. Maktabdagi tarbiya ishlari, avvalo ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchilarga ta'lim berishda faqat ma'lum bilimlarnigina berish bilan cheklanmay, ularda kuchli e'tiqod, iroda va xarakter sifatlarini ham tarkib toptirishi, qobiliyat va iste'dodlarini o'stirish kerak.

Maktabda ta'lim- tarbiya ishlarini yaxshilashda, o'quvchilarning har tomonlama kamol topishida sinfdan tashqari o'qish darslarini muntazam ravishda o'tkazib turish yoshlarning hayotda o'z o'rinlarini egallashlarida muhim ahamiyatga egadir.

Sinfdan tashqari o'qishning asosiy maqsadi, o'quvchilarni kitoblarga, badiiy asarlarga qiziqishlarini oshirish, bilimlari asosida kitob ustida ishlash yuzasidan ko'nikma va malakalar hosil qilish, dunyoqarashi va nutqlarini o'stirish hamda kutubxonada mustaqil ishlash tajribalarini paydo qilishdan iboratdir

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yosh kitobxonlarda kitobni mustaqil o'qishga havas uyg'otish; yosh xususiyatlariga mos bo'lgan adabiyotlar va ularning turlari bilan o'quvchilarni tanishtirish, mustaqil o'qish uchun kitob tanlash, tanlangan kitoblarni ong'li ravishda o'qib, o'qilganlarning mazmunini idrok etish, fikrlash, mulohaza yuritishga o'rgatish talab etiladi. Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda uning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor beriladi.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi-kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodining xilma-xil namunalarini bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklab tarkib toptirishdir.

Sinfdan tashqari o'qish darsining mazmuniga ko'ra ta'limning har bir bosqichida ikki asosiy bo'lim ajratiladi:

1-bosqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o'qish bilan tanishtirish yuzasidan o'quvchilarga ko'rsatma beriladi.

2-bosqichda shu o'quv materiallari asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'limning Davlat standartlari va o'quv dasturiga ko'ra 1-sinfda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona-vatan, istiqloq, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlar-tushunchalari kengaytiriladi, boyitiladi.

Sinfdan tashqari o'qish 1- sinfdan haftada bir marta savod o'rgatish darslarining 20 daqiqasida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtiriladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg'otish, mustaqil uquvlarini paydo qilishdir. Asosan bu sinf o'quvchilariga kitob bilan muomala qilish, kitob o'qish qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti harakatini kuzatish, ijobiy tomonlarini o'rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Bu sinf o'quvchilari uchun asosan rasmlarga boy kitoblar olinadi. O'qituvchi bolalarning his-tuyg'ularini o'stiradigan kitoblarni o'qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlari, qadriyatlari, o'tmishi, insonlarning orzu-istaklari bilan tanishtiriladi. Ularda bilimga havas uyg'otadi.

2- sinfdan o'quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining yordami va topshirig'i asosida mustaqil o'qishga o'tadilar. Bu sinfdan ikki haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darsi o'tkaziladi. Ona – Vatan va ota-bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarni o'qituvchi topib, tanlab o'quvchilarga o'qishga tavsiya etadi.

3-4- sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti, yorqin tasvirlangan, ularning ma'naviy-ahloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. 3-4- sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sinf kutubxonasida kerakli bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos kitoblarni to'plashni davom ettiradi. Sinfdan tashqari o'qish burchagi turlicha bezalishi mumkin. Bunda o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda ish olib boradi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishni, nutqni o'stirish, adabiy – estetik tafakkurni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'qish darslari bilan bog'lab olib boriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir nechta kitob bilan tanishsalar, so'ngra bolalarning qiziqishlariga mos, ruhiyatlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab o'qishga o'tadilar. Bunda asosan o'qituvchi o'quvchilarni maktab kutubxonasiga, to'rtinchi sinflardan boshlab tuman yoki shahar kutubxonasiga sayohat uyushtirib, bolalar adabiyoti bilan muntazam tanishtirib boradi. Shuningdek bolalar gazeta va jurnallari ham o'quvchilarga erak, hikoyalar o'qishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar badiiy va ilmiy –ommabop kitoblarni mustaqil o'qiy va tanlay oladigan, ularning mazmun-mohiyatini tushunadigan bo'lishlariga erishish lozim. Bu jarayonda o'quvchilarning faqat

kitoblarininggina emas, balki gazeta va jurnallar mutolaasiga ham qiziquvchan faol kitobxon bo'lishlariga e'tibor qaratiladi.

Mavjud darslarda sinfdan tashqari o'qish davomida o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bolalar yozuvchilarining asarlarini tanlay bilish, mustaqil o'qigan kitoblarini, ulardagi qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, asar syujetidagi muhim o'rinlarni ajrata olish, sinfdan tashqari o'qish kundaligi yuritish kabi ko'nikmalarni egallash belgilab berilgan.

Sinfdan tashqari o'qish, o'z navbatida, qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, o'quvchilarning bilimi va dunyoqarashini kengaytiradi, kundalik hayotga faol munosabat uyg'otadi. Shuning uchun ham bu xildagi darslarning qurilishi ham xilma-xil bo'ladi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar o'qigan kitoblari hisobga olinadi, yangi kitoblar tavsiya etiladi. Mustaqil mutyolaa qilingan asarlar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlarda asar mavzusi, janri, kompozitsion tuzilishi, sujet qurilishi, qahramonlar timsoliga oid tahlil elementlari o'qituvchilar ongiga singdirila boriladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida ham kirish va yakuniy suhbatlar o'tkaziladi. Darslar rejasi butun o'quv yili uchun oldindan tuzilishi lozim. Sinfdan tashqari o'qishning asosiy vazifasi bolalarni mustaqil amaliy faoliyatga o'rgatish, bilimni boyitish va o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishdir. O'quvchilarga sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qishlari zarur bo'lgan kitoblar, ular bilan tanishish tartibi yuzasidan ko'rsatmalar beriladi. Maktab kutubxonasi bilan birgalikda kitob ko'rgazmalari tashkil ettiriladi. Bu jarayonda kitob muqovasi, tituli, betlarini farqlay olish, asar muallifi, nomlarin, rassomlarni tanib-bilib olish, rasm asosida asarlaning nima haqida ekanini, mazmunini aniqlashga erishish muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilarda muayyan mavzularda tavsiya etilgan asarlar ichidan kitob tanlash va oqish ko'nikmalarini shakllantirish, ularni o'qigan asari mazmunini qisqacha so'zlab berishga o'rgatish lozim.

O'qish mavzusi sinfda o'qiladigan asarlar mavzusi bilan uyg'unligiga, ta'lim-tarbiya birligiga, mavsumiy, bosqichli va bolalar qiziqishiga rioya qilgan holda belgilanadi hamda asarlar tanlanadi.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarini rejalashtirishda quyidagilarga asoslanadi:

1. Mavsumiy tamoyilga va milliy an'anamiz bilan bog'liq bo'lishiga;
2. Sinfdan tashqari o'qish darslarini sinfdan sinfga o'tgan sari bosqichli izchillik tamoyili asosida kengaytirib borishga;
3. Sinfda o'qish darslarida o'rganiladigan mavzular bilan bog'liq bo'lishiga;
4. Bolalar yozuvchilarining tavallud kunlari bilan bog'liq holda ularning ijodini o'rganish;
5. Bolalarning qiziqishlarini hisobga olishga;
6. Adabiy jarayon bilan hamnafas bo'lishiga;
7. Sinfdan tashqari o'qish uchun beriladigan topshiriqlarning ijodiy xarakterda bo'lishiga;
8. O'quvchilarda mustaqil o'qish ko'nikmalarining shakllanishiga e'tiborni kuchaytirish va rahbarlik shakllarining xilma-xil bo'lishiga asoslaniladi.

Kitob mutolaasi o'quvchilar ma'naviyatini shakllantiradi. Ma'lumki, har bir xalqning turmush tarzi, yashash sharoiti, muomala madaniyatining rivojlanish tadrjii o'sha xalqning ma'naviyati shaklida namoyon bo'ladi. Ularning ma'naviyati

qadrlanadi, ularga hurmat bajo keltiriladi. Aslida o'sha xalq ma'naviyatini shakllantiruvchi birinchi omil ta'lim-tarbiya jarayonining izchil yo'lga qo'yilganligidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nasriddinova D. Kitobim - oftobim (1-4-sinflar uchun sinfdan tashqari o'qish kitobi). - T.: Yangiyo'l poligraf sevis, 2018.
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldasheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.

Tilavova M. D., Sapayeva B. Q.
(Urganch, O`zbekiston)

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IQTISODIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Аннотация: В статье рассматриваются методы экономического воспитания на уроках чтения ученикам начальных классов и приёмы работы над экономическими терминами на внеурочных занятиях по чтению.

Ключевые слова: воспитание, экономика, экономический термин, внеклассных чтение, экономический воспитание.

Abstract: This article clarifies about the methods of economic education during reading lessons, the ways of working on economical terms during out of reading classes for primary schoolchildren.

Key words: education, economy, economic term, extracurricular learning, economic education.

Bolalarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirish kelajakda ular o'z mehnatini to'g'ri sarflash va baholashni mustaqil belgilash imkonini beradi. Bozor iqtisodiyoti butun bir iqtisodiy bilimlar, murakkab munosabatlar kompleksidir. Buning ma'nosi shuki, bozor munosabatlarini doimo o'rganib borish asosidagina xo'jalikni muvaffaqiyatli yuritish mumkin. Uning natijalariga erishish tasarrufida mulk va mablag'dan oqilona foydalana bilish eng yuqori samara olish, pirovard natijada farovon, to'q hayot kechirish imkonini beradi. O'quvchilarda farovon yashash ko'nikmasini hosil qilish iqtisodiy ilmni egallash orqaligina yuzaga keladi. Buni hozirgi bozor munosabatlari asosida yashayotgan har bir fuqaro hayotida ko'rish mumkin. Har qanday tafakkur kabi iqtisodiy ta'lim ham yoshlikdan, hech bo'lmaganda, boshlang'ich sinfdan boshlanmog'i kerak.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I. A. Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" nomli asarida bu masalani –iqtisodiy islohotlarning strategik vazifalarni aniq va ravshan ko'rsatgan. Asarda yoshlarga tadbirkorlik faoliyati bo'yicha iqtisodiy va huquqiy bilimlar berishga keng e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanadi.

Bozor iqtisodiyotining bizga ma'lum bo'lgan natural hamda rejali iqtisodiyotlardan tub farqi o'z-o'zini boshqarishdir. Kichik yoshdagi o'quvchilarning hayot tarjibasi va o'zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda ular ongida iqtisodiyotga oid bilim va ko'nikmalarni hosil qilishda yangi texnologiya, "Integrasiya", "Innovatsiya" usullaridan foydalanish, boshlang'ich sinf darsliklarini shu yo'nalishdagi yangi zamonaviy bilimlar bilan boyitish, iqtisodiy bilim berishda fanlarning imkoniyatlardan foydalanish, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari mashg'ulotlar va turli to'garaklar asosida muayyan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish bizning oldimizga qo'yilgan muhim vazifadir. Bizningcha, avvalo boshlang'ich sinfdanoq bolaga iqtisodiy ta'limdagi 5 asosiy yo'nalish o'rgatilmog'i zarur. Bular "Iqtisodiy ta'lim", "Iqtisodiy tarbiya", "Iqtisodiy tarbiyalanganlik", "Iqtisodiy tayyorgarlik", "Iqtisodiy savodxonlik"dir.

Mazkur yo'nalishlarni o'rganish asosida ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini iqtisodiy tarbiyalash deganda ularning iqtisodiy bilim, malaka va ko'nikmalarini egallashlari yo'lida o'qituvchi tomonidan iqtisodiy mazmundagi masalalar va topshiriqlar vositasida aniq maqsad sari yo'naltirilgan bilimlar majmui tushuniladi.

1-sinflarda fanlararo aloqadorlik asosida iqtisodiy bilimlar haqida ma'lumotlar berilsa, 2-4-sinflarda "O'qish" va "Ona tili" darsliklarida berilgan matnlarni o'qib o'rganish orqali tushunchalar shakllantiriladi.

Ayniqsa, 3-4-sinflarda iqtisodiy atamalar bozor, sotuvchi, xaridor, pul tushunchalari ustida ishlanadi.

- Bolajonlar, siz, albatta, bozorga borgansiz, ko'rgansiz, shundaymi?

- Ha, borganmiz.

- "Sotuvchi", "Xaridor" degan so'zlarini ham eshitgansiz, to'g'rimi?

- Bugun sizlar bilan qaysi mavzu haqida suhbatlashar ekanmiz?

- Bozor haqida.

- Juda to'g'ri. Bugun biz sizlar bilan bozor va bozor munosabatlari to'g'risida fikrlashar ekanmiz. Bunda siz "iqtisod" deb atalgan antiqa, lekin siz uchun juda qiziqarli va betakror olamga kirib borasiz. Men sizlarga bu olamning inson hayotidagi bebaho o'rni xususida ham gapirib beraman. Avvalo bozorning o'zi nima? U qanday joy ekanligi to'g'risida eshiting. "Bozor" so'zi sotuvchi va xaridorlarning o'zaro munosabat va muloqotlar, ya'ni mahsulot tavorlarning oldi-sotdi qilindigan joy ma'nosini bildiradi va haqiqatdan ham xuddi shunday jarayon bozorning asosiy faoliyati hisoblanadi. Yurtimizda bir qancha dehqon bozorlari, ya'ni oziq-ovqat, meva-cheva, poliz mahsulotlarini sotiladigan bozorlari mavjud: tarix sahifalaridan o'rin olgan "Chorsu", "Beshyog'och", "Askiya", "Mirobod", "Qo'yliq" hamda keyingroq tashkil bo'lgan "Farhod", "Yunusobod", "Sirg'ali" va hakoza bozorlar siz- u bizning kundalik hayotimizda muhim o'rin tutadi. Chunki, "Bo'sh qop –tik turmas" deganlaridek ertaga yaxshi yashash, yaratish, sog'lom bo'lish uchun, vaqtiga ovqatlanishimiz uchun o'zimizga kerakli, ehtiyojimizga yarasha mahsulotlar sotib olamiz.

O'qituvchi o'quvchilar bilan buyum bozorlari xususida ham suhbat qiladi.

Shu o'rinda qadimiy tarixga ega bo'lgan "Buyuk ipak karvon yo'li" haqida ham aytib o'tiladi. So'ng bir o'quvchi ekologik iqtisodga doir ma'lumot topib kelgani uchun uning ma'lumotlari tinglandi:

- Energiyani qanday qilib tejash haqidagi o'tkazilgan tadqiqotlardan biri oynavand binolarni ko'paytirish kerak, degan xulosani berdi. Shu asosda ishlab chiqarilgan maxsus oynalar yozda ichkariga issiq havoni kiritmasa, qishda ichkaridagi issiqni tashqariga chiqmasligi bilan foydalidir. Natijada binoda isitish – sovitish ishlarida ortiqcha energiya sarflanmaydi. Bu esa bugungi global iqtisodiy hamda ekologik inqiroz paytida katta ahamiyatga egadir.

- Rahmat senga, juda qiziqarli va ayni paytda dolzarb ma'lumotni aytib berding. Ko'rdingizmi, bozor va unda bo'ladigan munosabatlar hamma yerda goh u, goh bu ko'rinishda amalga oshib turadi.

Demak, iqtisodiy atamalar o'z-o'zidan ko'payib boraverar ekan. Masalan, yaqin o'tmishda 20-yillar avval "marketing", "diller", "biznes" degan so'zlar muomalada umuman bo'lmagan. Chunki, bunga hojat yo'qdek edi. Bozor munosabatlarining mutanosibligini ta'minlaydigan kuch, bu – puldir. Har bir narsani

xarid qilishda uning narxi so'raladi va o'sha summa pul bilan, bizning yurtda- so'm to'lanadi. Va bu bilan esa tovar ishlab chiqargan shaxslar ham, sotgan shaxslar ham rag'batlantiriladi. Rag'batning yana bir ko'rinishi borki, uning nomi- barter. Ya'ni, oldi-sotdi ishlarida pulni aralashtirmay, tovarni tovarga ikki tomon roziligida almashtirish. Bunda har ikki tomon shaxslari manfaatdor bo'lishi lozim.

O'quvchilarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda iqtisodga oid testlarning ahamiyati katta.

Iqtisodiy testlar

I variant

1. Iqtisodiy rivojlanish nima?
 - a) moddiy ne'matlar ishlab chiqarish;
 - b) ehtiyojlarni qondirish
 - v) bozorga tavorlar yetkazib berish;
 - g) ishlab chiqarish jarayonini doimiy ravishda rivojlantirish.
2. Samaradorlik nima?
 - a) iqtisodiyotni o'stirish
 - b) sarflangan resurslarni tejash
 - v) ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi
 - g) iqtisodiy resurslarni tejash
3. Bozor nima?
 - a) aholi uchun zarur bo'lgan iste'mol tavorlari va xizmatlarining oldi-sotdisi
 - b) ishlab chiqarishni amalgam oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalarining oldi-sotdisi
 - v) bir tavorni boshqasiga to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bater yo'li bilan almashtirish
 - g) pul vositasida tavorlar oldi-sotdisi yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar.
4. Sohibkor kim?
 - a) boshqaruvchi
 - b) menejer
 - v) egalik qiluvchi
 - g) foyda olish maqsadida tavakkal qilib ish yurituvchi shaxs
5. Kredit nima?
 - a) ortiqcha to'langan pul
 - b) qarz berish
 - v) qarz olish
 - g) muayyan muddatga, ma'lum bir foiz hisobiga qarz berish.

II variant

1. Iqtisodiy resurslar nima?
 - a) tovar
 - b) pul
 - v) insonlar
 - g) yer, yer osti va yer usti boyliklari, mehnat bilan yaratilgan barcha tovarlar va tadbirkorlik layoqati.
2. Pulning vazifasi nimadan iborat?
 - a) pul iste'mol bilan ijtimoiy talabga bo'lgan investitsiya omili
 - b) ijtimoiy taklif va almashuv uchun zarur bo'lgan miqdorni belgilaydigan kapital qo'yilmalar omili

v) daromadlar va xarajatlarni hisobga olish tizimi
g) yagona hisob-kitob yurgizish, almashuv, jamg'arma muomala, to'lov vazifasini bajaradi.

3. Aksiya nima?

a) qimmatbaho qog'oz

b) daromad keltiruvchi qimmatbaho qog'oz

v) pul saqlash usuli

g) oblikatsiya

4. Soliq nima?

a) kommunal xo'jaliklarga to'lanadigan to'lovlar

b) daromaddan to'lanadigan to'lovlar

v) pul ko'rinishidagi qiymatlar

g) soliq-moliyaviy kategoriyalar

5. Davlat budjeti nima?

a) pul mablag'larni jamg'aruvchi

b) pul mablag'larni taqsimlovchi

v) pul mablag'larni sarflovchi

g) umumjamiyat miqyosida markazlashgan holda davlat ishtirokida to'planadigan va sarflanadigan moliyaviy resurslari.

Demak, o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berishni boshlang'ich sinflardan boshlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu ishga har bir ota-ona, o'qituvchilar mas'ul bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldasheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.
2. Umarova M., Xamrakulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. -Toshkent, "O'qituvchi", 2019.
3. Matchonov S., Shojalilov A. va boshqalar. O'qish kitobi. 4- sinf uchun darslik. -Toshkent, "Yangiyul Poligraph servise", 2017.

**Xudoynazarov Egambergan Madraximovich, Xalillayeva Go'zaloy
(Urganch, O'zbekiston)**

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA LOYIXALARDAN FOYDALANISHNING
DIDAKTIK ASOSLARI**

Аннотация: *Ushbu maqolada o'quvchilarning o'quv faolligini rivojlantirishda foydalanadigan loyiha texnologiyasi nazariy tahlili, bosqichlari ko'rsatib o'tilgan.*

Калит сўзлар: *loyiha, loyihaviy metod, loyiha bosqichlari.*

Аннотация: *В этой статье представлен теоретический анализ, этапы технологии проекта, которые студенты используют в развитии учебной активности.*

Ключевые слова: *проект, проектный метод, этапы проекта.*

Abstract: *this article presents a theoretical analysis of the stages of the project technology that students use in the development of educational activity.*

Key words: *project, project method, project stages.*

Olimlar yana loyihaviy metodni o'quvchilarning o'zini ijodiy tarafdin faollashtirishi uchun asosiy shartlardan biri ekanligini ajratib ko'rsatishadi. P. A. Maslova fikriga ko'ra, loyihaviy metod bu-o'quvchilarni izlanish ehtiyojlarini qondirish, qo'yilgan qizaqarli vazifalarga mustaqil yondashishni ta'minlovchi usullar, o'quv loyihasini amalga oshirish davomida o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish yo'lidagi birgalikdagi faoliyatdir.

Olimlar loyiha metodini o'quvchilarni shaxs sifatida shakllanishida juda samarali vosita deb alohida ko'rsatishadi, chunki ushbu metod shaxsning ijodiy o'zini ko'rsatishiga qaratilgan, o'qituvchining roli o'zgargan, o'qituvchi bilim berishda vositachi sifatida emas, balki ustoz va maslahatchi o'rnida qabul qilinadi.

E. N. Zemlyanskaya fikriga ko'ra, loyihaviy metodni amalga oshirishda o'qituvchi harakatlarini quyidagicha ta'riflash mumkin: o'quvchiga faoliyat maqsadini aniqlashga yordam beradi; axborot olish manbasini topishda maslahat beradi; faoliyat turlarining imkoniyatlarini ochib beradi; loyihani bajarishda natijalarni oldindan anglashga yordam beradi; o'quvchi faoligi uchun shart-sharoitlar yaratib beradi; sherik sifatida faoliyat yuritadi; o'quvchiga natijani baholashga ko'mak beradi va h.k.

Keyingi yillarda quyidagi loyiha bosqichlarni uchratish mumkin: holatni tahlil qilish, ishni rejalashtirish va maqsadga erishish uchun yetarli shart-sharoitlarni yuzaga keltirish, bajarish uchun amaliy ish, natijalarni baholash va loyiha istiqbolini tahlil qilish; individual va guruhlarda ish tashkil qilish, ishni rejalashtirish, axborot izlash va yig'ish, axborot tahlili, loyihani bezash, loyihani taqdim qilish (prezentatsiya); ilmiy izlanish, texnologik, samarali.

Qilingan tahlil natijasida loyiha ustida ishlashning quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- loyiha oldi tayyorgarligi bosqichi (loyihani ishga tushirish);

- rejalashtirish bosqichi;
- tashkiliy va ilmiy-izlanish bosqichi;
- erishilgan natijalarni taqdim qilish bosqichi;
- refleksiv baholash bosqichi;
- loyiha tugagandan keyingi ishlar bosqichi.

Bu bosqichlar mantig'ini loyiha ustida ishlayotgan qatnashchilarning har birining o'z o'rnini aniqlaydi: o'quvchilar, o'qituvchilar, maktab ma'muriyati, maslahatchilar. Har bir sinf uchun tayyorlanayotgan loyiha texnologiyasini ishlab chiqishda o'qituvchi quyidagilarni e'tiborga olishi lozim:

- o'quvchilarni qanaqa muammo ko'proq qiziqtiradi;
- qaror qabul qilishda bolalarga qanchalik erkinlik berish kerak;
- kutilayotgan natijalar;
- loyihani amalga oshirish uchun yetarli vaqt oralig'i;
- loyihani amalga oshirish uchun kerakli materiallar;
- loyihani bajarish uchun bolalarda qanday bilimlar bo'lishi kerak va qanaqa narsalarni o'rgatish lozim;
- loyiha bajarishdan oldin yoki uni bajarish davrida mashqlar bajarish maqsadga muvofiqligi;
- loyihani qaysi pog'onasiga ko'proq e'tibor berish kerak.

Loyihani ishga tushirish bosqichi (tayyorgarlik bosqichi, loyiha oldi bosqichi) o'quvchilarning loyiha ishlarini bajarishga tayyorlashni bildiradi. Ushbu bosqich o'z ichiga qondirish talab qilinadigan ijtimoiy talab, shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni ko'rsatib berishni oladi. Loyiha mavzusi aniqlangandan keyin o'quvchilar talablarni aniqlagan holda asosiy g'oyani va oxirgi natijani ishlab chiqishadi. O'quvchilar o'quv predmeti (predmetlari), loyiha boshlig'i yoki boshliqlarini saylab olishadi. Bu jarayon guruhlarda yoki butun sinfda bo'lishi mumkin.

O'qituvchi bolalarning ishlarini to'g'ri tuzishga va hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilishni o'rgatib borishi kerak. Bajarilgan loyiha ishi hisoboti quyidagi tashkiliy qismlardan iborat bo'lishi kerak: kirish qismi, asosiy qism, yakun va axborot manbalari ro'yxati.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun loyiha faoliyatini tashkil qilishda yana bir sharoitga e'tibor qaratish kerak: bevosita maktabning o'zida loyihani didaktik, axborot va materiallar bilan iloji boricha to'liq ta'minlash. Buning uchun maktab hududida "Ta'lim tizimini boyitish markazi" kabi bolalar loyihalari va ularni ilmiy o'rganishni amalga oshirishda yordam beradigan barcha narsalar saqlanuvchi alohida xona, stellaj yoki kutubxona binosida maxsus burchak tashkil qilinishi mumkin. Masalan, bolalar uchun adabiyotlar to'plami, sxemalar, illyustratsiyalar, asbob-uskunalar, o'yinchoqlar, musiqa va axborot yozilgan video to'plagichlar. Shuningdek, tosh, tayoq, gazlama bo'laklari kabi ishlatilishi mumkin bo'lgan materiallar ham kerak bo'lishi mumkin. Bunaqa resursning ahamiyati juda muhim. Bolaning vazifasi oldindan belgilangan mavzuga kitob va boshqa manbalardan materiallar tanlab olish.

Shunaqa qilib boshlang'ich sinfdagi bolalar uchun loyiha texnologiyasi o'ziga xos tashkilotchilik xususiyatlariga ega, shuning uchun o'quvchilarni faoliyat subyektlari sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bu xususiyatlarni hisobga

olish o'quvchilarni mustaqil ravishda bilim olish, axborot to'plash va ilmiy izlanishlardagi ishtirokiga asta-sekin, qiyinchiliksiz o'tishini ta'minlaydi.

Biz boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Sehrli kvadratlar tuzish va ularni yechishni o'rganamiz", "Og'zaki hisoblashni o'rganamiz", "Matematik maqollarni o'rganamiz", "She'riy masalalarni yechishni o'rganamiz", "Alifbo harflarini o'rnini o'rganamiz", "Matematik komponentalarning inglizcha nomini o'rganamiz", "Ko'p xonali sonlarni o'qishni o'rganamiz", "Kenguru – matematika musobaqasi" masalalarini yechishni o'rganamiz, "Prezident maktabi tanlovi matematika masalalarini yechishni o'rganamiz" loyixalaridan foydalanishni taklif qilamiz.

ФЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Узвийлаштирилган Давлат таълим стандарти ва ўқув дастури, - Toshkent, 2010.
2. Землянская. Е. Н. Учебные проекты в экономической подготовке школьников // Народное образование. — 2006. - №1. - с. 163-171.
3. Маслов П. А. Творческая, самореализация младших школьников в проектной деятельности. Автореф. дис. канд. пед. наук. - Волгоград, 2008. — 20 с.
4. Щукина Г. И. Активизация познавательной деятельности учащихся в учебном процессе: Учебное пособие для пед. ин-тов. - М.: Просвещение, 1979.-160 с.

**Жуманиёзова Муҳаббат Хўсиновна, Закирова Мақсуда Атаевна
Урганч Давлат университети
(Урганч, Узбекистан)**

МАТН ЁРДАМИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ОҒЗАКИ НУТҚИНИ ЎСТИРИШ УСУЛЛАРИ

Аннотация. *Мазкур мақолада ўқувчиларнинг оғзаки нутқини матн ёрдамида ўстириш усуллари ҳақида сўз борган. Унда матн ва матн турлари, матн орқали ўқувчиларнинг нутқини ўстириш жараёнида уларнинг мустақил фикрлаш малакаларини чуқурлаштириш масаласи акс эттирилган.*

Калит сўзлар: *Она тили таълими, нутқ, оғзаки ва ёзма нутқ, нутқ ўстириши, нутқий кўникма, матн, сўз бойлиги, гап тузиш.*

Аннотация. *В данной статье изучены методы развития устной речи при помощи текста. В статье раскрыты понятия текста и его видов, задачи углубления навыков самостоятельного мышления учеников при помощи текста в процессе развития речи.*

Ключевые слова: *изучение родного языка, речь, устная и письменная речь, развитие речи, речевое умение, текст, словарный запас, составление предложений.*

Annotation. *This article discusses how to develop pupils' verbal speech using text. It reflects the issues of text and text types, the deepening of pupils' ability to think independently in the process of developing speech through the text.*

Keywords: *native language education, speech, verbal and written speech, developing speech, speaking skills, text, vocabulary, sentence formation.*

Дунёга юз тутиб, ривожланиб бораётган мустақил давлатимизга ҳозирги кунда ўз ҳақ-ҳуқуқини англайдиган, фикрини исботлай оладиган, гапга чечан, сўзини ўткази оладиган етук мутахассислар, ўз соҳасининг билимдонлари зарур. Бундай баркамол авлод вакиллари тарбиялашда ўрта махсус таълим ҳам муҳим ўрин тутди. Ўрта махсус таълимида ўқитиш жараёнининг, жумладан, она тили таълимининг асосий вазифаси ўқувчиларда нутқий кўникмаларни ҳосил қилиш, уларни ўз фикрини мантиқан изчил ва услубан саводли қилиб баён этишга ўргатишдан иборатдир. Бу жиҳатдан она тили дарси ёш авлодни жамиятимиз олға сураётган юксак ғоялар руҳида тарбиялаш воситаси ҳисобланади.

Ҳозирги даврда фан-техника шу қадар ривожланиб, ахборотлар шунчалик кўпайиб кетдики, уларнинг инсон томонидан ўзлаштирилиши ишлаб чиқаришдан анча орқада қолмоқда. Бу ахборотларни ўзлаштирувчиларнинг кўпчилик қисмини эса ўқувчилар ташкил этади. Кейинги пайтларда ҳаётимизда ахборот технологияларига доир кўпгина янги маълумотлар, атамалар кириб келмоқда. Шундай янги атамаларни болага тўғри ўргатиш лозим. Бу муаммони ҳал қилиш эса дарсларга бўлган дидактик талабларнинг оширилишини талаб

этноқда. Дарс мазмуни ўқувчиларнинг ҳиссиётига кучли таъсир кўрсатиши, у жонли, таъсирчан бўлиши, ўқувчиларнинг қалбини эгаллаб олиши лозим.

Ҳозир ўтилаётган айрим дарслар ўқувчиларнинг ақлини эгаллаб олишга қаратилади-ю, лекин уларнинг қалбига йўл оча олмайди. Мана шуларнинг таъсирида айрим она тили ва адабиёт дарслари зерикарли ва қуруқ ўтади. Зероки, дарс давомида зерикаш – ўқувчининг ашаддий душманидир. Агар дарс давомида ўқувчиларга бефарқ қаралса, бола бутун ҳаёти давомида ўқишга нафрат кўзи билан қарайдиган ёки илмга нисбатан совуққон бўлиб қолади. Шу сабабли ўқитувчининг дарсга тайёрланаётганида ҳал қилиниши зарур бўлган педагогик масалаларни олдиндан аниқ белгилаб олиши муҳим аҳамият касб этади.

Кўпгина ўқитувчилар она тили ўқитишнинг асосини грамматик қоида ёдлатиш ва машқ ёздиришдан иборат, деб тушунадилар. Шунинг учун улар асосан дарслик материалларига ёпишиб оладилар. Грамматик қоидалар ҳам ўқувчилар томонидан кўр-кўрона ёдлаб олинади, қоидадан нутқ жараёнига ўринли татбиқ этишга эътибор берилмайди. Ёшларда ижодий тафаккур, ижодий изланиш, мавжуд имкониятлардан энг қулай ва серунумли танлаб олиш кўникмаларини шакллантириш ва ривожлантириш, уларни миллий қадриятларимиз, удум ва анъаналаримиз руҳида тарбиялашда она тили фанининг тугган ўрни ва имкониятлари бениҳоя катта.

Шу нуқтаи назардан қараладиган бўлса, мустақиллик даврига келиб она тили таълимнинг шаклланиб қолган таълим усули замон талаби ва эҳтиёжга жавоб бермай қўйди. Грамматизмга асосланган ўқитиш усули ўқувчи-ёшларнинг кўпчилик қисмида ижодийлик, мустақил фикрлаш, вазиятга қараб фикр ифодалаш кўникмаларининг паст бўлишига олиб келди. Мавжуд ҳолат кўп жиҳатдан она тили таълимнинг мақсади, мазмуни ва усулига алоқадар бўлиб, уни янгилаш ҳаётий заруриятга айланди.

Она тилини мукамал ўқитиш ўқувчилар нутқ маданиятини ўстиришга кенг имконият яратади. Улар ўқитувчи раҳбарлигида табиат ҳодисаларини, кишиларнинг меҳнат фаолиятини кузатадилар, ўртоқлари билан фикр алмашадилар, ўқитувчи ва бошқаларнинг адабий тил меъёрлари асосидаги нутқларини эшитадилар, китоб ўқийдилар, ўзлари матн тузадилар.

Бола мактабга келган дастлабки кунлардан оғзаки ва ёзма нутқ қоидаларни, грамматик қоидаларни ўзлаштиришга интилади. Бу грамматик қоидалар ўқувчининг нутқ кўникма ва малакасини ўстириш, мустақил фикрлаш қобилиятини ривожлантириш иши билан боғлаб олиб борилса, адабий нутқнинг ривожланишига катта таъсир кўрсатади.

Булардан ташқари, ўқувчи нутқини ўстириш, луғатини бойитиш устида маълум режа асосида ва мақсадга мувофиқ иш олиб бориш талаб этилади. Бу соҳада биринчи навбатда ўқувчиларни ўз фикрларини тўғри, аниқ, таъсирчан шаклда ифодалай олишга ўргатиш лозим.

Она тили дарсларида тилни амалий жиҳатдан ўзлаштириб олинади. Бутун ўқув иши жараёнида ўқитувчи ўқувчиларнинг сўзларини тўғри талаффуз этишига, урғуни тўғри ишлатишига, воқеликни аниқ ифодаловчи сўз ва ифодаларни танлаб, фикрни мазмун жиҳатдан тўғри туза олишига эътибор бериб, йўл қўйган хатоларни тўғрилаб бориши катта аҳамиятга эга, аммо уларни нутқ устидаги етарли иш деб бўлмайди.

Нутқ ўстириш унинг мазмуни, гап тузишга керакли сўз ва унинг шаклини танлаш, фикрни орфографик ва пунктуацион жиҳатдан саводли баён этиш, орфоэпик жиҳатдан тўғри талаффуз қилиш устида мунтазам ишлаш демақдир.

Ўқувчилар учун ёзма нутқ алоҳида қийинчилик туғдиради, уларни ёзма нутққа аста-секин, грамматика ўқитиш ва орфография боғлиқ ҳолда ўргатиб борилади. Ёзма ишга ўргатиш танланган матн устидаги дастлабки оғзаки машқдан бошланади. Матнни таҳлил қилиш даврида ўқитувчи ўқувчиларнинг мустақиллигига суянган ҳолда сўзларни тўғри талаффуз этишга, тўғри танлашга ўргатади.

Мустақил ёзма ишнинг энг кўп тарқалган тури матнни оғзаки ёки ёзма баён қилишдир. Одатда, она тили дарсларида қайта ҳикоялаш, матн мазмуни баён этиш бўйича машғулотлар адабиёт дарслари билан боғлаб олиб борилади. Адабиёт дарсларининг вазифаси ўқилган матннинг мазмунини, тилининг ўзига хос томонини ўз сўзлари билан айтиб беришга, ўқиганлари юзасидан ўз фикрини айта олишга ўргатишдан иборатдир. Матн мазмунини ўзлаштиришда, сўз бойлигини орттиришда матнни мустақил ўқиш яхши натижа беради. Ўқувчиларга матн туздиршдан олдин матн турлари ҳақида ҳам умумий тушунча бериш, уларни турли хил матнлар тузишга ўргатиш лозим. Асосан, матннинг қуйидаги турлари билан таништириш мақсадга мувофиқдир:

Баёний матн. Баёний матн тузиш учун бирор воқеа-ҳодиса ҳақида ҳикоя қилиш ёки нарса-буюм тўғрисида маълумот бериш керак.

Тасвирий матнда ҳодиса, нарса-буюм ёки кишиларнинг бадий тасвири берилишини кўрсатиш керак.

Мулоҳаза турдаги матнда эса бирор бир нарса, воқеа-ҳодиса ҳақидаги турлича қарашлар изоҳланиб, турли мулоҳазалар далиллар асосида исботланади.

Ривоя матн. Бундай матнда бирор нарса ҳақида маълумот берилиши, ҳикоя қилиниши ёки бирор ҳодисанинг тафсилоти тушунтирилиши мумкин.

Тавсифий матн. Бундай матнда бирор нарса (ҳодиса, киши, буюм, манзара) тасвирлаб (тавсифлаб) ҳам берилиши мумкин. Матнда шунингдек, бирор бир нарса (шахс), унинг фаолияти (ҳолати) ҳақида мулоҳаза юритилиши, бирон фикр исботланиши мумкин.

Маълумотнома матн. Бунда эса бўлиб ўтган воқеа-ҳодиса ёки мавжуд ҳолат ҳақида оддий ахборот берилади. Бундай матнда сўзларнинг кўчма маъноларидан, тилнинг бадий-тасвирий воситаларидан деярли фойдаланилмайди, воқеа-ҳодиса оддий ва аниқ баён қилинади.

Ижодий-тавсифий матн. Бунда сўзловчи ёки ёзувчи томонидан ижодий равишда баён этилган воқеа-ҳодиса, нарса ёки шахснинг тасвири ёки хабар, маълумотнинг ижодий-тавсифий баёнидир.

Маълум воқеа-ҳодисаларга, нарса ва шахсларга оид фикр-мулоҳаза билдириш, уларни бадий-тасвирий воситалар, далиллар билан таърифлаш, изоҳлаш ижодий-тавсифий матнга хос хусусиятлардандир.

Илмий, публицистик ва бадий услубларга хос матнлар, шунингдек, иншо ҳам ижодий-тавсифий матннинг кўринишларидандир. Ана шу юқоридаги таснифий белгиларга қараб ўқувчилар томонидан яратилажак матнларнинг турлари аниқланади ҳамда улар илмий-амалий жиҳатдан таҳлил қилинади.

Гап шундаки, бу матн турларининг ҳар бирида ўзига хос лисоний ва лексик воситалар қўлланади. Ҳар бирининг кириш, асосий ва хулоса қисмлари ўзгача хусусиятга эга бўлади. Ўқувчилар ана шу хусусиятларни билиб олсаларгина, фикрни саводли қилиб тўғри ифодалашни ўрганишлари мумкин. Матнда, шунингдек, фикрларни мантиқан изчил қилиб баён этиш катта аҳамият касб этади. Баъзи матнлардаги ғализликлар кўпинча фикрлар изчиллиги ва мантиқига мос келмайдиган ёки зид бўлган фикрнинг мавжудлиги, шунингдек, мавзудан четлаб кетиш ҳолларидан келиб чиқади. Шундай экан, ўқувчиларга мантиқ қонун-қоидаларини ўргатиш ва уларда фикрни матн тарзида мантиқан изчил қилиб ифода этиш кўникмаларини ҳосил қилиш асосий вазифалардандир.

Оғзаки матн тузишда, шунингдек, имо-ишора, оҳанг, ехе-е-е, вой, ҳа-а-а, А-а-а каби ҳис-туйғуни ифодаловчи воситалар, ёзма матнда эса бу воситалар билан бир қаторда тиниш белгилари ҳам жуда катта рол ўйнайди. Фикрни матн тарзида тўғри ифода этиш учун ўқувчи ана шундай воситалар ҳақидаги билимларни эгаллашгина эмас, балки уларни нутқий мулоқот жараёнида ўринли қўллаш бўйича амалий кўникмаларга ҳам эга бўлиши талаб қилинади.

Матнда, юқорида айтиб ўтганимиздек, фикрнинг услубан саводли қилиб баён этилиши, яъни матнда нутқ мақсади ва вазиятига қараб у ёки бу услубга ҳосиланган сўз ва ибораларнинг қўлланиши ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбек тили сўз, сўз бирикмалари ва гап даражасидаги бири-бирдан услубий жиҳатдан фарқланадиган синонимларга ниҳоятда бой тиллардан биридир. Шу боис ўқувчиларда уларнинг ҳар бирини матннинг услубий туригагина эмас, балки нутқий жанрига нисбатан ҳам тўғри қўллаш бўйича амалий кўникмалар ҳосил қилиш керак.

Фикрни матн тарзида ифодалашда ўқувчиларни юқорида тилга олинган барча талабларга риоя қилишга одатлантириш ва бу борада зарурий кўникмаларни ҳосил қилиш мақсадида уларни мунтазам равишда матн тузиш бўйича машқ қилдириш яхши натижа беради.

Ўқувчилар сўз бойлигини ошириш мақсадида матн тузиш жараёнида синонимлардан ўринли фойдаланиш малакаси ҳам ўргатилади. Дарс давомида сўзларни синонимлари билан алмаштиришдан ташқари, синоним сўзларни ўзлаштиришга қаратилган топшириқлар берилиши мумкин.

Матндаги синонимик қаторни топиш, бу қатордаги сўзларнинг ижобий ва салбий маъноларини ажратиш, услубий бетараф сўзларни топиб, ундан матнда ўринли фойдаланиш каби топшириқлар шулар жумласидандир.

Ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш учун биринчи навбатда улар билан ҳамкорликда матн устида иш олиб бориш керак. Матн танлашда ўқувчиларнинг ёш хусусияти ва билим даражасини ўтиборга олиш бундай дарсларнинг самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Матн билан ишлаш жараёнида тузилган матн асосида саволлар бериш, суҳбат тарзидаги матнларни ролларга бўлиб ўқиш, матндаги тушириб қолдирилган ўринларни тўлдириш, сўзларни алмаштириш каби иш турлари ўқувчиларда амалий нутқ кўникмаларини ҳосил қилиши, уларда фикрни боғлиқли матн тарзида баён этиш малакасини шакллантиришга хизмат қилади.

Она тили дарсларида ўқувчиларда мустақил фикрлаш, ижодий матн яратиш кўникмаларини шакллантириш таълимнинг асосий мақсадларидандир. Шунинг учун ҳам, айниқса, кейинги йилларда она тили дарсларида мустақил ва ижодий ишларга катта эътибор қаратилган. Ўқувчиларда ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш учун турли воситалар, усул ва манбалардан фойдаланилади. Булардан матн туздириш энг самарадор омиллардан биридир. Шунинг учун матн тузиш жараёнида ўқувчининг мустақил фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш мақсадида бу жараённи қуйидагича уч босқичга ажратиб ўрганган маъқул:

1-босқич: тасвирланган ҳолатга қадар бўлиб ўтган воқеа-ҳодисалар ҳақида билдирилган мантиқий фикр ва мулоҳазаларни ифодалаш;

2-босқич: тавсия қилинган расмдаги ҳолат тавсифи ва унга муносабатни ифодалаш;

3-босқич: мазкур ҳолатнинг давоми ҳақида ўқувчининг мустақил баёни. Бундай иш ўқувчи дунёқарашини кенгайтиради. Ўқувчилар воқеа-ҳодисалар кетма-кетлигига эътибор беради, улар ўртасидаги узвийликни қидиради. Бундай ижодий ишларни ташкил қилишда ўқувчиларга ижодий эркинлик берилади, уларда мустақил фикрлаш кўникмаларини ривожлантиришга эътибор қаратилади. Ижодий матн яратишда таълимий ва тарбиявий, маънавий ва маърифий жараён бир бутунликни ташкил этади.

Шунинг сабабли ижодий матн учун танланган мавзу ва расмлар ўқувчиларда она Ватанга, табиатга, миллий анъана ва қадриятларга муҳаббат туйғуларини уйғотувчи характерда бўлиши мақсадга мувофиқдир.

Матн танлашда ўқувчининг ёши ва қобилиятини ҳам ҳисобга олиш керак. Бу матнларда ўзбекона мулозамат, урф-одат ва удумлар акс этган бўлса яна ҳам маъқул. Ўқувчиларга оғзаки ва ёзма нутқни ўстирадиган, ўқувчини фикрлашга ундайдиган қизиқарли машқлар керак. Масалан, ҳадислардан парчаларни матн сифатида бериш мумкин. Ўқувчилар бу матнлар орқали мавзунини яхши ўзлаштириб оладилар. Тил ўқитишда биринчи ўринга грамматик қоидалар эмас, нутқий вазифалар қўйилиши керак. Бунда ўқувчилар нофаол тингловчи бўлиб қолмай, балки билим олиш жараёнининг фаол иштирокчисига айланадилар.

Она тили дарсларида ўқувчилар қуйидаги муносабат билан гап тузадилар: 1) грамматик қоидага мувофиқ келувчи мисол келтирадилар; 2) топшириқ ёки машқ шартини бажарадилар; 3) баён ёки иншо ёзадилар, оғзаки ҳикоя қиладилар. Утилган ёки янги ўрганилган мавзуга оид мисоллар топиш (гап айтиш ёки тузиш) энг кўп тарқалган, ҳар бир машғулотнинг маълум бир қисмида албатта адо этиладиган иш туридир. Бевосита гап тузишга доир топшириқлар эса ҳамма вақт ҳам учрайвермайди. Баён ва иншолар муайян вақт ораллиғида ўтказилади. Демак, мавзуга оид мисоллар айтиш асносида гап тузиш ҳар бир дарсда бажариладиган муҳим иш тури ҳисобланади. Айни шу машқлар ўқувчилар нутқ маданиятини шакллантириш борасида узлуксизлик ва узвийликни таъминлай олади, деб фараз қилиш мумкин. Бу нарса тўғри ҳамдир. Чунки бола ҳар бир дарсда мазмундор ва таъсирчан гап тузишни машқ қилиш имкониятига эга бўлади.

Нутқни ўстиришнинг самарали усулларида яна бири ўқилган матн ёки ўқитувчи ҳикоясини ўқувчиларга қайта ҳикоя қилиб бериш ёки уларни қайта гапиртиришдир.

Қайта ҳикоя қилдириш усули икки хил бўлиб, матнга яқин ҳикоя қилиш ёки ўз сўзлари билан ҳикоя қилишдан иборатдир. Ўқувчиларни дастлабки дарслардан бошлаб ўқиган ёки эшитган нарсаларини ўз сўзлари билан (тушуниб) қайта ҳикоя қилишга ўргатиш керак. Бунда танланган матнни куйидагича ўзлаштириш мумкин:

- а) матнни ўз номидан ҳикоя қилиб бериш;
- б) матнни иккинчи шахс номидан ҳикоя қилиш;
- в) матн ҳақида кўпчилик номидан гапириш кабилар.

Шунинг билан бирга ўқувчиларга дарс давомида оғзаки равишда матн туздирини мумкин.

Кўринадики, ўқувчиларнинг нутқини ўстиришда матндан фойдаланиш ва шу орқали уларни ҳар томонлама етук инсон қилиб тарбиялаш ҳозирги давр ўқитувчисининг муҳим вазифасидир. Бинобарин, она тили дарсларида ўқувчида ижодий тафаккурни ўстириш, мустақил фикрлаш малакаларини чуқурлаштириб, ижодий фикр маҳсулини нутқ шароитига мос равишда оғзаки ва ёзма шаклларда тўғри, раво ифодалаш кўникмасини шакллантириб, улар тузадиган матнлар ёки гаплар таъсирчанлигини ошириш, мазмундорлигига эришиш муҳим аҳамият касб этади.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси (она тили таълими мисолида). – Тошкент: Фан, 2009.
2. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.

**Худойназаров Эгамберган Мадрахимович,
Мавланова Чарос Эркинбай кизи
(Урганч, Узбекистан)**

**УЧЕБНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМЫ НАПРАВЛЕННЫЙ
ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО
УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

Аннотация: Данная статья посвящена процессу формирования профессионально-методической компетентности будущего учителя начальных классов. Одним из важнейших аспектов методической подготовки студентов к предстоящей профессионально-методической деятельности.

Ключевые слова: педагогическая инновация, профессионально-методическая компетентность, дифференциация.

Annotation: This article is devoted to the process of forming the professional and methodological competence of the future primary school teacher. One of the most important aspects of the methodological preparation of students for the upcoming professional and methodological activity.

Key words: pedagogical innovation, professional and methodological competence, differentiation.

До выхода на первую активную педагогическую практику, будущие учителя математики в соответствии с ГОС ВПО изучают вопросы общей методики обучения математике в начальных классах.

В соответствии со вторым требованием к проектированию технологии формирования профессионально-методической компетентности будущего учителя математики в начальных классах, процедура проектирования целей изучения курса «Методика обучения математике в начальных классах» включает 6 этапов:

1 этап: на основе анализа требований ГОС ВПО и других нормативных документов Министерства образования и науки Узбекистан к уровню подготовки студентов к моменту выхода на педагогическую практику определить виды учебно-методической деятельности будущих учителей математики на педагогической практике;

2 этап: перевести выделенные виды деятельности в набор учебно-методических компетенций;

3 этап: сформулировать компетенции в деятельностной форме по трем блокам;

4 этап: дифференцировать цели по уровням сформированности профессионально-методической компетентности;

5 этап: конкретизировать цели по разделам курса «Методика обучения математике в начальных классах», изучаемым перед выходом на практику;

6 этап: детализировать цели по отдельным темам этих разделов.

Требования к уровню подготовки будущего учителя математики, изложенные в ГОС ВПО и других нормативных документах Министерства

образования и науки Узбекистана, говорят о том, что в течение педагогической практики студент:

- применяет предметно-математические знания при разработке содержания уроков и внеклассных занятий по математике;

- анализирует, классифицирует, систематизирует методы, приемы и средства обучения, формы организации учебной деятельности учащихся, применяемые другими учителями при проведении уроков математики;

- анализирует и проектирует структурные компоненты уроков математики различных типов и внеклассных занятий учебного назначения;

- планирует и проводит уроки и внеклассные занятия по математике;

- организует общение с учащимися на занятиях и индивидуально, с целью коррекции знаний учащихся, углубленного изучения материала и т.п.;

- анализирует собственную педагогическую деятельность и деятельность других студентов;

- участвует в конференциях: вводных и итоговых, «круглых столах», индивидуальных консультациях, анализах и самоанализах уроков и прочее, организуемых учителями и методистами.

Из проведенного нами анализа подходов к выявлению видов профессионально-методической деятельности учителя математики следует, что на педагогической практике студент осуществляет следующие виды профессионально-методической деятельности: аналитическая, диагностическая, проектировочная, конструктивная, организационная, коммуникативная, рефлексивная; для них, в свою очередь, необходимы умения предметно математической и методической деятельности. Перечисленные виды деятельности определяют набор компетенций, которыми необходимо овладеть перед выходом на первую активную педагогическую практику:

1 группа - профессионально-методические знания:

а) предметно-математическая компетенция;

б) методическая;

2 группа — профессионально-методические умения:

в) аналитическая компетенция;

г) проектировочно-диагностическая компетенция;

д) конструктивная компетенция;

е) организационная компетенция;

3 группа — профессионально значимые качества личности.

ж) коммуникативная компетенция;

з) рефлексивная компетенция.

В соответствии с третьим требованием к проектированию технологии формирования профессионально-методической компетентности будущего учителя математики содержание курса «Методика обучения математике в начальных классах» представлено в виде учебно-методических задач, адекватных спроектированным на языке компетенций целям обучения, и приемов учебно-методической деятельности студентов для решения этих задач.

Как показано в теории учебной деятельности, учебные задачи предъявляются учащимся в виде учебных заданий. Ниже приводятся примеры

дифференцированных учебно-методических заданий. Отдельные учебно-методические задания, в соответствии с характеристикой уровневой дифференциации, сопровождаются указаниями, образцами выполнения или приемами решения.

Следует отметить также, что математический материал для составления учебно-методических заданий подбирался нами, исходя из содержания тем курса математики основной школы, которые, как правило, изучаются учащимися в период педагогической практики студентов 4 курса.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Епишева, О. Б. Технология обучения математике на основе деятельностного подхода [Текст]: Кн. для учителя / О.Б. Епишева. - М.: Просвещение, 2003.-223 с.
2. Слостенин, В. А. Методологическая культура учителя [Текст] / В. А. Слостенин. - М.: Просвещение, 2000. - 421 с.
3. Хуторской, А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования [Текст] / А. В. Хуторской // Народное образование. - 2003. - № 2. - С. 58-64.
4. Янсуфина, З. И. Совершенствование методической подготовки будущего учителя математики в педвузе на основе инновационных подходов к обучению [Текст]: дис...канд. пед. наук / З.И. Янсуфина. - Тобольск, 2003. - 159 с.

Худойназаров Эгамберган Мадрахимович, Қўчқорова Шакаржон
(Урганч, Узбекистан)

ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ЎҚУВ ФАОЛЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ МУҲИМ ОМИЛЛАР

Аннотация: Ушбу мақолада ўқувчиларнинг ўқув фаоллигини ривожлантиришга таъсир этувчи муҳим омиллар баён қилинган.

Калит сўзлар: Фаоллик, фаолият, микроомил, макроомил, мезоомил.

Аннотация: В данной статье рассматриваются важные факторы, влияющие на развитие учебной деятельности студентов.

Ключевые слова: активность, деятельность, микрофактор, макрофактор, мезофактор.

Abstract: this article discusses important factors that affect the development of students ' learning activities.

Key words: activ, activity, microfactor, macrofactor, mazafactor.

Педагогик жараёнлар самарадорлиги яъни таълим тарбия жараёнларни навтижавийлиги субъектларнинг шахсий ривожланиши ва тайёрлигининг давлат таълим стандартлари талабларига мувофиқ илк даражасини белгилайди. Таълим муассасаси фаолиятида вужудга келаётган педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш ва йўналишидаги муаммоларнинг кўп қирралилиги ва мураккаблилиги, нафақат педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқаришни сифат жиҳатдан ўзгартиришни назарда тутати, балки унинг мазмунини такомиллаштириш заруриятини ҳам белгилайди. Ўқувчиларнинг фаоллик, ўқув-билиш фаолияти, билиш эҳтиёжи каби ҳодисалар билан яқиндан боғлиқ бўлган ўқув-билиш фаоллигини ривожлантириш муаммоси ҳар доим психология, педагогика ва методик фанларнинг эътибор марказида турган.

Фаоллик тушунчаси педагогика, социология, психологияда учта бир хил эмас ҳодисани белгилаш учун кўриб чиқилади:

- индивиднинг муайян фаолияти билан белгиланадиган;

- сустреллик қарама-қарши ҳолат, бироқ бу долзарб фаолият бўлиши шарт эмас, баъзан эса фаолиятга тайёрлик, бу толерантлик, ҳушёрлик даражаси, бирор ҳаракатни амалга ошириш ёки мулоқот пайти билан боғлиқ ҳолат;

- ташаббускорлик, бу ҳолатда субъект ўз ташаббуси билан ҳаракат қилганлигини қайд этиш мумкин.

Фаоллик шахс учун мураккаб ва аҳамиятли ҳосила сифатида турли талқинларга эга. Педагогикада инсон фаоллиги муаммоси фаолиятнинг методологик назарияси доирасида яхши ўрганилган, бунда ўқитиш ва руҳий ривожлантириш, онг ва фаолият бирлиги мутаносибликларининг асосий тамойиллари белгиланган.

Хусусан, Л.С. Выготский [2], фаолликнинг умумий ва расмий аломатларидан келиб чиқиб, энергетик ва ички имкониятларни ўзаро таъсирга

ажратади, ушбу ўзаро таъсирнинг тезлиги ва изчиллиги, ўзаро таъсир жараёнида фойдаланиладиган воситалар ва усулларнинг турли-туманлиги ҳамда унинг суръатини очиб берувчи бошқа аломатларни ажратиб беради. У инсон фаолиятининг мазмунли ва натижавий жиҳатини ҳам ҳисобга олади. Кейинги тадқиқотларда ушбу тушунча қуйидагича талқин этилади: «Шахс фаоллиги – инсоннинг қобилияти бўлиб, мулоқотида намоён бўлади, оламда ижтимоий аҳамиятли ўзгаришларни амалга оширади».

Мактаб ўқувчисининг ўқув-билиш фаоллигини ривожлантиришга ёрдамлашувчи энг қизиқарли ўқув жараёнини ташкил этиш шакли «бир-бирини ички қабул қилишга асосланган мулоқот шакли»даги суҳбат ҳисобланади. Суқрот суҳбатлари, баҳслар, «математик беллашув» ўйинида «очиқ жойларни ёпиш» ўқувчиларнинг ўқув-билиш фаоллиги кучайтиришга яққол мисол бўлади.

Шерикларнинг нуқтаи назарлари нотўғри эканлигини ўз нуқтаи назарини исботлашга интилиши, суҳбатда ўқув-билиш фаоллигининг намоён бўлиш шартидир. Щербатов ва В.Б. Голицыннинг фикрига кўра ўқув-билиш фаоллигини шакллантириш шarti қуйидагилардан иборат:

- ўқув-билиш қизиқишларини ўз вақтида ва мувофиқ предметлаш, уларни болаларнинг барча фаолияти соҳаларида рағбатлантириш ва ривожлантириш;

- педагог томонидан психологик назария қоидаларини, энг мақбул шакллар ва услубларни танлаш;

- боланинг ўқув-билиш ва бошқа фаоллигининг шаклларини унинг шахсий хусусиятларига мувофиқлигини ҳисобга олиш.

Г. И. Щукинанинг [4] фикрига кўра эса:

- ўқувчиларнинг фаол фикрлаш фаолиятига максимал таяниш;

- ўқув жараёнини ўқувчиларни оптимал ривожланиш даражасида олиб бориш;

- ўқитишнинг ҳис-туйғу муҳити, ўқув жараёнининг ижобий ҳис-туйғу тонуси;

- ўқув жараёнидаги қулай мулоқот.

Ўқув-билиш фаоллиги турли шаклларда намоён бўлиши мумкин ва кўпинча айрим машқларни бажаришда акс этади. Агар машқ бўлмаса, у мустақил кашф этилади. Баъзан фаоллик саволлар шаклида намоён бўлади. Одатда ўқувчи ўз фикрларининг тасдиғини излайди. Фаолликнинг соддароқ шакли – фаолиятнинг вақтинча тўхталиши, танаффусдир. Ўқув-билиш фаоллиги тушуниладиган материал шаклига боғлиқ бўлади.

Мустақиллик, яқка тартибдаги ижодкорлик ва шу кабилар ҳам ўқув-билиш фаоллигининг намоён бўлиш шакллари ҳисобланади.

Ўқув-билиш фаоллигининг ривожланиш шакллари ҳаётий ёки лаборатория шароитидаги муаммоларни ҳал этиш шаклида амалга ошириладиган лаборатория ва амалиёт машғулоти ҳисобланади. Бунда ўқув-билиш фаоллиги жараёни амалий фикрлаш ва тадқиқ этиш сифатида ифодаланган. А. М. Матюшкиннинг [3] фикрича, «Ўқув-билиш фаоллигини ривожлантириш гуруҳлар фикрлаши вазиятида ташкил этилган дидактик суҳбат шароитида тарбиялаш сифатида амалга оширилади».

Мактаб ўқувчиларининг ўқув-билиш фаоллигини ривожлантиришга турли омиллар таъсир кўрсатади:

- макроомиллар (умумий): одамлар турмушининг ижтимоий-иқтисодий шартлари, маънавий маданият, оммавий ахборот воситалари ва тарғиботнинг таъсири;

- мезоомиллар (ўзига хос): минтақа иқтисодий, демографик ривожланишининг ўзига хосликлари; минтақадаги тадбиркорлик маданияти даражаси; оила ва бошқаларнинг маданий-таълим савияси; болалар ташкилотлари билан ҳамкорлик қилишга тайёр корхоналар, фирмаларнинг мавжудлиги;

- микроомиллар (якка): ўқувчиларнинг ёши билан боғлиқ омиллар; шахсий характер омиллари: мойилликлари, қобилиятлари, шахс сифатида қизиқишлари ва психофизик фазилатлари; ўқитувчининг илмий-назарий, услубий ва психологик-педагогик таёргарлиги ва унинг амалий-тезкор маҳоратга эгаллиги.

Охирги иккита омилларнинг ўқувчи ўқув-билиш фаоллигига таъсирини батафсилроқ кўриб чиқамиз.

А. В. Запорожец, А. В. Усова ва бошқаларнинг тадқиқотлари ўқув-билиш фаоллигини ривожлантириш, ўқувчининг шахсий фазилатлари, эҳтиёжлари ва мотивларига сезиларли таъсир кўрсатишини исботлайди.

Ўқитувчининг малакаси ҳам ўқувчининг ўқув-билиш фаоллигини ривожлантиришга таъсир этувчи муҳим омиллардан ҳисобланади.

Кўпгина тадқиқотчилар қайд этишича, ўқув-билиш фаоллиги педагогик ҳодиса сифатида – икки томонлама ўзаро боғланган жараён: бир томондан, бу ўқувчининг ўзи-ўзини ташкил этиши ва ўзи-ўзини намоён этиши; бошқа томондан - педагогнинг ўқувчи ўқув-билиш фаолиятини ташкил этишдаги алоҳида уринишлари натижасидир. Бунда шуни унутмаслик лозимки, педагог уринишларининг яқуний натижаси ўқувчининг махсус ташкил этилган фаоллигини унинг ўзиникига айлантирилишидан иборат.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Узвийлаштирилган Давлат таълим стандарти ва ўқув дастури, - Toshkent, 2010.
2. Выготский, Л. С. Собрание сочинений: В 6-ти т./ Гл. ред. А. В. Запорожец. – М.: Педагогика, 1982. Т. 4. Детская психология / Под. Ред. Д. Б. Эльконина. – 1984. – 432 с.
3. Матюшкин А. М. Психологическая структура, динамика и развитие познавательной активности // Вопросы психологии. - 1982. - № 4. - С. 5-17.
4. Щукина Г. И. Активизация познавательной деятельности учащихся в учебном процессе: Учебное пособие для пед. ин-тов. - М.: Просвещение, 1979. - 160 с.

SECTION: PHILOLOGY AND LINGUISTICS

Niyazmetova Shahlo Adamboyevna
(Urganch, O'zbekiston)

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TGAN KUNLAR” ROMANIDA TO‘Y MAROSIMI TAHLILI.

Annatsiya: *Ushbu maqolada buyuk o‘zbek adibi Abdulla Qodiriyning “Otgan kunlar” nomli romanida tasvirlangan to‘y marosimlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘z: *Abdulla Qodiriy, roman, to‘y, milliy urf-odatlar.*

Аннотация: *В этой статье анализируются свадебные церемонии, изображенные в книге великих узбекских писателей Абдуллы Кадыри “Прошлые дни”.*

Ключевые слова: *Абдуллы Кадыри, роман, свадьба, национальные обычаи.*

Annotation: *In this article analyzes the wedding ceremonies depicted in the book “Past days” by the great Uzbek writer Abdulla Kadyri*

Keyword: *Abdulla Kadyri, the novel, wedding, national customs.*

O‘tgan asr boshida yashab ijod etgan o‘zbek adabiyotida, jumladan, o‘zbek nasrida o‘ziga xos ijodiy prinsiplarga, nozik didga ega bo‘lgan yozuvchi Abdulla Qodiriy milliy badiiy tafakkur taraqqiyotida o‘zining bir qator asarlari bilan o‘chmas iz qoldirdi. Abdulla Qodiriy yaratgan asarlar haqida adabiyotshunoslarimiz tomonidan katta – kichik tadqiqotlar olib borilgan. Biroq adib ijodi o‘ziga xosligi, qamrovi kengligi, serqirraligi bilan hali ko‘pgina ilmiy ishlar, tadqiqotlar uchun asos bo‘la oladi. O‘zbek adabiyotida “O‘tkan kunlar” romani milliy ruh juda bo‘rtiq aks etganligi bilan ajralib turadi. O‘zbek xalqining go‘zal odobi, cheksiz andishasi, katta – kichik, uzoq – yaqin kishilarning o‘zaro muomala – munosabatlaridagi yuksak madaniyat, millat turmush yo‘sinidagi o‘xshashi yo‘q tartiblar yozuvchining san‘atkorligi tufayli jonli badiiy lavhalarda shu qadar mahorat bilan chizilganki, o‘quvchi bu xildagi tirikchilik yo‘rig‘iga ega xalq va uning yetuk vakillarini yaxshi ko‘rib qoladi. Romanda milliylik ifodasi – milliy urf - odatlar aks etgan manzaralar bor bo‘yi bilan namoyon bo‘lgan.

Romani o‘qigan kitobxon unda 2 ta to‘y tasvirini uchratishi mumkin. Birinchisi, Otabek va Kumushning Marg‘ilonda bo‘lib o‘tgan to‘yi tasviri bo‘lsa, ikkinchisi Otabek bilan Zaynabning Toshkentda bo‘lib o‘tgan to‘yidir. Marg‘ilon hududiga xos an‘analar bilan bayon etilgan birinchi to‘y tasviri to‘liq keltirilgan. Bu tasvir romanning I bo‘lim 10 – 11 – boblaridan, ya‘ni “To‘y, qizlar majlisi” va “Kutilmagan baxt” deb nomlanuvchi boblaridan joy olgan.

Ikkinchi to‘y, ya‘ni Toshkentda bo‘lib o‘tgan Otabek va Zaynablarning to‘yi haqida esa yozuvchi deyarli to‘xtalmagan. Biz bu to‘yning bo‘lib o‘tgan haqida II

bo'limning "Qovoq devonaning belbog'i" deb nomlanuvchi 3 – bobini o'qib bilishimiz mumkin. To'yning juda dabdabali va chiroyli o'tganligi Qovoq devona tilidan aytiladi.

Asardagi Otabek va Kumush to'yining muallif tomonidan nihoyatda nafis va jozibali tasvirlanganligini dastlabki jumalardayoq kuzatishimiz mumkin: *"Qutidorning tashqarisig'a er mehmonlar, ichkarisiga xotin mehmonlar to'lg'anlar, ular quyuq, suyuq oshlar, holva, nisholdalar bilan izzatlanadirlar. Tashqarida bir qo'sha sozandalar dutor, tanbur, g'ijjak, rubob, nay va amsoli sozlar bilan dunyoga jon suvi sepib shaharning mashhur hofizlari ashula aytadirlar. To'y juda ham ruhlik"*.

Yozuvchining *"To'y juda ham ruhlik"* degan jumlasini, bizningcha, juda mahorat bilan aytilgan. Ushbu jumlaning zamirida xalqimizga xos marosim juda chiroyli tasvirlangan. O'zbek to'ylarida erkaklar va ayollar alohida ziyofatda o'tirishlari, ularga suyuq va quyuq oshlar, holva, nisholdalar tortilishi va, albatta, sozanda va hofizlarning *"dunyoga jon suvi sepib"* kuylashlarida millatimizga xos qadriyatlarning asrlar osha qadrlanib kelinayotganini kuzatamiz.

Xalqimizda *"Kerilganning uyiga bor, maqtanganning to'yiga bor"* degan maqol bor. Mirzakarim Qutidor o'z davrining martabali, obro' – e'tiborga ega kishisi bo'lsa – da, o'quvchi uning to'yida ortiqcha dabdaba va hashamni kuzatmaydi.

Qodiriy to'yning ichkari hovli, ya'ni xotinlar bo'limini eng kichik elementlarigacha e'tibor berib tasvirlaydi. Bunda bir ayolning bolasini ovutayotganini o'qiganda o'zbek xalqining bolajonligi, ayollarning *"qum – tuproqdek ko'p"*ligi fonida millatimizning bir – biriga mehr – oqibatligi, shuningdek, xursandchilikni baham ko'rishi kabi aniq xislatlarini namoyon bo'lganligini tasavvur etamiz.

Shu o'rinda muallif Kumushning onasi qizini uzatayotganidan ko'ngli og'rinayotganligini, ichiga chiroq yoqsa ham yorishmaydigan bir holatda ekanligini tasvirlaydi. Axir necha yillar oq yuvib, oq tarab katta qilgan qizi bugun begona dargohga kelin bo'lib ketmoqda. Onai zor uchun bu kun ham quvonchli, ham qayg'uli va og'ir kun bo'ladi: *"Oftob oyim qayg'uliroq, tusi bir oz siniqqansumon... mehmon kutib charchag'anidanmi, nimadan bo'lsa ham juda kalavlagan, ba'zan qiladiring'an ishidan ham yanglishib ketkani, masalan, uyga kirmakchi bo'lib tavanxonaga kirib qolg'ani ko'riladir. To'yga kelgan xotirlarning "To'ylar muborak, kuyav o'g'ul muborak!" deb so'rashlarig'a ham ishonchsiz bir ohangda "Qutlug' bo'lsin", deydir"*.

Kumushbibi tog'asining hovlisida bo'layotgan qizlar majlisi ham alohida e'tibor bilan kichik detallarigacha tasvirlangan. Ayniqsa bazmga kelgan qizlar o'ziga mehmon bilan tasvirlangan: *"Bu uyga o'ttiz-qirq chamalik qizlar yig'ilg'anlar, yig'ilishdan maqsad: qizlar o'zlarining eng latif, eng go'zal bir azolarini bu kun xotinlik, olamiga uzatmoqchidirlar. Bu uzatish majlisini jonlik, ruhlik o'tkazmak uchun barcha qizlar o'zlarining eng asil, eng nafis kiyimlarini kiyib, favqullotda yasanib, xusn olamini yana bir qat, yana bir qayta bejabdirlar. Agar bu uyga kirib, bu majlis azolarini bir martaba ko'zdan kechirsangiz, hozirdanoq aytib qo'yish mumkinki, albatta esingiz chiqib ketar: Bu gulmi, ko'hlik? Yo'q narigisi! Undan ko'ra bunisi! Barisidan ham o'ttasi!.. Ana shunday qilib esdan ham ajrarsiz, gul tanlashda bir qarorg'a kelamay el ichida kulgiga ham qolursiz, rasvo ham bo'lursiz"*.

Ushbu majlis ishtirokchilari bugun qizlik olamidan xotinlik olamiga o'tayotgan Kumushni so'nggi bor qizlarcha beg'uborlik bilan o'yin-kulgilar qilib, kuzatmoqdalar. Qodiriy qizlar majlisini tasvirlar ekan, bunda o'zbek qizlarining go'zalligi zamirida

ularning hayosi, ibosi, sho'xligi, shaddodligi, qaqajonligi yotishini ta'kidlamochiday bo'ladi.

Qizlar majlisi tugagach, yangalar kelin Kumushbibini olib ketadilar. Abdulla Qodiriy o'zbek qizlarining ibo-yu hayosini Kumushbibi obraziga jamlagani, ayniqsa, vakolat olish lavhalarida bo'rtib ko'rinadi: *"Kumushbibidan vakolat olish ham juda qiyin bo'ldi. Domlaning: Sizkim Kumushbibi Mirzakarim qizi, o'zingizni toshkandlik, musulmon Otabek Yusufbek hoji o'g'liga bag'ishlamoq vakolatini amakingiz Muhammadrahim Yo'ldosh o'g'liga topshirdingizmi? Degan so'rog'i olti, yetti qaytarilg'andan keyin, shunda ham yangalar qistog'i ostida arang uning rizolig'i olindi"*.

To'y ahli kechki soat beshlarda kuyovni to'rt ko'z bilan kutadi. Kuyov uchun palovlar, turli noz – ne'matlar, quyuq – suyuq oshlar hozirlanadi. Besh yarimlarga yaqin 20 – 30 yosh yigitlar hamrohligida kuyov ham kirib keladi. Shu o'rinda Qodiriy kuyov bo'lmish Otabekning portretini to'liq tasvirla beradi: *"...boshida simobi shohi salla, ustidan qora movut sirilgan sovsar po'stin, ichida o'zining Shamayda tiktirgani osmoni rang movut kamzul, movut shim: oyog'ida qalapoy afzali, belida Kumushbibining usta qo'li bilan tikilgan shohi qiyig'... Yuzlar qizil, og'iz irpaygan, ko'zlar o'ynab allakimni qidiradi"*.

Yoriga yetishishga shoshilayotgan oshiq quvonchi ichiga sig'maydi, odamlar orasidan yorini qidirmoqda. Kuyovni bir ko'rish niyatida kutib o'tirgan qarindosh – urug'lar esa uni ko'rgach *"Tuzuk – tuzuk, kuyavlikka arzigunde, chakki chakkiga tushmapti, olma-yu anor"* deyishadi va kelin bilan kuyovning bir– biriga munosib tushganliklarini maqtab duo qilishadi. Tomdan kuyovni tomosha qilib o'tirgan xotinlar ham unga havas bilan qarashadi. Qutidor ham yer ostidan kuyoviga qarab, bildirmay jilmayib qo'yadi. Kuyov tomonidan kelganlar quyuq – suyuq oshlar bilan mehmon

qilingandan so'ng qiz va yigitning vakillari o'zaro mahr masalasini hal qiladilar. Milliy urflarimizdan yana biri bo'lgan qizga kuyov tomonidan qalin puli berish odatini ham yozuvchi romanda aks ettiradi. Mahr, ya'ni qalin puli nikoh vaqtida kuyov tomonidan kelinga ajratiladigan doimiy va shaxsiy mulk hisoblanadi. Mahr tortishuvida kelinning vakili ko'proq narsa undirishga harakat qilsa, kuyovning vakili kuyov foydasini ko'zlab, kamroq narsa berdirishga harakat qiladi. Ko'p tortishishlardan keyin Kumushbibi uchun quyidagilar beriladigan bo'ldi:

*"... uch yuz oltin pul, mundan keyin olib berish va'dasi bilan. Marg'ilondan o'radek bir havli, sog'ish uchun sigir, asbobi ro'zgor..."*⁴¹. Qalin puliga Otabekning ham roziligi olingach domla xutba boshlaydi. Forscha o'qilgan hamd, salovot va boshqalardan keyin xutba eng nozik va qiziqarli joyiga keladi. Kuyov va kelinning nikohga roziligi olinishi kerak bo'ladi. Domla, dastavval, kuyovdan so'raydi: *"Sizkim Otabek Yusufbek hoji o'g'li Kumushbibi Mirzakarim qizini o'zingizga shar'iy xotiniqliqqa qabul qilasizmi? – fors tilida so'ralg'an bu savol Otabekning kulgusini qistadi"*.

Otabek birinchi so'rashdayoq rozilik bermoqchi bo'ladi-yu, yana uyali jim turadi. Odatda kuyovlar uchinchi so'rashda javob berishi odat bo'lsa ham Otabek ortiqcha takallufga joy qoldirmay ikkinchi so'rashdayoq rozilik beradi. Chunki uchinchi martada "Endi olmas ekansiz Kumushbibini..." deyishadigandek tuyuladi unga.

Nikoh ishi saranjom bo'lgandan keyin hamma qo'l ochib, kelin bilan kuyov haqiga duo o'qiladi. Shundan keyin nikoh majlisi yopiladi. Yigitlar kuyovni mehmonxonaga boshlab kiradilar. Endi to'yning ziyofat qismi boshlanadi. Bir – ikki soat davom etgan *“tomoq majlisi”* Otabekning xayolida bir necha yillardek tuyuladi. Nihoyat, yangalar kelib kuyovni so'ragach fотиha o'qilib dasturxon yig'ishtiriladi va barcha ikki yoshga muhabbatli umr tilashadi.

Hasanali Otabekni otalik mehri bilan quchoqlab tabriklaydi va yangalar kutib turgan tomonga kuzatadi. Otabek hayajon ichida bo'lib o'tayotgan ishlarning tushi yoki o'ngi ekanligiga ishonmaydi.

Qutidor ichkari hovlisining kiraverishidan boshlab to Kumushbibining uyigacha xotinlar-u bolalar qator turib kuyovni kutib olishadi. Otabek asta – asta qadamlar bilan, hayajondan ikki yuzi lov – lov yonib yurib keladi. Uyatdan qochishga joy topolmay, boshini egib boradi.

Ichkarida Kumushbibi tinmay yig'laydi. Yangasi qanchalar ovutsa ham gapiga quloq solmay yig'laydi. Tashqaridan *“kuyov, kuyov”* so'zlari eshiltigach Kumushbibi battar yig'lab, ranglari ham o'zgarib ketadi. Yangasi Kumushni shu holicha tashlab eshikka, kuyovga peshvoz chiqadi. Otabekning hayajonlanganidan yuragi tez – tez ura boshlaydi. Ichkariga kirganidan keyin uy to'rida yonini Otabekga berib, ro'molini tugib o'tirgan Kumushbibini ko'radi.

Qodiriy ikki yoshning visol onlarini shunchalar nafis va samimiy bayon etadiki, uni o'qigan kitobxon beixtiyor ularga katta havas bilan shu misralarni qayta – qayta o'qiydi:

“Ro'ymol tugish bilan mashg'ul latif qo'llarni chet qo'l kelib siqdi: - Jonim!

Kumushbibi begona qo'ldan seskandi va qo'llarini qutqazmoqqa tirishib: - Ushlamangiz, - dedi ham siquvchi qo'ldan qutilish uchun orqag'a tislandi. Titrag'an va qovjirag'an bir tovushda:

- Nega qochasiz? Nega qaramaysiz? – dedi bek”.

Kumushbibi shu paytgacha kuyovni dushmani deb bilgan va qarashni ham xohlamagan edi. Majburiyat yuzasidan yov qarash bilan sekingina, yer ostidan Otabekga qaraydi. Qaraydi-yu, shu qarashda qotib qoladi. Beixtiyor Otabek tomon yurib: *“ – Siz o'shami?”*, deya esankiragan va hayajonlangan tovushda so'raydi.

“ – Men o'sha”, deb javob beradi Otabek.

Kumushbibi og'ir tin olib Otabekning yuziga uzoq tikiladi-da: *“ – Kutilmagan bir baxt”,* deydi va quvonch bilan kuladi. Bu kulgi hovligacha eshitaladi. Shundan keyin qiya ichiq turgan eshik ham qattiq yopiladi va ikki sevishgan qalblar tanho qoldiriladi. Shu bilan to'y ham tarqaydi.

Xullas, *“O'tkan kunlar”* romanidagi to'y-marosimini tasvirlash bilan Qodiriy millatimizning o'ziga xos fazilatlarini yoritib bergan. Bu hol romanning ta'sir kuchini oshiradi, tarixiy vaziyat, ijtimoiy muhit va o'sha davr odamlarini konkret tasavvur qilish imkonini beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Qodiriy. O'tgan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2007.

Razzoqova Sunbul Sheramat qizi
Urganch davlat universiteti
(Urganch, O'zbekiston)

FALERONIM ATAMASI VA UNING O'RGANILISH TARIXI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada faleronim atamasi va uning o'rganilish tarixi haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *onomastik birlik, falera, faleronim, orden, medal, ko'krak nishon.*

Аннотация: *В этой статье речь идёт о фалеронимических терминах и истории их преподавания.*

Ключевые слова: *onomasticheskie единицы, фалера, фалероним, orden, медаль, нагрудной знак.*

Abstract: *This article talks about the term phalera, and about the studies of its discovery.*

Key words: *onomastik unit, phalera, phaleronim, order, medal, breastplate.*

O'zbek tilining onomastik tizimi miqdoran g'oyatda ko'pqirrali, hajman ulkandir. Alohida mualliflarning tadqiqotlari, ilmiy to'plamlar va ilmiy konferensiyalar materiallarida onomastik birliklarning ellikka yaqin turi keltirilgan. Tadqiqotlarda tilga olinadigan, ammo alohida tadqiqot obyekti bo'lmagan onomastik birliklarga dokumentonim, xrononim, xremotonim qatorida faleronim ham kiritilgan.

Dastlab "faleronim" atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu so'z lotincha phalera—"mard, jasur legionerlar ko'krak nishoni" va onoma—"nom" so'zlaridan tarkib topgan.

"Falera" so'zi harbiy nishon sifatida antik adabiyotda uchraydi. XIX asrning 2-yarmi XX asrning boshlarida bir qator tadqiqotchilar, ayniqsa Germaniya olimlarining sa'y harakatlari tufayli falera atamasiga qadimiy Rim ko'krak nishoni sifatida qarashlar paydo bo'lgan. Xorijiy ensiklopedik lug'atlarda va bir qator axborot nashrlarida falera mukofot atamasining muqobili sifatida tilga olinadi. Bazi G'arb tilshunoslarining ayrim tadqiqotlarida falera atamasi xuddi shu ma'noda uchraydi. Jumladan, 1888-yilda Sankt-Peterburgda nemis tilidan rus tiliga tarjima qilingan. F. R. Lyubkerning "Klassik qadim zamonlarning haqiqiy lug'ati"da falera atamasi mukofot ma'nosini anglatgan. Yuqoridagi ikkala holatda ham hozirgi faleronimlarning ajdodlari to'g'risidagi ma'lumotlar ancha kam. Chunki faleralar to'g'risida "qadimgi Rimda harbiy ko'krak nishon bo'lib xizmat qilgan metall, tosh yoki shishali bezak" degan tushuncha doirasidan chetga chiqilmagan.

Faleristika atamasini ilk bor 1937-yida chex kolleksioneri va mukofotlar bo'yicha tadqiqotchi Oldrjix Pilts muomalaga kiritgan. Biroq shu davrdagi Chexoslovakiyadagi tarixiy shart-sharoit bu atamaning ilmiy tarixiy leksikada mustahkamlanishiga imkon bermagan. Keyinchalik o'tgan asrning 50-60-yillarida ushbu atama juda keng tarqaldi. Xususan, Kurt Kleytman rahbarligida G'arbiy Berlindagi Ordenshunoslik ilmiy instituti nashri hisoblangan "Ordenshunoslik" jurnali, fransus tilidagi "Orden va ko'krak nishonlar kolleksionerlari uchun Yevropa jurnali"

ta'sis etidi. Nihoyat 1973-yilda A. V. Superanskaya "Atoqli otlarning umumiy nazariyasi "asarida faleronim so'zini onomastik termin sifatida qo'lladi. Superanskayaning fikricha, faleristika-bu tarixiy fanlarning yosh sohasi bo'lib, orden, medal, ko'krak nishonlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Superanskaya Rossiyada ordenga nisbatan medal ancha oldin paydo bo'lgani haqida yozadi. Dastlabki medal sifatida Ivan Grozniy davridagi "Zolotaya grivna" "Oltin halqa" medalini, dastlabki orden sifatida esa Pyotr I tomonidan ta'sis etilgan "Andrey Pervozvanniy" ordenini qayd qilib o'tadi. Keyinchalik 1988-yilda rus tilshunosi N. V. Podolskaya "Rus onomastik terminologiyasi lug'ati"da faleronimlar tarkibiga orden, medal, ko'krak nishoni bilan birga, Superanskayadan farqli ravishda, unvon va turli mukofotlarning nomlarini ham kiritadi.

2000-yilga kelib, nemis olimi Volodimir Kamianets "Nemis tilida atoqli otlarning turlarga bo'linishi" deb nomlangan maqolasida faleronim atamasiga to'xtalib, Superanskaya va Podolskayadan farqli ravishda, orden, medal, mukofotlar qatorida "propria" ya'ni diniy unvon nomlarini ham uning tarkibiga kiritadi.

2011-yilda filologiya fanlar doktori, professor N. M. Uluqov "Faleronimlar xususida" maqolasi bilan ilk bora o'zbek onomastikasida faleronimlarni tadqiq qildi. U ilmiy maqolasida faleronimlarni qo'llanish doirasiga ko'ra ikki guruhga ajratdi:

1. Xalqaro miqyosdagi faleronimlar (Nobel mukofoti, Olimpiada oltin medali)
2. Ma'lum davlat miqyosidagi faleronimlar ("Amir Temur" ordeni, "Shuhrat" medali)

Faleronimlarni shakli va turiga ko'ra esa beshta guruhga ajratdi:

1. Davlatning oliy mukofotlari;
2. Orden nomlari;
3. Medal nomlari;
4. Faxriy unvon nomlari;
5. Esdalik va ko'krak nishon nomlari.

2016-yilda esa qozoq tilshunosi filologiya fanlari nomzodi, dotsent M. Qo'januli "Qozoq onomastikasidagi faleronimlar" to'g'risidagi maqolasida birinchi marta qozoq tilidagi faleronimlarni tadqiq qildi va faleronimik terminlar qatoriga ramzlar va emblemalarni ham kiritdi. U o'z maqolasida Qozoqiston Respublikasida ta'sis etilgan orden, medal nomlariga to'xtalib, asosan, universitet emblemalari nomlarini sharhlab o'tgan.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat mukofotlari to'g'risida" qonunining yangi tahriri 2018-yil 11-aprelda tasdiqlangan. Qonunda mustaqillikdan keyin ta'sis etilgan 34ta faxriy unvon, 11ta orden, 5ta medallarning nomi keltirilgan. Shu bilan birga, hozirda yurtimizda 30ga yaqin esdalik va ko'krak nishonlari nomlari mavjud.

Demak, o'zbek tilidagi faleronimlar O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlarining nomlaridir. O'zbek xalqining shonli tarixi, insonlarning fidoyiligi, jasorati va buyuk xizmatlarini e'zozlashni, qadrlashni o'zida ifoda etuvchi faleronimlarni o'rganish o'zbek tilining teran ildizlarini chuqurroq anglab yetishimiz uchun bir manba bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Подольская Н. В. Словар русской ономастической терминологии. М., 1988. Б. 140.
2. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. М., 1973. Б. 204.
3. Uluqov N. M. Faleronimlar xususida. O'zbek tili va adabiyoti. 2011. №5. - B. 79-82.
4. Kamianets V. Zur Einteilung der deutschen eigennamen. Iwan-Franko-Universitat. 2000. B. 52-53.
5. Kojanuli M. Kazak onomastikasindag'i faleronim bag'itiiy turali birer so'z. Tiltanim. 2016. B. 16-17.

Ruzimatova Gulzoda Sharipovna
Urganch davlat universiteti
(Urganch, O'zbekiston)

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ OG`ZAKI IJODINI
O`RGATISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda xalq og`zaki ijodini o`rgatishning o`ziga xos xususiyatlari haqida so`z yuritilgan.*

Kalit so`zlar: *folklor, janr, maqol, topishmoq, ertak, doston.*

Аннотация: *В этой статье говорится о фольклорных произведениях в начальных классах.*

Ключевые слова: *фольклор, жанр, поговорка, пословица, сказка, дастан.*

Abstract: *The article presents the peculiar characteristics of teaching folklore works in primary schools.*

Key words: *folklore, genre, proverb, riddle, fairytale, epik, poem.*

Xalq og`zaki ijodini o`rganish – xalq tarixi, urf-odati, an`analari, o`y-kechinmalari, buguni va kelajagini tadqiq etish demakdir. Xalq badiiy tafakkuri bo`lmish og`zaki ijod namunalari o`qish, tinglash, anglash va ularni qayta kashf etish kishiga hayotni tushunish, odam va olam munosabatlarini o`rganishga yordam beradi. Shu ma`noda o`zbek xalq og`zaki ijodining tur va janrlarini o`rganish, ular ustida ishlash va ularning turli davrlarda turli ijtimoiy vazifani bajarishini o`rganish metodikaning dolzarb muammolaridan biridir. Shunday ekan, boshlang'ich ta`limda yosh avlodni xalq og`zaki ijodi asarlari bilan tanishtirish, shu jarayonda adabiyotning badiiy-estetik ta`siri asosida ularda o`zlikni anglash, go`zallikni his qilish, yuksak did va ma`naviyatni shakllantirish katta axloqiy- tarbiyaviy vazifani ado etadi. Bu jarayon nihoyatda mas`uliyatli bo`lib, ularni zamon talablari darajasida tashkil etgandagina muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Boshlang'ich ta`lim yoshidagi bolalar tinglaydigan, o`qib o`rganadigan asarlarning katta ko`pchiligini maqol, ertak, topishmoq, tez aytish, qo`shiq kabi xalq og`zaki ijodi asarlari tashkil etadi. Bularning hammasi bola shaxsining shakllanishiga yordam beradi. Har bir maqol yoki ertak xalq pedagogikasi namunasi sifatida bolalarni turmush tajribalari bilan tanishtiradi. Ularga axloqiy fazilatlarni singdiradi. Tez aytishlar bolalar folkloriga nisbatan keyin qo`shilgan janr hisoblansa-da, (bu janr kattalar folkloridan bolalar folkloriga o`tgan) ularning ta`lim-tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kattadir. Chunki tez aytishlar bolalar nutqidagi ayrim tovushlarni buzib talaffuz etish hollarini tuzatishga, to`g`ri so`zlaydigan bolalarda esa, adabiy talaffuz me`yorlarini mustahkamlashga, nihoyat, jumalardagi mantiqiy urg`uni topib so`zlashlariga yordam beradi.

Maqol va topishmoqning muhim pedagogik xususiyati shundaki, ular qisqa vaqt ichida bolalarga ruhiy hordiq beradi. Bola topishmoqda aytilgan belgilarni turli predmetlarning belgilariga bog`lab ko`radi yoki taxmin qilgan predmetlarning belgilarini aytilgan predmet belgilariga taqqoslaydi, so`ng bu haqda hukm chiqaradi.

Bolada yuzaga kelgan bu psixologik holatlar bola tafakkurini tarbiyalaydi, tasavvurini reallashtiradi, bolaning soʻz boyligini oshiradi, bolani kuzatuvchanlikka oʻrgatadi.

Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilar “Oʻqish va nutq oʻstirish” dasturi asosida tuzilgan “Oʻqish kitobi” darsliklari orqali koʻplab xalq ogʻzaki ijodi asarlaridan namunalar bilan tanishadilar. Bu asarlarni oʻqib-oʻrganish uchun boshlangʻich sinf oʻquv dasturida muayyan vaqt ajratib koʻrsatilgan boʻladi. 1-sinfdan tortib 4-sinfgacha “Oʻqish kitobi” darsliklarida xalq ogʻzaki ijodi alohida boʻlim sifatida koʻrsatilgan va ularni oʻrganish uchun muayyan soatlar belgilangan. Bu esa oʻz navbatida bolalarning adabiyot nazariyasi bilan amaliy ravishda tanishib borishlariga imkoniyat yaratadi. Bu esa oʻz navbatida yozma adabiyot materiallarini osonlik bilan oʻzlashtirishlariga keng yoʻl ochadi.

Boshlangʻich sinflarda folklor janrlarini, jumladan, ertak, afsona, rivoyat, doston kabilarni oʻqitishda oʻqituvchilar oldiga quyidagicha talablarni qoʻyiladi:

1. matnlar asosida oʻquvchilarda yaxshi oʻqish sifatlarini hosil qilish;
2. oʻquvchilarning matn mazmunini toʻla tushunishlariga erishish;
3. qahramonlarni taqqoslash va baholash, bir-biridan farqlay bilishga oʻrgatish;

4. oʻquvchilarni voqea-hodisalarni, hayotiy faktlarni, fantaziyani toʻgʻri tushunishga oʻrgatish;

5. oʻquvchilarning estetik zavq olishlariga erishish;

6. qiyin soʻzlarning toʻgʻri tushunilishini taʼminlash;

7. qahramonlarning axloqiy sifatlarini tahlil qilish orqali maʼlum xulosa chiqarishlariga erishish; asar gʻoyasini aniqlash, asarni hayotni bilish manbayi sifatida baholash.

8. oʻquvchilarning matnni toʻliq holda aytib berishlariga erishish.

Boshlangʻich sinflarda u yoki bu janrni oʻrganish maqsad qilib olinar ekan, uning barcha qirralari va jihatlarini qamrab olish imkoniyati cheklangan. Jumladan, kichik maktab yoshida doston janrini oʻrganishdagi afzallik va qiyinchiliklarni quyidagicha qiyoslash mumkin:

afzalliklar	qiyinchiklar
<p>1. Kichik maktab yoshida doston janrini oʻrganish maʼnaviy- ahlo-qiy tarbiya shakllanishida yordam beradi;</p> <p>2. Xalq dostonlarini oʻrganish orqali xalq va millatga iftixor tuygʻusi shakllanadi.</p> <p>3. Xalq dostonlari qiziqarli syujetga ega.</p> <p>4. Doston matni tahlil qilinsa, oʻquvchilar faolligi ortadi, chunki tahlil qilish ular uchun ijodiy jarayondir.</p> <p>5. Xalq dostonlarini oʻrganish bolalar kitobxonligiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.</p>	<p>1. Xalq dostonlari hajman katta boʻlgani uchun kichik kitobxon-ning matnni yaxlit idrok etish imkoniyati yoʻq;</p> <p>2. Darslikda dostonlardan parchalarni toʻgʻri tanlay olmaslik hollarlari mavjud.</p> <p>3. Xalq dostonlari murakkab syujet chizigʻiga ega.</p> <p>4. Obrazlarning muhim xususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni taqqoslash va baho-lash, asar gʻoyasini aniqlash im-koniyati chegaralangan.</p> <p>5. Kitobxonning yoshi bilan bogʻliq jihatlar.</p>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Madaev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so'z», 2010.
2. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T., 2008.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. - T.: O'qituvchi, 2011.

**Tilavova Munavvara Durdiyevna, Madraximova Dinora Ismoil qizi
(Urganch, O'zbekiston)**

MUTAFAKKIR VA SHOIRLAR MEHNAT VA MEHNAT TARBIIYASI HAQIDA

Annotatsiya. *Maqolada mutafakkir va shoirlar mehnat va mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari, ularning barkamol avlodni shakllantirishdagi ahamiyati asarlari orqali to'liq ifodalab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Mehnat, tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat, barkamol avlod, mutafakkir.*

Аннотация. *В статье излагаются идеи, выдвинутые в произведениях мыслителей и поэтов о труде, трудовом воспитании и их роль в формировании гармоничного поколения.*

Ключевые слова: *Труд, воспитание, духовность, просвещение, гармоничное поколение, мыслитель.*

Annotation. *The works of the thinkers and poets about labor and labor education, their role in shaping a harmoniously developed generation are fully described in the article*

Key words: *Labor, education, spirituality, enlightenment, harmonious generation, thinker*

Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalariidan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lashi masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari- topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarur ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto», Kaykovusning «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Minerologiya», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalariidagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlarida o'z aksini topgan.

Mana shunday ertaklardan biri «Aql va boylik» ertagidir. Bunda chol to'rt o'g'liga qarata «Kim aqli va davlatmand bo'lsa, o'sha oila boshlig'i bo'lib qoladi», degan so'zlariga o'g'illaridan biri zumrad ko'zli oltin uzugi, ikkinchisi zarbof choponini, uchinchisi esa qimmatbaho kamarini ko'rsatadi.

Kenja o'g'il esa otasining savoliga «Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqli boshim bor», - deydi va otasi uni oila boshlig'i qilib, uy-ro'zg'orini meros qoldiradi.

Ko'rinib turibdiki, xalq bu ertak vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa mehnat degan g'oyani ilgari surgan.

Faqat ertaklarda emas, xalq maqollarida ham mehnatsevarlik, mehnatda hamkorlik, mehnatning insonni baxtli-saodatli qilishi ifodalangan. Maslan: Mehnat, mehnatning tagi rohat. Daryo suvini bahor toshirar,

Mehnatdan kelsa boylik, Inson qadrini mehnat oshirar.
Turmush bo'lar chiroylik.

Oltin o'tda bilinar, Mehnatda do'st ortar,
Odam mehnatda. G'iybatdan dushman.

Mehnat bilan topganing,
Qand-u asal totganing
kabi maqollar shular jumlasidandir.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida esa shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, olimlar, tabiblar va boshqalar haqida so'zlab, ularning jamiyat hayotidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi sifatida ta'riflaydi.

Masalan, alloma dehqonlar haqida:
...Qalug' tebranurka bulardan aso'g',
Tuzuk tegir ye ichimdan tato'g'.

(Hamma qimirlagan jonga bulardan manfaat (bo'ladi)),
Hammasiga yeyim (va) ichimdan halovat yetadi).

deb dehqonlar mehnatini ulug'lash bilan birga, hunarmandlar haqida ham «juda zarur kishilardir... temirchi, tikuvchi, etikdo'z, suvchi, egarchi, toshchi, o'qchi, kamonchilarning foydasi katta. Ularni sanay berib ko'zim uzayib ketdi... Bu dunyoga ular yaxshilik keltiradilar, Ular juda ko'p ajoyib narsalarni ishlaydilar», - deb o'zining xayrixohligini bayon etadi va hukmron doiralarga mehnatkashlar bilan munosabatda bo'lish shartlari xususida o'z tavsiyalarini bayon qiladi.

Dehqonlarga nisbatan:
Bularga qatilg'il, qarilg'il o'zun
Tilin yo'qshi so'zla, achuq tut yuzun.
(O'zing bular bilan aralashgin, qo'shilgin,
Tilda yaxshi so'zla, yuzingni ochiq tut).

Hunarmandlarga nisbatan:
Keraklik kishilar yema bu sena,
Yo'qo'n tut bularo'g' tosulg'ay tona.
(Bular ham senga kerakli kishilardir,
Bularni yaqin tut, foydasi tegadi (ey) bahodir).

Chorvadorlarni ham haqiqiy mehnatkash inson sifatida ulug'lab:
Qato'lg'il, qaro'lg'o'l, yetur ham ichur,
Ko'nchilik uzala tirig'lik kechur.
Neku qulsa bergil, kerek bo'lsa al,

Ko'ni ko'rdim ushbu qutu bilmas al.
(Aralashgin, qo'shilgin, yedir ham ichir,
To'g'rilik ichra tirikchilik kechir.
Nima so'rasa bergil, kerak bo'lsa ol
Chindan ko'rdim ushbu odamlar
Hiyla-nayrangni bilmaydi(lar).

Yusuf Xos Hojibning mehnat ahli haqidagi bu fikrlari haqiqatan ham ularga nisbatan hurmat va ehtiromni anglatadi. Yusuf Xos Hojibning mehnat tarbiyasiga oid ijobiy qarashlari tarbiyaviy jihatdan diqqatga sazovordir.

XV asarning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning mehnatkash insonni ulug'lovchi, mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari «Hayratul abrор», «Farhod va Shirin», «Mahbub-ul qulub» asarlarida keng o'rin tutadi.

Alisher Navoiy haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlardan biri mehnatsevarlik deb ko'rsatadi. U «Hayrat-ul abrор»ning beshinchi maqolatida kishilarning saxovatiga ko'z tikishdan ko'ra o'z qo'li bilan hayot kechirish ulug'roq va oliyanobroq ekanligini «Hotam Toyi» hikoyatida keltiradi.

Hotam Toyi bir kuni qo'y-qo'zilar so'ydirib, xalqqa katta ziyofat beradi. So'ng biroz dam olish uchun dalaga chiqadi. Unga yelkasida o'tin ko'tarib kelayotgan bir chol uchraydi. Hotam Toyi unga «Dashtda yurib bexabar qolgandirsan, tashla bu og'ir yukni, Hotam uyiga borib ziyofatda izzat ko'rgil», - deydi. Shunda chol kulib: «Ey, oyog'iga hirs band solgan, g'ayrat vodiysiga qadam urmagan kishi, sen ham bu tikan mehnatini chekkin va Hotamning minnatidan qutulgin», - deb javob qiladi.

Hotam Toyi cholning bu so'zlariga tan beradi va halol mehnat bilan kun kechirishi uning himmatidan baland ekanligini anglaydi.

Alisher Navoiy mehnatning insonni go'zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir.

Farhod Armaniston o'lkasiga qadam qo'yganda, o'z yurtida Qorandan o'rgangan tosh yo'nish hunarini ishlatib, og'ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O'z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og'ir mehnatini yengillashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo'ladi.

Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o'z dostonining ikkinchi nomini «Mehnatnoma» deb ataydi.

Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida esa turli ijtimoiy guruhlarning hayotidagi o'rnini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko'rsatadi. Dehqonlar to'g'risida fikr yuritar ekan, «Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar... Olam ma'murlig'i alardin va olam ahli masrurlig'i alardin. Har qayonki, qilsalar harakat, elga ham qut yetkurur, ham barakat», - deb dehqonlarni, ya'ni, mehnatkash insonlarni ulug'laydi. SHu bilan birga shoir bu asarida tekinxo'rlarni, nojo'ya ish tutuvchi kishilarni, ochko'z va ta'magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi.

Pedagog-shoir H. H. Niyoziy esa maktab yoshlarni ilmi, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o'rgatishi kerak, - deb ta'kidlagan ekan, yoshlar ma'naviy

fazilatlarining shakllanishida mehnatning rolini yuqori baholaydi. She'rlarida bolalarni ota-onalarining mehnati qadriga yetishga undaydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy yoshlikda ilm olishning ahamiyati haqida gapirar ekan, «O'qi», «Kitob», «Qalam» kabi she'rlarida ilmni mehnatsiz egallab bo'lmisligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi.

U yoshlarga kelajakda o'z orzulariga yetishish, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan mehnat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ham mehnatning inson hayotidagi o'rni va roli misollar asosida ko'rsatib berilgan.

Shoir G'afur G'ulom ham "Go'zallik nimada?" she'rida:

Go'zallik qizlarda, Go'zallik ishlayish

Ul qaro ko'zlarda Manglayni terlatish

Soz kabi so'zlarda Go'zaldir qilgan ish

Deganlar yanglishar. Maqtansa yarashar,

-deya mehnatni go'zallikdan ustun qo'ygan.

Yuqoridagi fikrlar o'quvchi-yoshlarning mehnat tarbiyasida muhim vosita sanaladi. Yoshlar tarbiyasiga alohida ahamiyat berilar ekan, umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilarni har tomonlama sog'lom, baquvvat, intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashga ham asosiy e'tibor qaratmog'imiz darkor. Mehnat tarbiyasini tashkil etish jarayonida o'quvchilar dastlab ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy asoslari bilan tanishadilar.

Mehnat tarbiyasi bilan mehnat ta'limi bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Mehnat faoliyati ma'lum bilimga ega bo'lishni talab etadi. Zero, bilim va ko'nikmalar o'quvchini mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'radilar, Umumiy mehnat jarayonida o'quvchilarning jamoa hamda fermer xo'jaliklari, korxonalar, zavod va fabrikalarda texnik va texnologik bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek, ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo'ladi.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida mehnat tarbiyasi, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turli shakllari o'quvchining texnik ijodkorligini rivojlantiradi, u yoki bu bilim sohasida bilimga bo'lgan qiziqishini shakllantiradi. To'garaklarda o'quvchining qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun "O'qish kitobi" darsligida "O'zbekiston-Mening Vatanim", "Biz-buyuklar avlodi", "Ko'klam-yashnaydi olam", "Ilm-aql chirog'i", "Xalq o'giti-baxt kaliti", "Odob-insonga husn", "Mehnatning tagirohat", "Mustaqil o'qish uchun" kabi 8 bo'lim bo'lib, garchi har bir bo'lim o'z ichiga turli janr va mavzudagi matnlarni qamrab olgan bo'lsa-da, asarlarning yosh avlod tarbiyasidagi roli nihoyatda katta.

"Mehnatning tagirohat" bo'limida 8 ta asar mehnat tarbiyasiga oid. Bular: "Aqli bog'bon" ertagi, Abdulla Avloniyning "Soqi bilan onasi" hikoyasi, Po'lat Mo'minning "Yer nima der" she'ri, Shuhratning "Tugma" hikoyasi, Abdulla Avloniyning "Maqtanchoq g'oz" masali, Ibrohim Rahimning "Ona yer" hikoyasi, "Yurak" rivoyati, Odil Abdurahmonning "O'zbek elim" she'rlari.

Darslikda "Aql-boylik kaliti", "Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar", "Chiranma g'oz, hunaring oz", "Halol mehnat-yaxshi odat, Berar senga saodat",

"Bilmaganni bildim dema, Qilmaganni qildim dema" kabi o'zbek xalq maqollari berilgan.

Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratilib kelinmoqda. Maqollarning ayrim namunalari qadimgi yozma yodgorliklarda, jumladan, O'rxun-Enasoy bitiktoshlarida mujassamlashgan. Ba'zi yozma badiiy asarlarda: Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyaning "Hibat ul – haqoyiq ", Rabg'uziy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiylarning g'azallari, Navoiyning ulkan merosida, boshqa shoir va yozuvchilarimizning asarlarida ham xalq maqollarining ajoyib namunalari saqlanib qolgan. Gulxaniy esa xalq maqollarining go'zal guldastasini jamlagan.

Mahmud Qoshg'ariy XXI asrda xalq og'zida ancha faol qo'llanadigan maqollarning bir qismini saqlab qolgan. Ular adibning "Devonu lug'ot it-turk"iga kiritilgani uchun bizgacha yetib kelgan.Unda mehnat mavzusiga oid maqol va qo'shiqlar ham o'rin olgan.

Yigitlarig ishlatu,

Yug'ach yamish irg'atu

Qulan,kiyik avlatu

Bazram qilib avnalim

(Yigitlarni ishlatib, tosh,tayoqlarni otib,qulan va kiyiklarni ovlab, bayram qilib shodlanaylik). Ota-bobolarimiz mehnat qilib, uning rohatini ko'rishni ham bilishgan.

2020-yil O'zbekistonda "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nomlandi. Respublikamizning kelajakda yanada gullab-yashnashiga o'z mehnatlari -miz bilan hissa qo'shishlarimiz zarur deb o'ylaganimiz holda, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mehnatga va kasbga mehr qo'yishlari hamda kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun bor kuch-quvvatimizni ishga solamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy Xamsa. – Toshkent, "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 70-71-betlar.
2. Alisher Navoiy. Asarlar. O'n besh to'mlik. Uchinchi nashr.- Toshkent. G'G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 29-30-betlar.
3. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig(Saodatga yo'llovchi bilim) Nashirga tayyorlovchi B.Karimov. Toshkent. Fan. 1977 659-bet.
4. G'afurova T, Shodmonov E,Eshturdiyeva G. 1-sinf "O'qish kitobi" darsligi. T., "Sharq" 2015. 127 b.

Вишневська Г. Б.
Галицький коледж імені В'ячеслава Чорновола
(Тернопіль, Україна)

КАРТИНА СВІТУ ЯК ОБ'ЄКТ ЛІНГВІСТИЧНИХ СТУДІЙ УКРАЇНСЬКИХ ДОСЛІДНИКІВ

The article examines approaches to the study of world language issues in domestic and foreign linguistic traditions. In addition, separated the notion of conceptual, linguistic and national-language picture of the world.

Keywords: *world view, language picture of the world, a conceptual picture of the world, national-language world.*

Давність зацікавлень картиною світу людини засвідчує велика кількість праць зарубіжних (Е. Сепіра, Б. Уорфа, В. Гумбольдта, І. Гердера, Л. Вайсгербера, Л. Вітгенштейна, Д. Хаймса, М. Блека та ін.) та українських (О. Потебні, В. Русанівського, В. Жайворонка та ін.) дослідників.

Ідея існування специфічних мовних картин світу зародилася в німецькій філології кінця (І. Міхаеліс, І. Гердер, В. фон Гумбольдт). У ХХ столітті на вивчення мовної картини світу значною мірою вплинула теорія лінгвістичної відносності, здобутки етнолінгвістики, лінгвістичної філософії тощо.

Мета публікації – розгорнути й узагальнити відомості про досліджуване поняття у працях українських дослідників.

Досягнення поставленої мети передбачає виконання таких **завдань**:

- 1) з'ясувати специфіку досліджуваного терміна;
- 2) встановити спільне та відмінне між мовною та концептуальною картиною світу.
- 3) простежити особливості та розмаїття різних картин світу.

В сучасній україністиці осмислення картини світу пов'язане передусім з іменами таких учених, як Н. Слухай, Т. Вільчинська, Ю. Мосенкіс, В. Гак, І. Голубовська, Ф. Бацевич та ін. Інтенсивні розробки розгорнула нова генерація дослідників (І. Заремська «Мовна картина світу як об'єкт лінгвістичних зацікавлень», Л. Кушмар «Особливості мовної картини світу українців», О. Костюшко «Відображення мовної картини світу в тематичному словнику навчального типу» та под.).

Так, сучасні українські лінгвісти вбачають у терміні «картина світу» специфічно оформлену систематизацію плану змісту мови, у процесі якої відбувається фіксація і збереження всього комплексу знань і уявлень конкретного мовного суспільства про світ, що зафіксовано, передусім, у лексичному та фразеологічному складі мови [3].

Погоджуємось із твердженням київського дослідника В. Жайворонка, котрий вивчаючи картину світу, вбачав у змісті досліджуваного словосполучення «витвір людської діяльності, але не фізичної, а мисленнєвої, пізнавальної, результат освоєння навколишнього світу [1, с. 53].

Вчені доводять, що менталітет будь-якого лінгвокультурного співтовариства зумовлений значною мірою його картиною світу. Її можна назвати знанням про світ, лежить в основі індивідуальної й суспільної свідомості. Мова ж забезпечує вимоги пізнавального процесу [4, с. 49]. Як відомо, на формування картини світу впливають багато факторів (Рис.1).



Рис. 1. Чинники формування картини світу

Звертаючи увагу на співвідношення мовної та концептуальної картин світу, аналізують обсяг цих картин, способи систематизації їхнього змісту, структурування, атрибутивні характеристики тощо. При цьому більшість погоджується, що обидві картини світу взаємопов'язані, хоч і мають певні відмінності. На основі аналізу праць українських дослідників сформовано розрізняльну таблицю мовної та концептуальної картин світу (Рис.2).



Рис. 2. Розрізняльні ознаки картин світу

Вважаємо концептуальну картину світу ширшою, оскільки вона цілком покриває зміст мовної. Подібні думки висловлює львівська дослідниця Т. Космеда, мотивуючи це тим, що не все, що пізнане людиною, набуває словесної форми, не все відображається за допомогою мови і не вся інформація, яка надходить із зовнішнього світу, набуває мовного виразу [2, с. 12].

Чернівецька дослідниця М. Скаб вважає, що і мовна, і концептуальна картини світу можуть бути науковими чи ненауковими, індивідуальними або загальнонародними [5, с. 20-21].

Процедура опису картини світу пов'язана з реконструкцією певної підсистеми знань про людину, і її часто називають когнітивним аналізом.

Українські дослідники (О. Селіванова, Т. Вільчинська, Т. Космеда), звертаючи увагу на питання розмаїття картин світу, зокрема, аналізують обсяг цих картин, способи систематизації їхнього змісту, структурування, атрибутивні характеристики тощо (Рис.3).



Рис. 3. Основні ознаки картин світу

Залежно від зазначених пунктів виділяють наступні картини світу (Рис.4):




Рис. 4. Розмаїття картин світу, які виділяють українські дослідники

Отже, розглядаючи картину світу як центральне поняття концепції людини, перспективи подальших досліджень вбачаємо у студіюванні термінів «міфопоетична картина світу», «етнокультурна», «сакральна», «релігійна», «художня», «індивідуально-авторська», які репрезентують національномовну картину світу українців

СПИСОК ВИКОРИСТАНИХ ДЖЕРЕЛ ТА ЛІТЕРАТУРИ:

1. Жайворонок В. В. Проблема концептуальної картини світу та мовного її відображення. *Культура народів Причорномор'я*. 2002. №32. С. 51–53.
2. Космеда Т. А. Аксиологічні аспекти прагмалінгвістики: формування і розвиток категорії оцінки: монографія. Львів: Вид-во ЛНУ ім. І. Франка, 2000. 349 с.
3. Костюшко О. Відображення мовної картини світу в тематичному словнику навчального типу. URL: http://eprints.zu.edu.ua/7438/1/60_51.pdf (дата звернення: 25.01.2020).
4. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика: учеб. пособ. Минск: ТетраСистемс, 2004. 256 с.
5. Скаб М. В. Закономірності концептуалізації та мовної категоризації сакральної сфери: монографія. – Чернівці: Рута, 2008. 559 с.

Деванова И.
(Урганч, Узбекистан)

«ХУРЛИҚО ВА ҲАМРО» ДОТОННИНГ ИЛМИЙ ЖИҲАТДАН ЎРГАНИЛИШИ

Аннотация: *Мазкур мақолада туркий халқлар хусусан ўзбек орасида кенг тарқалган тарбиявий аҳамиятга эга бўлган «Хурлиқо ва Ҳамро» дотони вариант ва версиялари қиёсий ва илмий жиҳатдан ўрганилади.*

Калит сўзлар: *Халқ оғзаки ижоди, бахши, достон, сюжет, вариант версия.*

Аннотация: *В данной статье изучаются сравнительные и научные аспекты вариантов и версии дестана “Хурлико и Хамро”, которые имеют широкую образовательную значения среди тюркских народов, особенно узбеков.*

Ключевые слова: *Устное народное творчество, сказитель, дестан, сюжет, вариант версия.*

Annotation: *This article studies the comparative and scientific aspects of the options and versions of the “Khurliko and Hamro” destan, which are of wide educational value among the Turkic peoples, especially uzbeks.*

Keywords: *Oral folk art, storyteller, destan, plot, version version.*

Ўзбек халқ достонлари узоқ давом этган тарихий-бадий кўламидаги жонли ўтмишидир (1), шунинг учун ҳам қадимий тарихга эга бўлган. Ўзбек достончилигининг омма орасида яшаб келиш тамойиллари ниҳоятда кенг ва ранг барангдир, ҳеч бир жамият Биринчи президентимиз И.А. Каримов айтганидек: “Одамлар онгида маънавий ва ахлоқий қадриятларни ривожлантирмай, ҳам мустақкамламай туриб, ўз истиқболини тасаввур эта олмайди. (2)

Шу жиҳатдан қараганда, халқимизнинг эстетик идеаллари, эзгулик ва ёвузлик, садоқат ва ҳиёнат ҳақидаги қарашларини акс эттирувчи халқ достонларини тўплаш ва ўрганиш муҳим аҳамиятга эга.

«Хурлиқо ва Ҳамро» дотони сюжети қадимий ва серкатлам бўлганидан у бир халқ ёки географик маконга мансублик даражасидан чиқиб, бир неча туркий халқлар эпоси учун муштарак бўлган сайёр сюжетга айланиб кетган. Бу сюжет негизида ўзбек эпосида «Хурлиқо ва Ҳамро» туркман эпосида “Хуйрулукга - Ҳемира”, қароқалпоқ эпосида “Хуйрулука - Ҳемира” достонлари юзага келган. Машҳур олим Х.Вамбери мазкур достоннинг Хивада ёзиб олинган иккита варианты тўғрисида гапириб, бу сюжетнинг Ўрта Осиё халқлари орасида кенг тарқалганлигини қайд қилади. Достондаги Ҳамро образини “Таврот”, “Инжил” китобларида келтирилган Юсуф қиёфасидаги гўзал йигит Адонисга қиёслайди, ҳамда ушбу достон вариантларини ўзини “Чиготой тили” дарслигида чоп қилдиради. Достоннинг дастлабки ёзиб олинishi ва нашр қилиниши академик В.Родлов томонидан амалга оширилган бўлиб, у ўтган асрларда достоннинг қисқартирилган қозоқ ва уйғур тилидаги нусхаларини

1868 йилда “Образцы народной литературы тюркских племён” асаридан нашр қилдиради. Туркман фольклоршунослари томонидан ҳам «Хурлиқо ва Ҳамро» дотонининг ёзиб олинishi ва оммалаштирилиши бўйича бир мунча ишлар қилинди. Улар томонидан мазкур дoston беш марта (1927, 1935, 1950, 1971 ва 1980 йилларда чоп қилинди). Туркман фолькшуноси О. Мирбадалова мазкур дoston юзасидан тадқиқот ишлари олиб бориб, уни ўзбек версиясига қиёслаган ҳолда ўрганади. (3) Туркманча матнини русча таржимасида сўз боши ва кенг қамровли илмий изоҳлар билан биргалиқда нашр қилдирган. О. Мирбадалова томонидан нашрга тайёрланган дoston варианти ўзининг мукамаллиги билан бошқа туркман фольклоршунослари томонидан нашр қилинган вариантларидан ажралиб туради.

Чунки олима ўз нашида дostonнинг ўзбекча кўлэзма ва тошбосма вариантларига асосланади. Қароқалпоқ фольклорига эса «Хурлиқо ва Ҳамро» дотони кенг ёйилган бўлсада фақат бир марта яъни “Қароқалпоқ фольклори кўптомлигининг 16-жилдида (4) нашр этилган” Қ. Мақсетов, О.Алимов каби фольклоршунослар дoston нашрига ёзган сўз бошисида мазкур асар ҳақида эътиборли фикрларни баён этадилар. Ўзбек фольклоршуносларида ҳам бу дostonни оммалаштириш ва тадқиқ қилиш юзасидан бирмунча ишлар қилинган.

«Хурлиқо ва Ҳамро» дотонининг 1908 йилда Тошкентда Ғ. Орифжонов босмаҳонасида чоп этилган тошбосма нусхаси асосидаги халфа варианти Хоразм вилоятининг Шовот туманида яшовчи Ниёзжон халфа Мусаевадан 1980 йилда фольклоршунос олим С. Рўзимбоев томонидан ёзиб олиниб, Ҳ. Сулаймонов номидаги кўлэзмалар институтининг фольклор фондига жўнатилган. Яна шу олим томонидан 1981 йилда шимолий Хоразм дostonчилиқ мактабининг кўзга кўринган вакилларида бири бўлган Турсунбой бахши Жуманиёзовдан дostonнинг оғзаки варианти ёзиб олинган. Фольклоршунос С. Рўзимбоев «Хурлиқо ва Ҳамро» дотонининг вариантларини номли илмий мақоласида (5) Турсунбойбахши репертуаридаги оғзаки вариантни Ниёзжон халфа вариантига қиёслаган ҳолда таҳрир қилиб, дoston бадииятига доир қизиқарли қарашларини баён қилган.

«Хурлиқо ва Ҳамро» дотонидаги ўзгаришларни шартли равишда 2 турга ажратиш мумкин. 1). **Тасодифий яъни, механик тарздаги ўзгаришлар.** Бунга айрим эпизод ва деталларнинг тушиб қолиши ва уларни ўрин алмашиши натижасида юзага келган ўзгаришлар киради. 2). **Ижодий характердаги ўзгаришлар.** Бундай ўзгаришлар асар поэтикасини текширишда шунингдек дostonнинг бир сюжет доирасидаги индивидуал хусусиятларини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, айтувчининг ижодкорлик ва ижрочилиқ маҳоратига, уларнинг дунёқарашини ва эстетик принципларига бориб тақалади.

Дostonнинг барча барча версия ва вариантларини ўрганиш шунинг кўрсатадики, у ягона сюжет асосида тарқалган. Айниқса, дostonнинг Турсунбой бахши репертуаридаги оғзаки варианти ижодий импровизация асосида ижодий ўзгаришларга бой бўлиб, у дostonнинг бошқа вариантларидан ҳажмининг кенг кўлами, деталларга бойлиги, бадииятнинг юксаклиги, насрий қисмининг назмга қараганда икки хисса кўплиги жиҳатидан ажралиб туради. Бундан ташқари бу вариант образларнинг самимий мадҳ этилиши ва ижрочи бадий маҳоратининг юксак даражаси билан алоҳида диққатга сазовордир.

Умуман олганда, «Хурлиқо ва Ҳамро» дотони ўзида ўзбек халқининг азалий асрий орзуси бўлган юксак гуманизм, ватанпарварлик, халқпарварлик, камтарлик, хушмуомалалик, севгига садоқат, ота-онага, ака-сингилга ҳурмат каби юксак ғояларни ўзида акс эттирганлиги билан жуда катта аҳамиятга эга.

Уларда халқ тарихи қаҳрамонини курашлари, эзгу орзулари бадий образлар орқали ифода этилади. Хуллас ушбу дostonларни ўрганиш халқимиз маънавий оламининг ёрқинлиги ва тафаккур оламининг нақадар юксаклигини яна бир намоён қилади.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Жирмунский В. М. Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. – М.Гос. изд.худлит. 1947, с 195.
2. Каримов И. А. Ўзбек XXI аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., Ўзбекистон, 137-бет.
3. Мирбадалова О. Хурилика и Хемра, Маят и Хамра. Туркменский романический эпос. – М., Главред Вослит. 1971, с. 11-12.
4. Қароқалпоқ фольклори, XVI том. – Нукус. 1986.
5. Рўзимбоев С. «Хурлиқо ва Ҳамро» дотонининг вариантларига доир. //Ўзбек тили ва адабиёти. №2 1984.

Пирматова Озодахон Сапарбоевна
(Урганч, Ўзбекистон)

ХОРАЗМ ШЕВАСИДА ИШЛАТИЛАДИГАН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИГА ОИД АЙРИМ ШОЛИЧИЛИК ТЕРМИНЛАРИ

Аннотация. Мақолада қишлоқ хўжалигининг айрим шоличилик соҳасига оид адабий тилда ва Хоразм шевасида ишлатиладиган терминлар изоҳи берилган.

Калит сўзлар. Кунда, моло, отиз, чел, ариқ, солмо, нал, сув қочириш

Аннотация. В статье приведены термины рисоводческой сферы сельского хозяйства, использующиеся в литературном языке и хорезмских диалектах.

Ключевые слова. Колода, борона, огород, межа, арык, салма, саженец, отвод воды

Annotation. The article describes the terms of the rice-growing sphere of rural economy, which are used in the literary language and in the Khorezm dialects.

Key words. Block, harrow, garden, land boundary, channel, tiny channel, seedling, water drainage, water grass

Хоразмда қадимдан қишлоқ хўжалиги кенг ривожланган. Инсонлар асосий тирикчилик манбаи сифатида деҳқончилик билан шуғулланишган. Турли хил деҳқончилик маҳсулотлари етиштирилган. Айниқса, шоличилик Хоразмда кенг ривожланган бўлиб, гуручдан тайёрланган таомлар инсонларнинг асосий таомига айланган.

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш жараёнида турли хил иш қуролларидан фойдаланилган, қишлоқ хўжалиги билан боғлиқ турли хил терминлар ишлатилган ва бугунги кунда ҳам халқ орасида гуруч маҳсулотини етиштириш жараёнида шоли экиш, уни ўриб олиш, янчиш, омборга жойлаш, шолидан гуруч маҳсулотини ажратиб олиш билан боғлиқ Хоразм шевасига оид турли хил терминлар ишлатилади. Жумладан, шоли экиладиган ер майдонлари дала дейилади. Адабий тилда ишлатиладиган дала сўзи *отиз*, *маллак* терминлари билан ишлатилади.

Шоличиликка оид “Кунда” термини “Ўзбек тилининг этимологик луғати” да шундай изоҳланади: “Кунда. Бу от ПРСда [конде] шаклида (409), ТжРСда кунда шаклида (197) келтирилган; ўзбек тилига тожик тилидаги шакли олинган. Асли “юқори қисми кесилган” маъносини англатадиган *кунд* сифатидан (ТжРС, 196) –а қўшимчаси билан (ТжРС, 543) ясалган бўлиб, “дарахтнинг танаси қисқагина кесилган ер усти қисми илдизи билан бирга” маъносини англатади (Ўтил, I, 405)”. [2. 124]. Хоразмда ҳам кунда ёғочдан кесилган ҳолатда хўкизга қўшишга ва ер ҳайдашга мосланган.

Ҳайдалган ер майдонини текислаш учун эса “моло” асбобидан фойдаланишган. Моло лексемаси “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” да “Ҳайдалган ернинг кесакларини майдалаб текислаш ва зичлаш учун ишлатиладиган қишлоқ хўжалиги асбоби, боронанинг ёғочдан ясалган

жайдари тури”,- деб изоҳланган. [1. 470]. Ушбу лексема “Ўзбек тилининг этимологик луғати” да ҳам “Мола. Бу от *“ишқала”, “текисла”*- маъносини англатадиган тожикча *молидан* феълнинг (ТжРС, 232) *мол* ҳозирги замон асосига –а қўшимчасини (ТжРС, 543) қўшиб ҳосил қилинган бўлиб, “ҳайдалган ернинг кесакларини майдалаб текислайдиган қишлоқ хўжалиги асбоби” маъносини англатади (Ўтил, I, 470). Бу отдан ўзбек тилида *молага* феъли ясалган”. –деб берилади. [2. 141]. Қўринадики, ушбу термин форс тилига мансуб бўлиб, қишлоқ хўжалиги асбоби бажарадиган вазифасининг номи билан аталган.

Қўлча термини ҳам шולי экиш жараёнида ишлатилади. Шולי экиладиган ер майдони кичик-кичик қисмларга ажратиб чиқилади. Бу қисмлар эса *“қўлча”* дейилади. Қўлчалар арофи эса сув чиқиб кетмаслик учун тупроқ уюлиб қўлчалар атрофига текислаб чиқилади. Бу эса *“чел”* термини билан юритилади.

Хоразмда кўп миқдорда экин экиладиган катта лиманлар *“қўл”* деб аталади, яъни терминологик жиҳатдан лиман билан қўлни фарқ қилмайдилар. Ҳозир ҳам Хоразмда ривожланган деҳқончилик шароитида кичик экин майдонларини *“қўлча”* деб аталади. Экиш олдидан бу кичик экин майдонлари атрофини кўтариб сув бостирилади. Лиманлар атрофидаги кўтармалар *“чел”* деб аталади. [3. 66].

Шунингдек, сув ҳавзаларининг бошига нисбатан *“сақо”* лексемаси ишлатилади. Суғориш жараёнида *“Сувни соқосини бойла”*, дейилади. Ушбу жараёнда оқиб турган сувни тўхтатиш учун ариқ бошига тупроқ уюми ёки турли шох-шаббалар ташлаш орқали далага кирадиган сув йўли тўсилади.

Я. Ғуломовнинг “Хоразмнинг суғорилиш тарихи” асарида ҳам “Хоразмда сунъий канал боши *“сақо”* термини билан аталади. Бу термин билан Эрон ва Афғонистонда кўпинча сув ташувчиларни ёки бошқача айтганда “бошқаларни сув билан таъминлайдиганлар”ни атайдилар”.

Шарқ халқлари бадий адабиётида ёмғир булутлари кўпинча “Нил сақоси” деб юритилади, дея изоҳ берилган. [3. 255].

Шולי экиш жараёни бевосита суғориш билан боғлиқ бўлгани учун сув катта сув ҳавзаларидан ариқлар орқали *“қўлча”ларга* келтирилади. Чунки шולי экини ҳар кун суғоришни, яъни доим ичида сув туришини талаб қилади. Акс ҳолда шולי ниҳоллари қуриб олади. Шולי ниҳоли Хоразм шевасида *“нал”* термини билан юритилади.

Шולי икки хил усулда экилади. Сувга эзиб қўйилган шולי уруғи суғорилган далага сеппиб чиқилади ёки шולי уруғи кичкина майдончага экиб қўйилиб, ниҳоллар униб чиққач шולי даласига қадаб чиқилади. *“Нал”* етиштириш учун уруғни апрел-май ойларида экиш лозим. Бир сотих ерга етти-сақиз килограмм уруғ сепилади. Бир сотих ниҳол бир гектар шולי учун мўлжалланган майдонга етади. Экилган уруғ доимий сув билан таъминланиши лозим.

Шолини суғориш жараёни эса Хоразмда *“сувориш ёки сув қўйиш”* деб аталади. Шולי майдони доимий сувга тўла бўлади. Даладаги сувни икки ҳафта бир марта янгилаш лозим. Яъни даланинг суви чиқарилиб, шולי ниҳоллари янгидан суғорилади. Бу жараён эса *сув қочирини* дейилади.

Суғориш жараёнида ишлатиладиган кичик сув ҳавзалари ариқлар эса “солмо” дейилади.

Адабий тилда “*ариқ*” деб ишлатиладиган ушбу лексема “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” да “Сунъий равишда ясалган сув йўли, яъни ўзани”, деб изоҳланади. [1. 54]. Демак, ариқлар катта сув ҳавзаларининг бир қисмидир.

Агар шולי экини насос қурилмаси орқали келтирилган сув билан эмас, ўзи оқар сув орқали суғориладиган бўлса, бу “*оёқсув*” дейилади.

Хоразмда ўзи оқар тармоқ “*оёқсу*”, яъни сув оёғи, этаги деб аталади. [3. 258].

Шоли экиш жараёнида турли иш қуролларидан фойдаланилади. Яъни шולי экиладиган ер майдони белкурак орқали ағдариб чиқилади, ушбу лексема Хоразмда “*бел*” ёки “*пил*” дейилади.

Белкурак ерни қазिश, сочилган нарсаларни олиш, тўплаш учун ишлатиладиган ёғоч сопли темир қурол. [1. 90].

Шоли экиладиган *кўлчалар* атрофига эса кетмон орқали *чел* олинади. *Кетмон* лексемаси Хоразм шевасида “*катман*” деб юритилади. Кўринадики, ўғуз лаҳжасида сингармонизм ходисаси мавжуд.

Кетмон юзи катта, орқа томонида даста суқиб қўядиган зўғатаси бор, ер чопиш учун ишлатиладиган асбоб. [1. 382].

Шоли даласида доимо сув бўлгани сабаб турли хил ёввойи ўтлар тез униб чиқади. Ушбу ўтлар “*сув ўти*, *самиз ўт*, *дўнгиз ўт*, *қамиш*” каби номлар билан юритилади. “*Сув ўти*” асосан, сув бор жойда ўсгани учун, “*самиз ўт*, *дўнгиз ўт*” номлари барра ва ёйиқ ҳолда ўсгани учун шундай аталган.

Хуллас, Хоразмда ва республикамизнинг барча жойларида шолчилик қадимдан ривожланган бўлиб, у билан боғлиқ терминлар ҳам турлича. Бугунги кунда уларни тадқиқ қилиш тилшунослик олдида турган долзарб вазифалардан биридир.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006.
2. Ш. Раҳматуллаев. Ўзбек тилининг этимологик луғати.-Тошкент, 2009.
3. Я. Ф. Фуломов. Хоразмнинг суғорилиш тарихи.-Тошкент, 1959.

Эшчанова Гавхар Отажоновна, Халмуратова Ирода Сапарбаевна
(Урганч, Ўзбекистон)

«ИДЕГА» - МАШХУР ТАТАР ХАЛҚ ДОСТОНИ

Annotation: *In this article the versions and variants of the epic poem "Idega" which are spread among Tatars and its scientific research will be investigated by folklorists.*

Keywords: *Epic poem, orientalist, the history of scientific research, Turkish people, the kingdom of Temur, suppression, the variant of completion, the version in karakalpaq, the version in Kazak, poetic and prosaic part.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются версии и варианты эпоса «Идега», популярной среди татарского народа, научное изучение исследуется фальклористами.*

Ключевые слова: *Эпос, востоковед, история изучения, народ тюрков, татарская фольклористика, государства Темуридов, репрессия, собранный вариант, каракалпакская версия, казакская версия, стихотворный и пародистый часть, сказитель*

Аннотация: *Мақолада татар халқи орасида тарқалган «Идега» достонининг версия ва вариантлари, уларнинг фольклоршунослар томонидан илмий ўрганилиши тадқиқ қилинади.*

Калит сўзлар: *Эпос, шарқшунос, ўрганилиш тарихи, туркий халқлар, татар фольклоршунослиги, Темур давлати, қатоғон, йиғма вариант, қорақалпоқ версияси, қозоқ версияси, шеърӣй ва насрий қисм, жирав,*

Туркий халқлар орасида қадимдан бери машхур бўлиб, куйланиб келинаётган достонлардан бири «Идега»дир.

Достон тарқалган географик ҳудуд жуда кенг бўлиб, у «Сибирь, Ўрта Осиё, Волга бўйи, жанубий Кавказ, Қримда яшовчи кўплаб туркий халқлар орасида маълум ва машхурдир. Достоннинг Туркия, Руминияда тарқалган нусхалари ҳам эътиборга лойиқдир»¹

Идиге ҳақидаги достон негизида XIV аср бошлари ва XV аср орасида Олтин Ўрдада рўй берган сиёсий тушкунликнинг кучайиши ва Шарқда маркази Ўрта Осиё бўлган янги Темур давлатининг вужудга келиши ҳақидаги тарихий воқеалар ётади.²

Татар фольклоршунослигида «Идега» достонининг ёзиб олинishi ва тадқиқи XIX асрнинг охирларидан бошланган бўлса-да,³ унинг ўрганилишининг иккинчи босқичи XX асрнинг охирларига тўғри келади. Достоннинг қатоғонга дуч келиши унинг узоқ йиллар тадқиқ этилмасдан келишига сабаб бўлган.

Достон ҳақида дастлаб маълумот берган шарқшунос В. В. Радлов бўлиб, ундан кейин «Идега» достони 1919 йилда педагог Н. Ҳакимнинг назарига тушган ва у томонидан ёзиб олинган.⁵

XX асрнинг 40 йилларида татар халқи орасидан достоннинг 34та варианты ёзиб олиниб, тадқиқотчи Н. Исанбет томонидан асарнинг йиғма

варианти 1940 йили «Татар адабиёти» журнаlining 11-12 сонларида босилади.

Қорақалпоқ фольклоршуноси С. Баҳадырованинг таъкидлашича, Ф. Аҳметова ва И. Надировлар томонидан нашрга тайёрланган вариант, қозоқча версиядан ҳажм жиҳатидан кўп, қорақалпоқ версиясининг Қиёс жилов вариантдан кичик бўлиб, тўлалигича шеърлий тарзда ижод этилган.⁶

Татар «Идега»сининг яна бир мукамал нашри 2004 йилда амалга оширилди. Бу вариант Нигмат Ҳаким томонидан Табул губернаси Тара уезди Елапли овулида яшаган кекса бахши - Ситдан Зайнетдиновнинг оғзидан 1919 йилда ёзиб олинган.

Ушбу вариантда наср билан назм аралаш берилган бўлиб, уларнинг нисбати бир-бирига деярли тенг келади.

Достон сюжетининг қисқача мазмуни куйидагича:

1. Тўхтамишхоннинг Қутли-Қия исмли овчи қушлар етказиб берувчи - хизматкорининг бўлиши.

2. Туркистондан элчи келиб, ундан ноёб қуш тухумини беришни илтимос этиши. Қутли Қиянинг унга бир тухумни бериб юбориши. Ушбу сирнинг очилиши. Тўхтамишнинг Қутли Қияни оиласи билан бирга ўлимга ҳукм этиши.

Ёнтамир оталиқ деган қариндошининг Идега исмли бешикдаги болани олиб қолиб, ўрнига ўзининг Қобогул отли боласини бериб юбориши.

Идега (Қобогул)нинг камолга етиши, мол боқиши, жисмоний ва маънавий камолот эгаси бўлиб етишиши ва элга овоза бўлиши.

3. Идега овозасининг Тўхтамишга етиб бориши, унинг саройга олдирилиши. Тўхтамиш билан жангларда иштирок этиб, Московга бориши, юксак обрўга эга бўлиши.

Идеганинг ўз оиласининг тақдирини англаши. Тўхтамишдан ўч олишни кўнглига тугиши.

Тўхтамишнинг туш кўриши. Тушида тўққиз юлдуз ва битта тўлин ойнинг нур сочиши. Тўхтамиш ўз тушини ўзи таъбир қилиб, тўққиз юлдузнинг тўққиз бий, ойнинг эса Қобогул эканини фаҳмлаб, уларга қарши чора кўришга киришиши.

Хоннинг катта мажлис ташкил этиб, Идега шажарасини аниқлашга киришиши.

Идеганинг Бобо Тукли авлодидан бўлган Қутли-Қиянинг фарзанди эканини кексалар билсалар-да, бу ҳақда сукут сақлаганликлари.

Охирида Сабрав жирав (Сипира жилов)нинг мажлисга таклиф этилиши.

4. Сабрав жиравнинг Идега шажарасини аниқлаб бериши.

Идеганинг масала моҳиятига етиб, ҳийла ишлатиб қочиши. Изидан етиб олганларнинг гапига кирмай, Шоҳ Темирнинг ҳузурига келиши.

Шоҳ Темирнинг Идегани самимий кутиб олиши.

Идеганинг Шоҳ Темир билан Тўхтамишнинг элига бостириб келиши, Тўхтамишнинг энгилиб қочиб кетиши.

Идеганинг хон бўлиши, Шоҳ Темирнинг Самарқандга қайтиши. Идеганинг ўғли Нураддинни Тўхтамиш изидан юбориши.

Тўхтамишни ўлдириб, бошини Идеганинг олдига олиб келиши.

Нураддиннинг Шоҳ Темир ҳузурига қочиб кетиши.

5. Идеганинг ўгли Нураддини элчилар орқали ўз ҳузурига қайтариб олиши, ота-ўғилнинг ярашиши.

6. Қодирбердининг Идегага қарши кураш бошлаши.

Икки ўртада кескин жанг бўлиб, Идеганинг қочиши, қўлга яшириниши, Қодирбердининг уни қувиб бориб, топиб олиши ва қатл қилиши.

Татар «Идега»сида баён этилган воқеалар шу тариқа яқунланади.

Достоннинг насрий қисмида бадиий нутққа қараганда публицистик руҳ анча кучли.

Назмий парчалар бадиий жиҳатдан анча мукамал ишланган. Уларда образлар портрети айниқса, маҳорат билан чизилган. Чунончи, Идега портрети Сабрав жиров тилидан қуйидагича таърифланади:

Артыннан килеп қарасам,

Қаҳрдан пайдо бўлгандай.

Яныннан келип қарасам,

Илоннан пайдо бўлгандай.

Алдыннан келип қарасам,

Нурдан пайдо бўлгандай.⁷

Сабрав жировнинг портрети эса қуйидагича берилади:

Юз тўқсон ёш яшаган,

Азувлари қақшаган.

Бўйинлари бушаган,

Мучалари юмшаган.

Атка минар хали йўқ,

Минса тушар хали йўқ.⁸

Шеърий мисраларда гўзал эпитетлар қўлланилиб, тасвирнинг бадиий-эстетик қувватини оширишга алоҳида эътибор қаратилган:

Тўлал ойдаи нур юзли,

Қуралайдаи саф кўзли.

Шакар, болдаин сўзли,

Кузекейдаи сулув қиз.

Қулондай қора сочли,

Инжудайин соф тишли.⁹

Достондаги шеърий сатрларда тилнинг фонетик воситаларига ҳам катта эътибор қаратилган:

Идел деган сув бўлса,

Ике чумсам, кичарман.

Итаганда ил бўлса,

Ике урсам утарман.¹⁰

Шеърий мисраларда қаҳрамоннинг хатти-ҳаракатларини тасвирлаш ҳам таъсирчан тарзда ифода этилган:

Чуқур-чуқур йўлларни,

Босиб кетиб боради.

Ашкар-Ашкар товларни,

Ошиб кетиб боради.

Оғизларин Тарлон бўз,¹¹

Бирмай кетиб боради.

Бинобарин, татар «Идега»сининг ушбу варианты ўзининг батафсиллиги, насрий ва шеърий қисмларнинг мукамал ишланганлиги билан алоҳидалик касб этади.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Бердибаев Р. Едіга батыр. // Едіга батыр, Алматы, «Білім академиясы», 1999, 3-бет.
2. Жирмунский В. М. Тюркский героический эпос, С. 360.
3. «Идега» татар халық дастаны, ТКН, Казан, 1988.
4. Бахадырова С. «Китаби дедем Қорқыт», «Қоблан», «Едиге» ҳам ҳозирги адабият ҳаққында ойлар, Нокис, «Қарақалпақстан», 1992, 52-бет.
5. Ўша манба, 52-бет.
6. Татар эпосы. Дастаннар, «Казан», «Раннур», 2004, 286-331-бетлар.
7. Татар эпосы. Дастаннар, «Казан», «Раннур», 2004, 297-бет.
8. Ўша манба, 293- бет.
9. Ўша манба, 312- бет.
10. Ўша манба, 293- бет.
11. Ўша манба, 303-бет.

MODERN SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

International Scientific Journal

Executive Editor-in-Chief: PhD Oleh M. Vodiany

JANUARY 2020

ISSUE 12

The results of scientific researches, errors or omissions are the authors`
responsibility

Founder: "iScience" Sp. z o. o.,
NIP 5272815428

Subscribe to print 5/02/2020. Format 60×90/16.
Edition of 100 copies.
Printed by "iScience" Sp. z o. o.
info@sciencecentrum.pl, <https://sciencecentrum.pl>

